

ISSN: 2181-3558

«SCIENCE AND RESEARCH»

JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION
AND RESEARCH

INTEGRATSIYALASHGAN

TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF
INTEGRATED
EDUCATION AND
RESEARCH**

ISSN 2181-3558

VOLUME 2, ISSUE 5

COLLECTION B

MAY 2023



Tahririyat a'zolari
Editorial board

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.
Mirzayeva S.R. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent

Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent
Dexqonova M.Sh. f.f.d.
Hasanov A.M. fil.f.d.

Mas'ul kotib: M.Yusupov

BIRINCHI SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Hakimova Marjona Iskandarzoda

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda yangi va qiziqarli metodlarni qo'llash hamda dars jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy innovatsiya, metod, o'yin, ta'limiy, ta'lim, multfilmlar, "Merry Riddles", pantomime.

Abstract. In this article, as a result of the use of new and interesting methods in teaching English in primary grades, as well as the use of modern approaches and innovative methods in the course of the lesson, the development of students' logical thinking skills, fluency in speech, quick and correct answers Information is given about the formation of teaching skills and the desire to prepare thoroughly for classes.

Keywords: Modern innovation, method, game, educational, educational, cartoons, "Merry Riddles", pantomime.

Абстрактный. В данной статье в результате использования новых и интересных методик в обучении английскому языку в начальных классах, а также использования в ходе урока современных подходов и инновационных методов, развитие у учащихся навыков логического мышления, беглости в речи, быстрых и правильных ответах Дается информация о сформированности педагогических навыков и стремлении основательно подготовиться к занятиям.

Ключевые слова: Современное новаторство, метод, игра, развивающие, развивающие, мультфильмы, «Веселые загадки», пантомима.

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Shu boisdan respublikamizda sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish maqsadida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshdi va davlatimiz tomonidan til o'rganishga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

So'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, ingliz tili fanini qiziqarli qilib o'tishni ya'ni turli innovatsion metodlardan, texnik vositalardan, turli

xil o'quvchini jalb qiluvchi, interfaol o'yinlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Dars davomida bunday o'yinlardan foydalanish o'quvchining fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Ingliz tilini o'rganish bugungi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Binobarin, yosh avlod o'rtasida ushbu fanga bo'lgan qiziqishni nafaqat oshirish, balki ularning bu yo'ldagi izlanishlarini rag'batlantirish ota-onalar qatori pedagoglar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi.

Hozirgi rivojlanish jarayonida ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Chunki ingliz tili jahon tiliga aylandi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishini isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun bir nechta turli xil innovatsion metodlardan foydalanish lozim. Keling, boshlang'ich sinflarda, xususan, birinchi sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta qiziqarli va samarali metodlarni ko'rib chiqamiz:

“Ko'rish orqali eslab qolish.” Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

Yana bir samarali metod qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylashdir. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

“Multfilmlar orqali o'rgatish.” Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular

ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

“Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish.” Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi:

"Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoqning javobini topadilar.

"Pantomima" (pantomime). Bunda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi va o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa so'zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo'ladi.

Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnatilib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo'lsa, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak. Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olmani tatib ko'rishi paytida uning rangi qizil(red) yoki yashil(green), ta'mi shirin(tasty) yoki katta(big), kichik (small) shakli haqida ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bu hol bolaning keyingi o'rganishlarida ham yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil-red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Zero, ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan va bu tillarda bemalol gaplasha olish imkoniyatiga ega bo'lgan insonda dunyo-ilm fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'ladigan energiya doim mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish. - Tajibayev G.Sh.
2. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)IXalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
3. J. Jalolov - ingliz tilini o'qitish metodlari —O'qituvchil nashiryoti Toshkent To'xtasinova, N.R.Q., & Soibjonova, M.T.O.Q. (2022). TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.

МЕТОДИКА ТРЕНИРОВКИ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВА УЧЕНИКОВ С НИЗКИМ УРОВНЕМ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ

Бокиев Ашир Али Абдиганиевич

*Старший преподаватель кафедры спортивных игр ФерГУ
aa-bokiyev@fdu.uz*

Абдиганиев Искандар Ашир Али угли

*Магистрант 1-курса направления физической культуры ФерГУ
Iskandar@fdu.uz*

Абдиганиева Зиёда Мирзохид кизи

*Магистрант 1-курса направления физической культуры ФерГУ
Ziyoda@fdu.uz*

Аннотация. В статье проведено теоретико-экспериментальное обоснование методики тренировки развития физических качеств учеников с низким уровнем физической подготовленности за счет подбора индивидуально оптимального темпа выполнения двигательных действий и стандартизации физических нагрузок в заданный временной промежуток. Представлены результаты эксперимента, отражающие эффективность индивидуализации тренировки учеников средних общеобразовательных школ с низким уровнем физической подготовленности.

Ключевые слова: физическая подготовленность, физические качества, двигательные способности, индивидуализация тренировки.

Annotation. The theoretical and experimental substantiation of the training methodology for students with low level of physical readiness is carried out in the article on the account of selection of the individually optimal pace of performance of motor actions and standardization of physical loads within given time interval. The results of the experiment, reflecting the effectiveness of the individualization of the students training with low level of physical readiness, have been presented in the article.

Keywords: physical readiness, physical qualities, motor abilities, individualization of training.

Аннотация. Ушбу мақолада жисмоний тайёргарлиги паст булган укувчилар жисмоний сифатларини ривожлантириш машгулотларини ташкиллаш методикаси ҳамда харакатчанлик куникмаларини индивидуал ёндашиб оптималлаштириш, жисмоний юкламаларни маълум вақт оралигида стандартлаштириш хақида фикр юритилиб, шунингдек жисмоний тайёргарлиги паст булган талабалар билан машгулотларни индивидуал тарзда олиб бориш тажрибалари натижалари самараси келтирилган.

Калит сузлар: жисмоний тайёргарлик, жисмоний сифатлар, харакатчанлик кобиятлари, индивидуал машгулотлар, жисмоний юкламалар.

В процессе изучения подходов к тренировке учеников с низким уровнем физической подготовленности было выявлено многообразие используемых средств и методов. Преимущественно для данной категории обучаемых рекомендуется комплексная тренировка с небольшой нагрузкой. Тренировка с акцентированным развитием отдельных физических качеств нецелесообразна в связи с быстрым наступлением утомления [3]. В определенных случаях в зависимости от структуры физической подготовленности направленность тренировки может изменяться – на развитие отдельных мышечных групп, физических качеств, комплексное развитие [4]. Подобная направленность тренировки должна базироваться, прежде всего, на учете индивидуальных особенностей и возраста занимающихся, наличия двигательного опыта, уровня функциональных возможностей организма [2]. В настоящее время принципы индивидуализации и доступности применяются не в полной мере при групповой форме проведения занятий в виду сложности их организации [7]. Уровень физической подготовленности тесно связан с показателями физического развития и функционального состояния человека. Однако проведенные исследования не выявили достоверных различий между показателями физического развития и функционального состояния учеников, полярных по физической подготовленности групп. Выраженные различия этих показателей наблюдаются при физических нагрузках различной интенсивности [8].

Для определения оптимального соотношения интенсивности и продолжительности тренировочной работы для рассматриваемой категории учеников был проведен педагогический эксперимент с использованием метода активного планирования. Педагогический эксперимент проводился в течение одной четверти учебного года с привлечением трех групп учеников – двух экспериментальных, одной контрольной. В первой экспериментальной группе (ЭГ-1) направленность тренировки заключалась в выполнении серии стандартно повышающейся нагрузки; во второй (ЭГ-2) – использовался метод групповой индивидуализации; контрольная группа (КГ) занималась по существующей программе. Предложенная методика имела следующие особенности: Во-первых, при реализации методики использовался принцип групповой индивидуализации. Суть его заключалась в том, что подготовительная и заключительная части занятия были общими для всех занимающихся, основная часть проводилась по малочисленным группам, имеющим одинаковый уровень физической подготовленности. Нагрузка планировалась и регулировалась, исходя из состояния занимающихся в каждой конкретной группе [9]. Данный методический прием стимулировал занимающихся и обеспечивал их активность даже после значительных

объемов выполненной тренировочной работы. Во-вторых, тренировка носила направленность на преимущественное развитие физической выносливости и силы, увеличение функциональных возможностей организма, его подготовку к последующим более высоким нагрузкам. В-третьих, постоянно осуществлялся контроль состояния занимающихся для исключения их переутомления. В-четвертых, использовались разнообразные упражнения, вызывающие интерес у занимающихся, что создавало положительный эмоциональный фон занятий. В-пятых, применялась специальная стандартизация нагрузки в серии занятий, обеспечивающих успешную адаптацию организма обучаемых к ступенчато повышающейся нагрузке. Для повышения интереса студентов к личной физической подготовленности им планировались контрольные задания на каждый этап подготовки [5]. Исходя из фактического уровня развития выносливости, рассчитывалась скорость бега на 3 км. На основе рассчитанных беговых нагрузок была составлена программа тренировки [1]. Для оперативного контроля состояния работоспособности испытуемых в ходе эксперимента фиксировались косвенные показатели, отражающие текущее ее состояние [6].

В результате педагогического эксперимента косвенные показатели работоспособности улучшились у всех учеников, у студентов контрольной группы изменения были недостоверны (таблица 1) Анализ полученных данных позволяет заключить, что в косвенных показателях работоспособности отмечается позитивная динамика. Кроме того, следует подчеркнуть, что выбранные показатели достаточно информативно характеризуют оперативные изменения состояния работоспособности. После эксперимента существенно улучшились показатели физической подготовленности и максимального потребления кислорода. В экспериментальных группах максимальное потребление кислорода возросло на 15–22%, в контрольной – на 5%, результаты в беге на 3 км, улучшились соответственно, на 66–76 с и на 32 с. Данные показатели достоверно характеризуют функциональные возможности организма. . Главный итог эксперимента – достижение оценки «хорошо» по физической подготовленности учениками экспериментальных групп.

(Таблица 1) Динамика показатели физической подготовленности и МПК до и после эксперимента. (МПК- максимальное потребление кислорода).

ПОКАЗАТЕЛИ		Экспериментальные группы, значения показателей		
		ЭГ-1	ЭГ-2	КГ
МПК, мл кг-1 мин-1	До эксперимента	35,8-6,3	38,4-2,0	37,3-8,5
	После эксперимента	43,9-5,2	44,6-7,1	39,2-7,0
	Изменение (в %)	122	115	105
Подтягивание на перекла, кол-во раз	До эксперимента	6,2-1,7	6,0-2,3	6,1-2,7
	После эксперимента	11,3-3,2	11,5-2,7	8,4-1,8

	Изменение (в %)	182,4	191,3	131,5
Бег 100 м,с	До эксперимента	15,9-0,23	16,1-0,25	16,0-0,29
	После эксперимента	14,7-0,18	14,6-0,21	15,7-0,27
	Изменение (в %)	92,3	91,7	98,0
Бег 3000 м,с	До эксперимента	827,8-19,4	835,3-21,6	832,3-17,1
	После эксперимента	761,6-18,6	759,5-17,7	800,6-16,4
	Изменение (в %)	92,2	91,6	96,4
Физическая подготовленность	До эксперимента	Неудв.	Неудв.	Неудв.
	После эксперимента	Хорошо.	Хорошо	Хорошо

Таким образом, применение средств физической тренировки для слабо подготовленных учеников должно предусматривать повышение общей выносливости, обеспечение постепенного перехода от малой к большой физической нагрузке по мере увеличения функциональных возможностей организма, повышение различных видов специфической и неспецифической устойчивости организма, обеспечение профилактики нервно-эмоционального напряжения. Тренировочные занятия со слабо подготовленными учениками целесообразно проводить с использованием принципа групповой индивидуализации. Его суть состоит в том, что подготовительная и заключительная части занятия проводятся со всеми занимающимися, а основная тренировка организуется по отдельным группам учеников, имеющих одинаковый уровень подготовленности, физическая нагрузка регулируется, исходя из состояния занимающихся в каждой конкретной группе.

Литература

1. Бокиев А.А. Инновация повышения эффективности в обучение технике легкоатлетических упражнений. Научный вестник, журнал ВАК Наманганский Государственный Университет, 2021-год, №12, 635-638ст.
2. Бокиев А.А. Мактаб укувчиларнинг назарий билим ва харакатчанлик тайёргарлиги узвий боғликлигининг тажрибада асосланиши. ОАК журнали Наманган давлат университетининг илмий ахборотномаси 2022-йил май ойи 5- сони 864-869-бетлар.
3. Bokiev A., Abduganiyev I. The innovation in improving the effectiveness of teaching training techniques of light athletics. Asian journal of Multidimensional Research (INDIA) ISSN:2278-4853 Vol.11, Issue 5-May 2022 SJIF 2022=8.179 A peer reviewed journal.
4. Ashurali B. The impact of changes in the rules and equipment on the results of athletes in the chosen sport (athletics). AcademiciaGlobe: Interdiscipline Research (AGIR) (Indonesia) ISSN:2776-1010 In Volume 3, Issue 11-Nov., 2022.
5. Boqiyev A.A. O'rta va uzoq masofalarga (stayer) yuguruvchilarni tayyorlashda murabbiylik. O'quv-uslubiy qo'llanma. Farg'ona 2022 yil 30.08.
6. Boqiyev A.A. Yengil atletika mashqlarini samarali o'qitish. O'quv qo'llanma. Farg'ona 2022 yil 30.12.
7. Бокиев А.А. Методика тренировки студентов с низким уровнем физической подготовленности. Conferencea Published 2023.2.8. 3-7. Retrieved from.
8. Бокиев А.А., Мирзаев М.М. (2023) Методика индивидуализированной подготовки спортсменов в годичном цикле специализирующихся в спринтерском беге в климатических условиях Узбекистана. International bulletin of applied science and technology, 3(5), 257-261.
9. Bokiyevev A., Abdiganiyev I., Abdiganiyeva Z., Methods of training the development of physical qualities of students with a low level physical fitness. American journal of Pedagogical and Educational Research ISSN(E):2832-9791 | Volume 11, | April, 2023.

SO'Z BIRIKMASI HAQIDA MA'LUMOT. SO'Z BIRIKMASINING BIRIKISH USULLARI

Isomiddinova Shahzoda

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
Rus tili (o'zga tilii guruhlarda) 2-kurstalabasi.*

Komilova Gulmira Temirovna

"O'zbek tilshunosligi" kafedrasida professor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'z birikmasi haqida ma'lumot berilgan va so'z birikmasining birikish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kirish so'zlar: sintaksis, so'z birikmasi, so'z, sintagma, gap, moslashuv, qaratqich kelishigi, boshqaruv, Bitishuv.

Abstract. This article is about clause and the information which is about the connection types of clauses is given in it.

Key words: syntax, clause, adaptation, word, sentence, possessive clause, compound clause

Аннотация. В этой статье представлена информация о словообразовании и обсуждаются способы сочетания слов.

Вводные слова: синтаксис, словосочетаний, слов, предложения, согласование, управление, примыкание.

KIRISH.

Hozirgi zamon talabi ona tili o'qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta korib chiqishni taqozo etadi. Ma'lumki, yangilangan ona tili ta'limining mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'Zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilish malakalarini qayta korib chiqishni taqozo etadi. Ma'lumki, yangilangan ona tili ta'limining shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Sintaksis grammatikaning bir qismidir. Sintaksisning asosiy o'rganish ob'yektlaridan biri so'z birikmasidir. So'z birikmasi — nutq va tafakkur jarayonida bir-biriga tobelanish yoki tenglik asosida birikkan, ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, yaxlit, biroq qismlarga ajraladigan, tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlar birikmasi.

ASOSIY QISM

Tilning eng muhim ijtimoiy vazifasi fikrni aniq shakllantirish, uni tushunarli ifoda etish, insonlarga fikr almashinuv vositasi sifatida xizmat qilishdir. Biz muloqot qiladigan til turli birliklardan iborat bolib ular tilda o'ziga xos muhim bir vazifalarni bajaradi. Lingvistik jihatdan tahlil qilinganda esa til birliklari alohida ajratilib, aniqlanadi hamda izohlanadi. Tildagi ma'lum bir qoidalar asosida so'zlarning o'zaro birikuvidan so'z birikmasi hamda gaplar hosil bo'ladi. Grammatikaning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lgan sintaksisda so'z birikmalari, gaplarning qurilishi hamda ifoda xususiyatlari o'rganiladi. Sintaksis yunoncha "syntaxis" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yopishtirish, bog'lash kabi

ma'nolarni anglatadi. Grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, unda so'z birikmalari, gap turlari o'rganiladi. Demak, sintaksis so'z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi degan ikkita bo'limni o'z ichiga oladi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning ma'no, grammatik va ohang jihatdan birining boshqasiga tobe bo'lib bog'lanishi so'z birikmasi deb ataladi. So'zlar bir-biri bilan ikki xil bog'lanadi:

Teng bog'lanish. Bunda bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi, bir-biri bilan sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. Masalan, Ertalab maydonda erkaklar va ayollar to'planishdi. Gapida erkaklar va ayollar qo'shilmasi teng bog'lanishga misol bo'la oladi. Teng bog'lanish natijasida so'z qo'shilmasi tuziladi.

Tobe bog'lanish. Bunda bir so'z boshqasiga tobe bo'ladi: Ertalab to'planishdi, maydonda to'planishdi. Tobelikning asosiy belgisi: bir so'z boshqa so'zni izohlab keladi. Bir -biriga tobe bog'langan so'zlar so'z birikmasini hosil qiladi.

So'z birikmasi tarkibida hokim va tobe so'zlar farqlanadi. So'z birikmasida ma'nosi izohlanayotgan so'z hokim so'z, uning ma'nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan so'z tobe so'z hisoblanadi. So'roq hamma vaqt hokim so'zga qarab beriladi, so'roqqa javob bo'lgan so'z tobe so'z hisoblanadi: Shirin olma (qanday olma?). Hokim so'z ot, sifat, son, olmosh, ravish, umuman olganda, otlashgan so'zlar bilan ifodalansa, otli birikma hisoblanadi: baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarning hammasi, o'qdan tez, o'quvchilarning beshtasi.

Hokim so'z fe'l va uning shakllari bilan ifodalansa, fe'lli birikma hisoblanadi: kitobni o'qidi, ishni bajarib, tez yugurgan, daftarga yozmoq.

So'z va so'z birikmasi borasida tilshunos olimlar tomonidan turli fikrlar va qarashlar mavjud. Xususan, F. De. Sossyur so'z haqida shunday deydi: "So'z tushunchasi bizning tasavvurimizdagi konkret til birligi bilan teng emas... Tilning konkret birligini so'zdan Qidirmaslik kerak."

So'z birikmasi va so'z. So'z narsa, belgi, shaxs, ish-harakatni umuman ifodalash uchun xizmat

Qiladi: Kitob deganda umuman kitoblarni, bordi deganda umuman borilganlikni tushunamiz.

So'z birikmasi ham narsa, belgi, ish-harakatni ifodalaydi va bu jihatdan so'zga o'xshab ketadi, ammo so'z birikmasi narsa, belgi, ish-harakatni boshqa narsa, belgi, ish-harakatlardan ajratib, aniqroq qilib

Ifodalaydi: o'quvchi – a'lochi o'quvchi, yozish – tez yozish. Qo'shma so'z va so'z birikmasi o'zaro quyidagicha farqlanadi: qo'shma so'z bir so'roqqa javob bo'ladi, so'z birikmasi tarkibidagi har bir so'z alohida-alohida so'roqlarga javob bo'ladi: sotib olmoq (nima qilmoq?) – qo'shma so'z;

jo'shib kuylamoq (qanday kuylamoq? Jo'shib nima hilmoq?). So'z birikmalari qo'shma so'zlarning birinchi bosqichidir: ko'zning oynagi – ko'zoynak, sarv qomatli – sarvqomat, dunyoni qarash - Dunyoqarash va h.

So'z birikmasi va sintagma. Sintagma fonetik hodisa bo'lib, unda ikki so'z o'zaro birikkanda mazmun yetakchi hisoblanmaydi, bitta mustaqil yoki bitta yordamchi so'z ham sintagmani tashkil etishi mumkin. Yoxud bir so'zning o'zi ham sintagma hisoblaniishi mumkin. So'z birikmasi esa eng kamida ikkita mustaqil So'zdan iborat bo'ladi.

So'z birikmasi va gap. Gap fikr, tasdiq yoki inkor hukmni bildirib, tugallangan ohang bilan aytiladi: Ko'cha katta. So'z birikmasi esa atash ohangi bilan aytiladi: katta ko'cha. Gap bitta so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin va u kesimlik qo'shimchalari bilan shakllangan bo'ladi, so'z birikmasi esa har doim eng kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi: Bahor (gap). Atrof yam- yashil libosga (so'z birikmasi) burkangan. Shu xususiyatlari bilan ular o'zaro farqlanadi.

Tobelanish — tobe sintaktik munosabatda bo'lish; so'z birikmasi yoki gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro teng bo'lmagan, sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga bo'ysunuvchi munosabati. Sintaktik

jihatdan biri ikkichisiga bo'ysunadigan, biri ikkinchisiga tobe bo'lgan birliklar orasida tobe aloqa mavjud bo'ladi. Tobe aloqada bir uzv ikkinchisiga nisbatan tobe, ikkinchisi esa unga nisbatan hokim vaziyatda bo'ladi. Mas: aniqlovchi — aniqlanmish, to'ldiruvchi — kesim, ega — kesim aloqalari tobe aloqadir: go'zal hayot, hunarni sevmoq, dalalar yashnamoqda kabi. Ega — kesim munosabatida hokim qism, qolgan turdagi birikuvlarda esa tobe qism oldin keladi. Tobe aloqaning 3 xil turi bor: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. Boshqaruv

Bitishuv. Hokim va tobe so'zlarning o'zaro so'z tartibi hamda ohang yordamida birikishiga bitishuv deyiladi. Bitishuv yo'li bilan bog'lanish sifatlovchi-sifatlanmish (yangi libos), izohlovchi-izohlanmish (shoir Erkin Vohidov), qisman hol-hollanmish (to'satdan uchrab qolmoq) munosabatidagi birikmalarga xos bo'lib, uning qismlari ifoda materialiga

Ko'ra turlicha bo'ladi:

sifat + ot:ziyrak bola, yam-yashil dala;

ot + ot:temir darvoza, oltin kuz;

son + ot: besh kishi, o'n tup ko'chat;

olmosh + ot:barcha xalqlar, shu yo'l;

sifatdosh + ot:sinalgan odam, aytilgan so'z;

ravish + ot:mo'l hosil, ko'p xususiyatlar;

taqlid so'z + ot:g'ir-g'ir shabada, tars-turs ovozlari;

ravish + fe'l:tez yurmoq, erta kelmoq;

ravishdosh + fe'l:o'ylab gapirmoq, quvonib aytmoq;

taqlid so'z + fe'l:duv-duv to'kilmoq, gir-gir aylanmoq. Moslashuv.

O'zbek tilida qaratqich va qaralmishning aloqasi bog'lanishning alohida turini tashkil qiladi. Bunda so'zlardan birini hokim, birini tobe deb qarash qiyin, chunki qaralmishning talabi bilan qaratuvchi bo'lak qaratqich kelishigi shaklini oladi, o'z navbatida, qaratuvchining talabiga ko'ra qaralmish egalik affiksini qabul qiladi: bolalarning quvonchi, mening kitobim, sening daftaring, ularning vazifasi kabi. Bunda munosabatdorlik (o'zaro hokimlik, tobelik) kuzatiladi. Bunda

bog'langan har ikki so'z bir-biriga muvofiqlashib, tobe so'z Shu aloqaga mos hokim so'z formada keladi; ulardan birining o'zgarishi bilan

Boshqasi ham o'zgarib, shunga mos formaga o'tadi – o'z shakllanishini unga Barobarlashtiradi. Masalan, terimchining hikoyasi. Qaratqich bilan qaralmish moslashuv yo'li bilan bog'lanadi; shaxs va sonda moslashadi. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe so'z bilan hokim so'z bir-biriga moslashadi, harakat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishliligi ko'rsatiladi. Masalan, mening vatanim, gullarning guli, talabalarning o'qishi.

Gullarning guli –Nargis . Bunda guli (hokim) so'z talaba bilan gullarning (tobe so'z) qaratqich kelishik qo'shimchalarini olib kelgan. Dutorimning torlari qo'sh bulbuldek sayraydi kabi. Moslashuv hodisasi so'z birikmasining doirasi bilangina cheklanmaydi. Ega va kesim moslashuv yo'li bilan bog'lanadi. Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma'nolar deb xoslik, butunning bo'lagi, to'dadan ajratilgan qism, o'ringa, vaqtga munosabat ma'nolari ta'kidlanadi. Asli bu ma'nolar – birikmaning ma'nolari emas, balki qaratuvchi, Qaralmish bo'lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma'nolar. Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasining bir vakili-qaratqich kelishigi bilan Nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog'liqlik namoyon bo'ladi. Bunda kelishik sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko'rsatkichi bo'ladi; nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi, lekin shakl o'zgartiruvchi ekanidan qat'I nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo'ladi.

Boshqaruv. Tobe so'zning hokim so'z talab etgan shaklda kelishi boshqaruv deyiladi. Bunda boshqariluvchi so'z 8bosh va qaratqich kelishigidan tashqari boshqa kelishik shaklini yoki ko'makchini olib keladi. Boshqariluvchining qaysi kelishik yoki ko'makchi bilan shakllanishi boshqaruvchi so'zning ma'nosi, semantikasi bilan belgilanadi: kitobni o'qimoq, qariyalarga g'amxo'rlik qilmoq, universitetda o'qimoq, ishdan qaytmoq, o'quvchilar bilan suhbatlashmoq kabi boshqaruv ikki xil bo'ladi: kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv. Kelishikli boshqaruvda boshqariluvchi so'z ma'lum kelishik shaklida qo'llanadi: kattalarni hurmat qilmoq, tog'ga chiqmoq kabi. Ko'makchili boshqaruvda boshqariluvchi so'z ko'makchi orqali shakllanadi: zavq bilan ishlamoq, telefon orqali gaplashmoq kabi. Boshqaruv usuli bilan bog'lanish to'ldiruvchi-to'ldirilmish, hol- hollanmish munosabatlarini yuzaga keltiradi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida so'z birikmasi tuzilish strukturasi ko'ra, grammatik munosabatga kirishishiga ko'ra, ba'zi shakllarda so'zga, ba'zi o'rinlarda gapga tenglanishiga ko'ra murakkab tuzilma hisoblanadi. Grammatikada so'zlarning so'z birikmalari va gaplarga, sodda gaplarning esa qo'shma gaplarga birikish usullarini, so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi va vazifalarini o'rganadigan bo'limi. Sintaksis so'z birikmasini va gapni tekshiradi, uning asosi gap haqidagi ta'limotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.
2. M Kurbanova, Hozirgi zamon o'zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar)
3. <https://fayllar.org/soz-birikmasi-va-boshqa-til-birliklari-sintagma-ibora-gapning.html?page=2>
4. <https://azkurs.org/bitishuv-munosabatiga-kirgan-sozlar-reja-bitishuv-haqida-mosla.html>
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, 2006

**YOSH GANDBOLCHILARNING TEXNIK XARAKATLARINI
RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQLAR
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Turaqulov.I.R

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti P.h.D

Siddiqova D.B.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutimagistri

Annotatsiya. Maqoladayosh gandbolchilarni texnik harakatlarga o'rgatishda o'quv-mashg'ulot vosita va usullari, qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar hamda o'quv-mashg'ulotlarini rejalashtirishdagi muammolar tadqiqetilgan. Shuningdek, yosh gandbolchilarni texnik harakatlarga o'rgatishda qo'llanilgan vosita va usullarning samaradorligi aniqlanib, yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar metodikasini takomillashtirish ilmiy asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: Gandbol, sport mahorati, to'pni his qilish, mashq bajarish, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik.

Аннотация. В статье рассматриваются тренировочные средства и методы, используемые инновационные технологии, а также проблемы планирования подготовки юных гандболистов к техническим движениям. Также определена эффективность средств и методов, применяемых при обучении юных гандболистов техническим движениям, и научно обосновано совершенствование методики обучения, направленной на развитие технической подготовки юных гандболистов.

Ключевые слова: Гандбол, спортивное мастерство, чувство мяча, упражнение, быстрота, ловкость, выносливость, гибкость.

Annotation. The article discusses training tools and methods, innovative technologies used, as well as the problems of planning the preparation of young handball players for technical movements. Also, the effectiveness of the means and methods used in teaching young handball players to technical movements is determined, and the improvement of teaching methods aimed at developing the technical training of young handball players is scientifically substantiated.

Key words: Handball, sportsmanship, sense of the ball, exercise, speed, dexterity, endurance, flexibility.

Gandbol sport turining xalqaro miqiyosda rivojlanib borishi, jamoalar orasidagi raqobatni, g'alabaga bo'lgan kurashni, terma jamoa va klublarning tayyorgarlik jarayonlari samaradorligini oshirishni taqazo etmoqda. Biroq bu masalani, gandbolchilarning musobaqa faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilmasdan echish mumkin emasligi xammamizga ayon. Mashg'ulotlarda mashqlarning sportchilar organizmi va jismoniy sifatlarini xar tomonlama rivojlantirishga qaratilishijuda muhimdir.

Hammamizga ma'lumki, o'yin vaqtida sportchi bir laxzada o'yin suratini pasaytirmasdan, o'zining aniq bir taktik mahoratini qo'llashi kerak bo'ladi. Mutaxassislarning fikricha musobaqalarda muvoffaqiyat qozonish uchun nafaqat sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, balki jamoani o'yinga texnik-taktik jixatdan tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi. Harakat yoki harakatlar majmuasining texnikasini o'zlashtirish shug'ullanuvchida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni etarli darajada rivojlantirishni taqozo etadi. Bu sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarilish tartibi va yo'nalishi o'rgatiladigan (o'zlashtiriladigan) o'yin malakasining texnikasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq [1].

Taktik tayyorgarlik nazariy-intellektual tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik jarayonlari bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Nazariy mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilarning va jamoaning nafaqat xususiy (shaxsiy) taktik imkoniyatlari (taktik usullari, taktik fikirlash, taktik reja tuzish, taktik qaror qabul qilish va.h.k.) shakllantiriladi, balki bo'lajak raqib o'yinchilar va raqib jamoalar taktik andozalar (modellari) ham puxta o'rgatilishi zarur. Muayyan raqib jamoaga qarshi modellashtirilgan o'yin mashg'ulotlari va nazorat musobaqalari muntazam tashkil etilib borilishi maqsadga muvofiq (1 jadvalga qarang).

YOSH GANDBOLCHILARNI HUJUM TEXNIK HARAKATLARGA O'RGATISH USULLARI.

So'zdan foydalanish usullari	Ko'rgazmali qabul qilish usullari	Amaliy usullar	
Hikoya, ta'rif, suhbat, tushuntirish, tahlil qilish, ko'rsatma berish.	Chizmalar, jadvallar, kinogrammalar, video yozuvlarni ko'rsatish, namoyish qilish	Qat'iy tartiblashtirilgan mashqlar usublari. Qismlarga bo'lib o'rganish. Butunligicha kombinasiyani o'rganish.	Qisman tartiblashtirilgan mashqlar usublari. O'yin, musobaqada kombinasiyalarni qo'llash.

Taktik tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil qilish uchun dastavval uslubiy mashg'ulotlarda jamoa o'yinchilari va raqib jamoa o'yinchilarining taktik imkoniyatlari videofilmlar yordamida tahlil qilinishi zarur.

Mutaxassislarning aksariyati sportchilarni jismoniy tayyorgarligi va maxoratini nazorat qilishning eng oson yo'li ularni musobaqalardan jamoaga keltirgan foydasi va g'alabaga qo'shgan hissasini nazorat qilishdan iborat deb hisoblaydilar [2].

Musobaqalarda g'alaba qozonishning asosiy omili o'yinchilarning yuqori darajada o'zlarining shaxsiy taktik xarakterlarini (SHTX) namoish etishiga bog'liq. SHTX deganda, xar bir o'yinda, o'yin shart sharoitlariga qarab o'yinchilarning umumiy harakatlarini tushunamiz.

Xar bir o'yinda musobaqalar jadvali tig'iz bo'lgan taqdirda, sportchilarni kayfiyati, texnik-taktik jixatdan puxta tayyorgarligi, qobiliyatlarini to'g'ri baholab bilish, kerakli vaqtda o'yinga tushirish yoki almashtirish.

Jamoa muvoffaqiyatining garovi hisoblanadigan yana bir muhim omil, SHTX va GTX (gurux taktik xarakterlari) hisoblanadi. Jamoa gurux bilan kombinasion o'yinlarga alohida etibor qaratish lozim [2].

Ayniqsa jamoada o'yinchilar 2-3 tadan bo'lib, o'zaro bir birini yaxshi tushunib o'yin namoish etsa, o'yin qiziqarli bo'ladi va natija ko'ngildagidek bo'ladi. Yetakchi mutaxassislar musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritish uchun sport o'yinlari, shu jumladan gandbol jamoasining gurux taktik xarakterlari, umum jamoa texnik-taktik o'yinlari katta axamiyatga ega.

Ba'zi murabbiylar fikricha o'yinda har bir sportchi o'zining texnik-taktik xarakterlariga ega bo'lishi kerak va bu xarakterlar raqib uchun sir bo'lishi kerak. Musobaqalarga tayyorgarlik davrida ana shu xarakterlar ustida mashq qilish kerak. Hususan xujumchilar ana shunga katta etibor berishi zarur.

Jamoa muvoffaqiyatining eng asosiy sharti jamoa, taktik xarakterlari JTX. O'yinda jamoaning aniq texnik-taktik xarakterlari (JTX), kombinasion o'yinlar o'yinchilarning o'zaro bir-birini tushunib xarakter qilishi g'alaba uchun zarur va shart [3].

V.N. Txorevtadqiqotidagandbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasi doimo yuqori bo'lishi, gandbol o'yinidagi vaziyatlarda jismoniy texnik-taktik sifatlarining bog'liqligi natijasi orqaligina chiqib ketishni ta'kidlab o'tganlar va gandbolchilarning musobaqa faoliyatini tahlil natijalariga ko'ra, maydonda hujumchining o'yin funksiyasini eng murakkab bo'lishikeltirilgan [4].

V.B. Pashev sport o'yinlarida doimo tezkor-kuch sifatlarining yuqori darajada bo'lishi kerakligini va bu gandbol sport turida ham juda muhim ekanligini ta'kidlaganlar. Uning fikricha, jamoaviy o'yinda raqib bilan to'p uchun kurashda sakrovchanlik, kuch, tezlik, mohirona bajarila olsagina raqibdan ustun bo'la olishi mumkin. Buning uchun esa tezkor-kuch sifatining mukammal darajaada bo'lishi muhimdir deb ta'kidlagan [5].

V.I. Izaaktadqiqotidajamoaning pozisiyali hujumida gandbolchilarning to'p otishi va uzatishlari o'quv-mashg'ulot hamda musobaqa faoliyatida bu ko'rsatkichlar muhim ekanligini ilmiyasoslangan.

Gandbol mutaxassislarining fikricha hozirgi zamon sport o'yinlarida eng yaxshi tushunish xujum va himoyada, birga bir xil o'ynay bilishi.

Ba'zi murabbiylarning fikricha tezkor o'yin namoish etish o'rgatish uchun ko'p mehnat sarflash kerak va uzoq jarayon hisoblanadi. Buning uchun mashq paytida ko'p mehnat sarflashga to'g'ri keladi va mashq jarayonida o'rgangan nozik texnik-taktik usullarini o'yinda qo'llashni o'rgatish kerak bo'ladi.

V.I. Izaakgandbolchilarning samarali o'yin ko'rsatishlari uchun musobaqaga tayyorgarlik har bir bosqichida (tayyorlov, umumiy, maxsus) jismoniy sifatlarni, texnik-taktik tayyorgarliklarini to'g'ri taqsimlanishi kerakligini e'tirof etadi [6].

Gandbolchilarning umumiy tayyorgarlik sifatlarini tarbiyalashda, uchrashuvlarda yuqori darajadagi xarakatlarni bajarishga erishishda, har bir o'quv-mashg'ulotlarida muayyan bir tayyorgarlikni rivojlantirish maqsadiga qaratilmog'i muhimdir.

Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi organizmning umumiy funksional imkoniyalari darajasini oshirish, har tomonlama jismoniy rivojlantirish, sog'likni mustaxkamlash bilan uzviy bog'liq bo'lgan jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash jarayonidir [7].

Gandbolchilarning bajarayotgan xarakter faoliyati, uning shiddatini doimo o'zgarib turishi bilan tavsiflanadi. Mushaklar ishining yuksak shiddatligi faoliyatning pasayishi va nisbatan tinch xolatga o'tishi bilan almashib turadi. Jadal yugurish, oldinga tashlanish, sakrashlar, yurish, to'xtash bilan almashib turadi. Bunday faoliyat muayyan jismoniy yuklamani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u vegetativ jarayonlar birinchi navbatda moddalar almashinuvi jarayonida, nafas olish tizimida, qon aylanishi jarayonida jiddiy funksional o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Biroq gandbolchilarning o'yin faoliyati faqat sakrash, yugurish va yurishdan iborat emasligi, unda anchagina murakkab xarakatlarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Yakkama-yakka jadal kurash sharoitida eng katta tezlikda va uzoq vaqt davomida to'pga egalik qilish, raqib bilan to'p uchun kurashish holatlari kuzatiladi.

Shuning uchun gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi ularning o'yin faoliyati tavsifini hisobga olgan holda shunday tashkil etilishi kerakki, bu ularga texnik-taktik maxoratni takomillashtirish uchun asos bo'lsin [8].

Sport musobaqalari pedagogik, sport, metodik va ijtimoiy siyosiy vazifalarni echishga yaqindan yordam beradi.

Musobaqalarga qatnashmay turib sport faoliyati xaqida gapirma ham bo'ladi.

Musobaqalar - sportchilar uchun, rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi va shu paytning o'zida sportchidan yuklamani tobora oshirib borish, irodani tarbiyalash, sport kurashiga o'rganish va mashq jarayonini nazorat qilishga o'rgatadi [9].

Sportchining musobaqalarda ko'p qatnashishi shunchalik tajribaga ega bo'lishligini amaliyot ko'rsatib turibdi.

Sportchini musobaqalarda ishtirok etishga tayyorgarlik tizimida quyidagilarni hisobga olish zarur:

- sportchi uchun musobaqalar hafsala bilan tanlanishi va asta-sekin qiyinlashib boradigan bo'lishi lozim;
- musobaqada kuch jihatdan teng bo'lgan sportchilar qatnashish;
- yuqori darajadagi yutuqlarga erishish uchun zarur bo'lgan miqdordagi musobaqalarda qatnashish zarur;

- vaqtni u erdan bu erga ko'chish va h.k.va kuchni ko'p talab qiladigan musobaqalarning ko'payib ketishi mashq ishlarini cheklab, sportchi tayyorgarligiga salbiy ta'sir etishi mumkin;

- musobaqalar taqvimi (kun, taqsimot, musobaqalar qiyinligi darajasi) shunday sharoit yaratishi kerakki, bunda sportchiga katta imkon yaratilsin.

O'tkazilayotgan barcha musobaqalar shu maqsadga qaratilmog'i zarur (2-jadvalgaqarang).

*YOSH GANDBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI BAHOLASH
 ME'YORIY TALABLARI.*

Mashq turlari	O'quv yili		
	1-chi	2-chi	3-chi
Maxsus tayyorgarlik			
30 m to'pni erga urib olib yurish, s	5,8-6,4	5,6-5,9	5,5-5,7
30 m masofada to'pni ustunlararo o'ng qo'lda olib yurish, s	11-12	10-11	9-10
30 m masofada to'pni ustunlararo chap qo'lda olib yurish, s	12-13	11-12	9-10
30 s mobaynida devordagi mo'ljallangan to'pni uzatib qaytib ilish	8-10	9-13	10-15
Darvoza burchaklaridagi nishonga to;p otish (12 marta)	6	7	8
Gandbol to'pini uzoqqa otish (metr)	22	27	32

Sport musobaqalari erishilgan yutuqlarni namoyish qilish, ayrim sportchi va jamoaning yutuqlarini baholash va solishtirish usuli ekan.

Sportchilarni musobaqa vaqtidagi faoliyati musobaqa faoliyati deb yuritiladi. Musobaqa faoliyati eng yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan ayrim xarakter, usul, kombinasiyalardan iborat, tayyorgarlikning texnik, jismoniy, taktik, ruhiy integral darajasi bilan ta'minlanadi. Sport musobaqalarida qatnashish musobaqa faoliyati ko'rinishining shakli hisoblanadi [8].

V.N. Txorevgandbolchilarning musobaqa faoliyati tahlili natijalariga ko'ra, maydonda hujumchining o'yin funksiyasini eng murakkab bo'lishini bildirgan. Texnik-taktik tayyorgarlik buyicha hujumdagi individual, guruhli harakatlarni mashg'ulotlarda jismoniy sifatlarga bog'lab o'tilishi A.A. Rivkin, V.I. Izaakimiy ishlarida asoslab berishgan [10].

Terma jamoalarni ilmiy jihatdan ta'minlash, MDX bo'yicha o'tkaziladigan hamda mas'uliyatli xalqaro musobaqalarga tayyorlash jarayonida, har qaysi nomdor jamoaning yoki sportchining texnik-taktik xususiyatlari, mashq qilish usullari, qanday yuklamaga qurbi etishi, turmush tarzi va o'zga jihatlari imkoni boricha to'laroq ma'lumot olish zarur. Bu sohada raqib jamoa yoki raqibni uslublarini bilish razvedkasi tobora rivojlanib borishi kerak [1].

Yuqoridakeltirilgan fikrlarga asoslanib xulosa qilishimiz mumkin musobaqa davrida musobaqalarda qatnashish va ularga tayyorlanish asosiy o'rinni egallaydi. Biroq, jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikka oid mashg'ulotlar katta hajmda olib boriladi. Musobaqa davridagi mashg'ulotning asosiy vositalari texnik-taktik tayyorgarlik mashqlari, to'pni egallash texnikasiga oid mashqlar, musobaqalardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Pavlov Sh.K. Akramov J. Abduraxmonov F. Gandbol. Darslik.-T."Fan va texnologiya", 2005y.
2. Mo'minov A.Sh. Musobaqada gandbolchilarning hujum va himoya texnik-taktik harakatlarini baholash. Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2015 y.
3. Матвейев Л.Я. Модельно-целевой подход к построению спортивной подготовки. М, 2000 г. <http://sportlib.info/Press/TPFK/2000N3/p28-37.htm>
4. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. Darslik "Mehridaryo" MCHJ Toshkent, 2011 y.
5. Iseyev Sh.T. Futbolchilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshken, 2015 y.
6. Akramov R.A. Futbol. Darslik. UzDJTI nashriyot-matbaa bulimi, Toshken, 2006 y.
7. Isroilov R.I. Yuqori malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyatiga tayyorgarligi. Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent 2014 y.
8. Pavlov Sh.K., Azizova R.I. Gandbol. Toshkent, 2009y.
9. Pavlov Sh.K., Abdurvxmanov F.A., Azizova R.I. Gandbol. (musobaqa qoidalari, ularni tashkil etish va o'tkazish tizimi). T., 2007 y.
10. Игнатйева В.Я., Портнов Ю.М. Гандбол. Учебник для физвузов. М. ФОН. 1996 г.

O'QITISH: KATTA SONLAR QONUNI, MANTIQUIY FIKRLASH

Nilufarxon Ismoilova

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, assistant

Annotatsiya. Maqolada o'qitish muammolari, jumladan bayonda soddalik, qiziqarlilik, shuningdek mavzularning amaliy xususiyatlariga tayangan holda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish to'g'risida so'z boradi.

Аннотация. В статье речь идёт о том, как улучшить способность логического мышления учеников опираясь на простоты, доступность и в том числе на практические значения тем и понятия.

Annotation. The article deals with how to improve the ability of students' logical thinking based on simplicity, accessibility, including the practical meanings of topics and concepts.

Kalit so'zlar: turg'unlik, hodisa, matematik kutilma, ehtimollik, tajriba, chastota, o'qitish, qiziqarlilik, katta sonlar qonuni.

Ключевые слова: устойчивость, событие, математическое ожидание, вероятность, испытание, частота, обучение, доступность, закон больших чисел.

Keywords: stability, event, mathematical expectation, probability, test, frequency, learning, accessibility, law of large numbers.

Har bir fan o'qitishda o'z vazifasiga va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'limda albatta fanni o'qitishning asosiy shakli dars mashg'ulotlaridir. Biroq dars mashg'ulotlari chegaralangan bo'lganligi uchun unda fanni to'la yoritib berish mumkin emas. Shunday bo'lsada, mashg'ulotlarda o'quvchilarda fan, uning maqsad va vazifalari to'g'risida imkon qadar to'liq tasavvur hosil bo'lishiga erishish lozim.

Matematik ta'lim, ya'ni o'qitish bu murakkab jarayon bo'lib, juda ko'p jihatlarga bog'liqdir. Bu jihatlardan biri va eng asosiysi mantiqiy fikrlashdir deyish mumkin. Bu borada, ya'ni o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish asosiy maqsad bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham o'quvchilarda isbotlash malakasini kuchaytirib boorish kerak. Zero, "isbotlash" mantiqiy fikrlashning asosidir. Mavzu doirasida keltiriladigan biror xossaga o'quvchini ishontirish shart. Shuningdek, bayonda soddalik, mantiqiy bog'liqlik, uzviylik muhim o'rin tutadi.

Qaysi mavzu bo'lmasin aynan shu, ya'ni bayonda soddalik, qiziqarlilik shuningdek o'quvchilarga mavzu bayoni davomida mustaqil fikr yuritishlari uchun imkoniyat yaratib berish kabi prinsiplarga amal qilish lozimdir.

Masalan, katta sonlar qonuni mavzusi misolida nimalarga ahamiyat berish kerak? Avvalo bu qonunning asosiy mazmuni – mohiyatini tushuntirish, uning tadbirlari, amaliy ahamiyatini asoslab berishga to'g'ri keladi.

Tajriba natijasida tasodifiy miqdorning qanday qiymat qabul qilishini ishonch bilan aytish mumkin emas. Bu ko'plab tasodifiy sabablarga bog'liqlik, ularning

barchasini hisobga olish imkoni yo'qdir. Ammo aslida bunday emas ekan. Ma'lum bo'lishicha ba'zi kengroq shartlar asosida yetarlicha katta sondagi tasodifiy miqdorlar yig'indida o'zlarining tasodifiylik xususiyatini deyarli yo'qota borib, qonuniylik kasb eta boshlar ekan.

5. Вьюнова Н.И., Гайдар К.М., Темнова Л.В. Психологическая готовность ребенка к обучению в школе. – М.: Академический проект, 2003. – С. 125.
6. Харламов И.Ф. Как активизировать учение школьников. – Минск: Нар. Асвета, 1975. - 144 с.
7. Ganiyeva G.M. Abdulla Avloniyning asarlarida pedagogik qarashlar. Journal of Integrated Education and Research, (2023) 2(3), 32–35. Retrieved from
8. Ганиева Г. (2022). Ёшларни юксак ғоявийлик ва миллий ғояга содиқлик, ёт мафқураларга қарши муросасизлик руҳида тарбиялаш. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 2–5. Retrieved from

**“БОБУРНОМА” АСАРИНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ЎЗБЕК ТИЛИДАН
ИНГЛИЗ ТИЛИГА ҚИЛИНГАН ТАРЖИМАЛАРИ АСОСИДА
“КАЙФИЯТ” КОНСЕПТИ ВЕРБАЛИЗАТОРЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ
ТАҲЛИЛИ**

Абдусатторова Бегойим Пулатжон қизи
АДЧТИ 2-курс магистранти
begoyimabdusattorova@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада сўзловчи ўз ички кечинмаларини тингловчига етказиб беришда бевосита фонетик воситалар орқали ифодаланиши ва нутқда экспрессивликни кучайтириш ва кучсизлантиришда урғунинг аҳамияти катта эканлиги алоҳида ажратиб кўрсатилгани тўғрисида маълумот берилган.

Калит сўзлар: нутқ, эмоционаллик, таъсирчанлик, руҳий ҳолат, кўнгил-кўтаринки кайфият, вербализатор.

Annotation. This article provides information on the fact that the speaker conveys his inner experiences to the listener directly through phonetic means, and emphasizes the importance of emphasis in strengthening and weakening expressiveness in speech.

Key words: speech, emotionality, sensitivity, state of mind, cheerful mood, verbalizer.

Аннотация. В данной статье приводится информация о том, что говорящий выражает слушателю свои внутренние переживания непосредственно с помощью фонетических средств, и подчеркивается значение ударение в усилении и ослаблении выразительности в речи.

Ключевые слова: Речь, эмоциональность, впечатлительность, состояние души веселое, настроение.

Инсоннинг тил орқали фикр ва хис-туйғуларини ифодалаши тилнинг тафаккур билан бевосита боғлиқлигини намоён қилади ва фонетик воситалар билан ҳам ифода этилади. Маълум бўладики, тилнинг энг муҳим бирликларидан бири бу фонетик усуллар орқали ҳар бир сўзловчи ўзининг кайфиятини ва хис туйғуларини тингловчиларга етказиб бера олишдир. Демак, нутқ жараёнида нутқ товушларидаги эмоционаллик, таъсирчанлик, талаффуздаги жарангдорлик, уларнинг бадиий қўлланиш қоидалари, фонетик стилистиканинг ўрганиш объекти ҳисобланади..

Сўзловчи ўз ички кечинмаларини тингловчига етказиб беришда бевосита фонетик воситалар орқали ифодалайди. Нутқда экспрессивликни кучайтириш ва кучсизлантиришда урғунинг аҳамияти катта. Урғу орқали сўзловчи бирон бир сўзни ёки сўзнинг маълум бир бўғинини алоҳида ажратиб кўрсатишдан ташқари, берилаётган фикрга ўз муносабатини қай даражада эканлигини ифодалашда урғудан фойдаланиши мумкин.

Ўзбек тилида урғули бўғиндаги унлини кучли талаффуз қилиш орқали маънони кучайтиришда икки ҳолат мавжуд:

Урғули бўғин кучлироқ талаффуз қилинади:

- Ахён-ахёнда Бобурий менинг қошим- га келар эди. Лекин мен ҳаё ва тортинчоқлик боис Бобурий томонга тик қарай олмасдим: илтифот ва гаплашиш қаерда дейсиз! Нашъа ва изтироб сабабидан шукр қилар эдим, кетганидан шикоят қилишга менинг қандай имконим бўлсин? Мулозамат таклиф қилмоққа ҳам кимда ҳадду тоқат бор эди!

- Ахир пасткаш, қобилиятсиз, зоти-ю насаби нотайин, нўноқ ва шижоатсиз, ноинсоф ва адолатсиз бу бадбахтга хокимият хайф эмасми!

[But when they reached the Aubaj ferry, that ungrateful infidel, Khusrau Shah, in his aspiration to sovereignty- and to what sort of sovereignty, pray, could such a nobody attain? A person of no merit, no birth, no lineage, no judgement, no magnanimity, no justice, no legal-mindness- laid hands on Bai-sunghar Mirza with his begs and bowstrung the Mirza].

Урғуни бўғинга кўчириш ва шу бўғиндаги кучли талаффуз орқали маънони кучайтиришда урғу ҳар қандай сўзда тўғридан тўғри ва ҳоҳлаган бўғинга кўчирилавермайди, кўш ундошли сўзларда урғу шу кўш ундош олдидаги унлига кўчирилади ва шу унлини кучли талаффуз этиш орқали маънони кучайтиришимиз мумкин: Гузаро кайфият, маънос бўлмоқ[3,5].

Айрим кўш ундошлардан олдинги сўзларда урғу аслида кўш ундошдан олдинги унлида бўлади ва шу унлини кучли талаффуз этиш орқали маъно кучаяди. Ўзбек лингвомаданияти вакиллари тилда кўргилли, кўнгилсиз дериват сифатлари кўплаб нутқ қисмлари билан яъни олмош, ёрдамчи сўз туркумлари билан бирикади. Улар бой ва турли туман эмоционал- баҳо маъноларини ифодалайди. Ушбу лексема бевосита инсон кайфиятин тасвирлайди; кўтаринки кўнгил-кўтаринки кайфият. Кайфият вертикал ўлчовининг ўрта қисми хотиржамлик билан ўзаро мослашиб, ижобий эмоциялар юқорига, салбийлар пастга харакатланиш билан боғланади; кўнгил қолди, кўнгил кўтарилди[5,7].

Бобур асарда воқеалликка мохият томондан юқори даражада қарайди, ночор ахволини тасвирлашда ва ғалаба тантанасига баҳо беришда самимий ва танқидий ҳазиллар билан воқеани ёритади. Масалан Андижондаги кўзғолон бостирилганда кўзғолончилар чекинишга мажбур бўлган. Бобурнинг атиги етти аскарлари бор эди. Анча вайт ўтгач Бобур таъқибчилар сони номаълум эканини билиб афсусда қолади; “ ...қовғинчи йигирма-йигирма беш киши экандур, биз саккиз киши эдук, нечукким мазкур бўлди. Агар ул вахмда мунча киши эканини тахқиқ билсак эди, яхши урушур эдук...қочғон ёғий кўп бўлса ҳам оз қовғунчи била чехра бўла олмас. Нечукким, дебтурлар: “ сафи мағлубро хўе басандаст ”.(“ They were twenty or twenty-five chasers and we were eight people. If we only we knew how many people they were in that panic, we would have fought well. As the proverb goes “ Enough is enough for the defeated”). Асардаги кўплаб ҳажвий эпизодлар бу

асарнинг ўзига хос хазил-мутойибасини кўрсатмайди. Бобурнинг енгилмас афғон жангчилари томонидан мағлубиятга учраши, уни оғзини тишлагани, халқ орасида бу ҳолатни хазил-мутойиба билан хикоя қилиниши, аскарларнинг бир бирини қоронғуда танимай тўсганлиги бир зумга бўлса ҳам ўқувчини зериктириб қўймайди[6.30].

Инсон руҳий ҳолатини акс эттириш мураккаб жараён. Инсон руҳиятида ҳали шаклланиб улгурмаган туғёнлар, исмсиз туйғулар, номсиз ҳиссиётлар яширин. Бобур ўз асарида ана шундай мураккабликдаги жараённи нутқда ифодалашга интиланган. Бобурнинг Ҳиндистонда ёзган шеърларини ўз ичига олган, Рампур шаҳридаги Ризо кутубхонасида сақланаётган, Ҳамид Сулаймон туфайли ватанимизга етиб келган қўлёзма нусхаси сўнгида Бобурнинг ўз қўли билан битилган шундай байти бор:

Ҳар вақтки кўргайсен менинг сўзумни,
Сўзумни ўқуб ёд қилгайсен ўзумни.

«Бобурнома»да, аввало, жангу жадаллардан ҳориган, осойишталик билмаган, саргашталиқда умр кечирган оддий инсон руҳияти ўз аксини топган. Шу билан бирга, воқеликни теран ҳис қилгувчи, ҳиссиётларга бой, таъсирчан шоир ички кечинмалари, атрофини одамлар ўраб тургани ҳолда, ёлғизликда яшаган шахс, сиёсий бўҳронларда эврилган шоҳ руҳияти акс этган. Бобур бутун руҳиятини имкон қадар сўзга кўчирган.

«Бобурнома»нинг ифода тили инсон тафаккури, руҳий олами хусусиятларини имкон қадар тўлиқ акс эттирган. Асарда муаллиф куч-қудрати ва ожизлиги, ғалаба ва мағлубиятлари, ижобий фазилат ва нуқсонлари, қувонч-изтироблари, жўшқин ва тушкун кайфияти билан намоён бўлади. «Бобурнома»даги шахс руҳияти мустаҳкам эътиқодга эга, ўз қарашларини ҳурмат қиладиган, қадр-қимматини биладиган шахс кечинмаларидир. Бобур ҳар бир ҳаракатини Аллоҳ иродасидан деб билади, ҳар бир муваффақиятини «тенгри таоло инояти»га боғлайди, барча воқеалар моҳиятида Аллоҳни кўради. Тангрининг ҳукмига, тақдирга ишонади: Неким азалда тенгри тақдир қилибтур, андин ўзга бўлмас. Ғалабасини, муваффақиятларини Тангрининг ҳукмидан деб билади: Бу давлатни ўзумизнинг зўр ва қувватидин кўрмасбиз, балки Тангрининг маҳзи лутф ва шавкатидиндур ва бу саодатни ўзумизнинг саъй ва ҳимматидин билмасбиз, балки Тангрининг айни карам ва иноятидиндур. Бутун ҳаракатларини Тангрининг инояти билан боғлайди: Ҳеч нима тенгрининг хостидин ўзга бўлмас. Асарда муаллиф руҳияти даражама-даража ифодаланган. Шу жиҳатдан «Бобурнома»ни руҳият солномаси дейиш мумкин.[6,9]. Даставвал оламга меҳр-муҳаббат, ўзгача қизиқиш билан боққан ўспирин кейинги умри давомида аёвсиз жангу жадаллар, инсонлар ўртасидаги кўнгилни хира қилувчи муносабатлар, тож-тахт, давлат, мулк талашлари, саргардон кезиш оқибати ўлароқ жонга етади, жонидан тўяди: Ахир мундоқ саргардонлиқтин ва бу навъ беҳонумонлиқтин жонга еттим. Бу ўринда саргардонлик ва

бехонумонлик (дарбадарлик, сарсон-саргардонлик)дан чарчаш, умидсизликка тушиш натижасидаги руҳий ҳолат ифодаланган.

Асардаги асосий воқеликни шундай тасвирлайдики, худди уни кузатиш давомида ўша вақтнинг ўзидаёқ қаламга туширган дейсиз. Бобур оддий нарсаларга ҳам эътибор қаратган. Бу бизни диққатли- роқ бўлишга ундайди. Биз даги гуноҳларини афв қилдук ; Султон Ҳусайн мирзо бориға эҳсон мақомида бўлуб, ёмонликларини юзларига келтурмай.... Бу жумлалардаги «.эҳсон мақомида бўлиш» ибораси кечиримли бўлиш, ёмонликка яхшилик билан, «жаҳолатга маърифат билан жавоб қайтариш», «афв қилиш» тушунчаларини акс эттирган. «Бобурнома»даги руҳият, ҳолат тасвирлари тил ва тафаккур муносабатларини, психологик жараёнларни ёритишда аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. А.Примов,Х.Қодирова. “Тилшуносликнинг долзарб муаммолари” ўқув-услубий қўлланма.Урганч-2019
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.”ИЖОД ПРЕСС” 2019
3. Р.Расулов.” Умумий Тилшунослик”. Тошкент-2010.
4. С.Ҳасанов. “Заҳириддин Муҳаммад Бобур”. Тошкент- “Ўзбекистон”.2011.-88 б
5. Сафаров.Ш. “Консепт” ҳодисаси ҳақида/Систем-Структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари). Самарқанд-2010.
6. Тешабоева З.Қ. «Бобурнома»нинг инглизча таржималарида мақолларнинг берилиши. Тошкент давлат шарқшунослик институтининг илмий журнали. № 1, ТДШИ. – 2011. – Б.76-78. (07.00.00; №10).
7. Тешабоева З.Қ. «Бобурнома»даги эмоционал бирликларнинг талқини. “ILM SARCHASHMALARI” 2-son Urganch davlat universiteti. – 2014. – №2. – Б.6-9. (10.00.00; №3).

YOSH BASKETBO'LCHILARNI INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BO'YICHA TEMPERAMENT TIPI ASOSIDA BASKETBO'L O'YINI MASHG'ULOT JAROYONINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYOTI

Niyazov Askarbay Tolibaevich

Ajiniyaz atindagi NMPI din "u.u.a Sport panleri kafedra basligi" professor

Niyazova Oliga Yurievna

Berdax atindagi Karakalpak mamleketlik universiteti "Dene madeniyati teoriya xam metodikasi kafedrasi" ulken o'qitiushisi

Niyazova Aynura Askarbaevna

Ajiniyaz atindagi NMPI din Dene madeniyati fakuliteti 3 kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada jahonga mashhur sport turlaridan biri basketbolning taktik tayyorgarligi, mashg'ulot jarayonida sportchilarning amaliy va nazariy tayyorgarligi xususida ba'zi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: basketbol, texnik tayyorgarlik, sportchi, mashg'ulot, nazariya, harakat, taktika.

Kirish. Mamlakatimiz sportini rivojlantirish sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rnini hisobga olib sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish xamda axolining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbir etilmoqda.

Sport millatning o'zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jipslashuvida va birlashuvida, o'zidagi bor salohiyatini hamda millat sifatidagi qudrati jahon uzra namoyon bo'lib muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda mamlakat sportini rivojlantirish dolzarb va nihoyatda muhim masaladir. Zero, jismonan baquvvat sog'lom va yoshlari ko'p bo'lgan millat qudratli bo'ladi, uning davlati har tomonlama mustahkam bo'lib, buyuk taraqqiyot sari rivojlanib boradi.

Basketbolda xam boshqa ko'pgina o'yinlarda bo'lgani singari, o'yinchining o'zni o'ziga xos qobiliyati bilan belgilanadi. Zamonaviy basketbolda hujum eng o'tkir quroldir. Ma'lumki o'yin jarayonida 5 tadan o'yinchi maydonda harakatlanadi. Basketboldagi individual reaksiya va taktik fikr qilish, maydonda jamoaviy xarakatlanish yosh sportchining psixologik tipiga ham bog'liq. Bunda yosh sportchilarni psixo-temperament turlari aniqlanib hujumda taktik joylashtirilib maxsus qo'shimcha mashqlar orqali rivojlantiriladi. Basketbo'l o'yinida hujum va himoyada individual, guruh jamoaviy harakatlardan iborat. Markaziy o'yinchi juda ham baland bo'lib, u koptokni birinchi irg'itilgandayoq jamoadoshlariga uzatishni bilishi kerak. U jamoaga shunday yordam berishi

kerakki, ya'ni, ko'ptok noaniq irg'itilgandan kegin xalqaga urilib qaytganida ham uni o'z nazar doirasida tutishi kerak. Hamda markaziy ikki o'yinchi dastlabki baxs to'pni tashlayotganda, jarima to'pi otilgandan so'ng to'pni o'zida olib qolish uchun baxs olib boradi. Oldidagi o'yinni boshqaruvchini ikki yonida yon o'yinchilar hujum uchun ikki yonni egallaydilar. Bu o'yinchilar yuqori yon o'yinchilar (KRAY) deb yuritiladi. Bu o'yinchilarning vazifasi o'yinni boshqarayotgan o'yinchi (yani Razvadayushiy) ga yordam berish hamda, hujumda o'rta maydondan, uch ochko'li zo'nadan to'pni otishlari va tezlik bilan ikki qadam qilib hujum uyishtirishlari lozim. Agarda raqib to'pi omatsiz yakunlanib o'z jamoasi tomonidan egallangan bo'lsa ikki yon tomondagi kray o'yinchilar o'z shiti tomonga tezlik bilan yugurib shitga to'pni tashlashi va hujumda ko'proq uyishtirishi talab qilinadi.

Basketbo'lda o'yinni boshqaruvchining (razvadashiyning) vazifasi. Ushbu vazifani bajaruvchi o'yinchi to'pni muntazam olib yurish, zo'naga kirib borish, Hujum uyushtirishni tashkil qilish, o'yinda boshqaruvchilik, o'z jamoadoshlari bilan birgalikda hujumni uyushtirgan xolda ochiq turgan jamoadoshiga to'pni oshirish va xujum qilish xisoblanadi. Asosan razvadayushiy yuqori markazda o'ynab, boshqarish ishlarini bajaradi. Hujum jamoani asosiy va xal qiluvchi funksiyasi bo'lib, uni taktik jixatdan puxta rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish har bir hujum harakatini hamda butun o'yin jarayonini foydali natija bilan yakunlash uchun imkon yaratadi. Bu xolat ko'proq boshqaruvchining zimmasida bo'ladi. Hujum taktikasi qanchalik serqirra bo'lsa, taktik psixo usullar xajmi ko'p bo'lsa taktik bilim va ko'nikmalar doirasi keng bo'lsa, qulay va foyda keltiruvchi usullarni tanlash hamda ularni qo'llash imkoniyati shunchalik samarali kechadi.

Hujum taktikasi individual, guruhli va jamoa harakatlaridan iborat bo'ladi. Psixologiyada Individual yondashish yosh sportchini eng muhim omili xisoblanadi. Individual harakatlarga asosan har bir o'yinchi maydonda kechayotgan vaziyatni bilishi, uni o'z vaqtida payqashi va jamoa oldiga qo'yilgan taktik vazifa doirasida foydali natija keltiruvchi shaxsi (individual) xarakat qobiliyatini namoyish etishi lozim.

Psixologik tipni aniqlash uchun yosh sportchilarni Ayzenk testi olinadi. Test insonning pedagogik jismoniy qobilyatlarni aniqlashda qo'l keladi. Temperament bu odam tug'ilganda qa'bul qilingan narsadur. Xususiyatlar, xulq atvor motivlari va genetik xususiyatlarga ega bo'lgan ko'nikmalar xisoblanadi. Inson xarakteri tajriba bilan rivojlanadi. Temperament tipini aniqlash asosida bolaga mashg'ulot jarayonini to'g'ri tushuntirish, mashg'ulot o'tish bilan yosh sportchi to'g'ri eshitadi, tushinadi va tez o'zlashtira oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Basketbolda ham boshqa ko'pgina o'yinlarda bo'lgani singari sportchining o'rni beqiyos ahamiyatga egadir. Zamonaviy basketbolda hujum eng o'tkir quroldir. Ma'lumki, o'yin jarayonida 5 tadan o'yinchi maydonda harakatlanadi. Basketboldagi individual reaksiya va taktik fikr qilish, maydonda jamoaviy harakatlanish yosh sportchining psixologik tipiga ham bog'liq. Bunda yosh sportchilarning qobiliyatlari aniqlanib, hujumda taktik joylashtirilib, maxsus

qo'shimcha mashqlar orqali rivojlantiriladi. Basketbol o'yinida hujum va himoyada individual, guruh, jamoaviy harakatlardan iborat. Markaziy o'yinchi juda ham baland bo'lib, u koptokni birinchi irg'itilgandayoq jamoadoshlariga uzatishni bilishi kerak. U jamoaga shunday yordam berishi kerakki, ya'ni koptok noaniq irg'itilgandan keyin xalqaga urilib qaytganida ham uni o'z nazar doirasida tutishi kerak. Shuningdek, markaziy ikki o'yinchi dastlabki bahs to'pni tashlayotganda jarima to'pi otilgandan so'ng to'pni o'zida olib qolish uchun bahs olib boradi. Oldidagi o'yinni boshqaruvchini ikki yonida yon o'yinchilar hujum uchun ikki yonni egallaydilar. Bu o'yinchilar yuqori yon o'yinchilar (KRAY) deb yuritiladi. Bu o'yinchilarning vazifasi o'yinni boshqarayotgan o'yinchiga yordam berish hamda hujumda o'rta maydondan, uch ochkoli zonadan to'pni otishlari va tezlik bilan ikki qadam qilib hujum uyushtirishlari lozim. Agarda raqib to'pi omadsiz yakunlanib, o'z jamoasi tomonidan egallangan bo'lsa, ikki yon tomondagi kray o'yinchilar o'z tomoniga tezlik bilan yugurib, shitga to'pni tashlashi va hujumda ko'proq uyushtirishi talab qilinadi. Basketbolda o'yinni boshqaruvchining vazifasi quyidacha: ushbu vazifani bajaruvchi o'yinchi to'pni muntazam olib yurish, zonaga kirib borish, hujum uyushtirishni tashkil qilish, o'yinda boshqaruvchilik, o'z jamoadoshlari bilan birgalikda hujumni uyushtirgan holda ochiq turgan jamoadoshiga to'pni oshirish va hujum qilish hisoblanadi. Asosan, razvadayushiy yuqori markazda o'ynab, boshqarish ishlarini bajaradi. Hujum jamoani asosiy va hal qiluvchi funksiyasi bo'lib, uni taktik jihatdan puxta rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish har bir hujum harakatini hamda butun o'yin jarayonini foydali natija bilan yakunlash uchun imkon yaratadi. Bu holat ko'proq boshqaruvchining zimmasida bo'ladi. Hujum taktikasi qanchalik serqirra bo'lsa, taktik psixousullar hajmi ko'p bo'lsa, taktik bilim va ko'nikmalar doirasi keng bo'lsa, qulay va foyda keltiruvchi usullarni tanlash hamda ularni qo'llash imkoniyati shunchalik samarali kechadi.

MAVZUGA OID ADAB TAHLIL

Hujum taktikasi individual, guruhli va jamoa harakatlaridan iborat bo'ladi. Psixologiyada individual yondashish yosh sportchining eng muhim omili hisoblanadi. Individual harakatlarga asosan har bir o'yinchi maydonda kechayotgan vaziyatni bilishi, uni o'z vaqtida payqashi va jamoa oldiga qo'yilgan taktik vazifa doirasida foydali natija keltiruvchi shaxsi (individual) harakat qobiliyatini namoyish etishi lozim.

Temperament - bu odam tug'ilganda qabul qilingan narsadir. Xususiyatlar, xulqatvor motivlari va genetik xususiyatlarga ega bo'lgan ko'nikmalar hisoblanadi. Inson xarakteri tajriba bilan rivojlanadi. Temperament tipini aniqlash asosida bolaga mashg'ulot jarayonini to'g'ri tushuntirish, mashg'ulot o'tish bilan yosh sportchi to'g'ri eshitadi, tushunadi va tez o'zlashtira oladi. Temperament tipini aniqlash usullari hozirgi zamonda juda ko'p. Eng keng tarqalgan mashhur usul Eyzenkning temperament diagnostikasi usuli. Temperament odamning tevarak atrofidagi voqealarga munosabati va hissiyotning ayrim xususiyatlarini belgilab beradi. Temperament ong, xotira, aqlzakovat va qobiliyatni aks ettirmaydi. Shu

bois ham sport jarayonida hamma temperament egalari orasidan iqtidorli va iqtidorsiz, tezkorlik-sekinlik, chaqqonliksustlik, kuchlilik-kuchsizlik, irodali va irodasiz fazilatlariga ega bo'lgan yosh sportchi bolalarni uchramiz. Temperamentni 4 tipi ma'lum bo'lib ularga: sangvinik, flegmatik, xalerik, melanxolik tiplari kiradi. Biz yosh basketbolchilarni to'rtta tip asosiga bo'lib olamiz. Ularni shu tiplar asosida mashg'ulot jarayonini olib borishimiz kerak. Ularni hujum jarayonida zonaviy joylashtirishda temperament tiplar asosida joylashtirish orqali hujum yanada rivojlanadi. Hamda ularga mashg'ulot holatida psixologik yondashib mashg'ulot jarayoni olib boriladi.

XULOSA: Umuman olganda murabbiy mashg'ulot jarayonida har bir yosh basketbolchini psixologik yondashgan holda ularga yuklama berishi mashg'ulotlarni olib borishi kerak. Psixologik tiplar asosida bolaga ruhan yondashib, musobaqa jarayoniga tayyorlashi eng kerakli omil hisoblanadi. Bundan tashqari musobaqa jarayonida murabbiy psixologik yondashgan holda yo'nalish va dalda berish orqali ham qo'yilgan maqsadga erishiladi. O'ziga ishongan xolerik tipdagi yosh sportchilarni o'yin boshqaruviga qo'yib, sangviniklarni hujumga, flegmatiklarni esa himoyaga xalqadan qaytgan to'pni egallash uchun joylashtirish kerak. Ushbu taktika yo'nalishlari orqali qo'yilgan asosiy maqsad va g'alabaga tezroq erishiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2017 yil 4 iyun. Tashkent
2. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyat-larini rivojlantirish. T., 2005.
3. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent. 2010
4. Z.Nishonova. G.Alimova. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. 2015
5. S.M.Sidikov, I.To'xtanazarov, D.R.Norqulov, I.Ismoilov. "Basketbol". Farg'ona - 2015
6. Faxriddin Xo'jayev "Basketbol" uslubiy qo'llanma Tafakkur nashiryoti toshkent 2015-yil.
7. Shamuratova, B., Shamuratov, U., & Shamuratova, P. (2022). YOSH BASKETBOLCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI VA ESTAFETALI O'YINLARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 3(2), 664-668.

VOLEYBOL SPORT O'YINLARINI O'QITISH METODIKASIDA HARAKAT USLUBLARI VA QOIDALARI

Niyazov Askarbay Tolibaevich

Ajiniyaz atindagi NMPI din "u.u.a Sport panleri kafedra basligi" professor

Niyazova Oliga Yurievna

Berdax atindagi Karakalpak mamleketlik universiteti "Dene madeniyati teoriya xam metodikasi kafedrasi" ulken o'qitiushisi

Niyazova Aynura Askarbaevna

Ajiniyaz atindagi NMPI din Dene madeniyati fakuliteti 3 kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada yosh voleybolchilarning dastlabki o'rgatishni tashkil etish va mashg'ulotni mazmuni, vazifalari, vositalari hamda mashg'ulot olib borish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, texnik tayyorgarlik, dastlabki o'rgatish, tayyorlov, o'yin malakalari, o'rgatish vositalari, maxsus mashklar, o'rgatish uslublari, moslama va uskunalar.

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qo'yiladigan asosiy maqsad -sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalambor yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadi. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, muayyan sport turi bo'yicha muntazam o'tkazib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalar va o'smirlar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, umumiy jismoniy tayyorgarlikka asoslangan va tor doirada ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar salbiy oqibatlariga olib kelishi kuzatilgan. Binobarin, dastlabki o'rgatish bosqichida jismoniy va texnik-taktik mashqlar nisbatini to'g'ri rejalashtirish bolalar sport mahoratini samarali shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Sport o'yinlari ichida voleybol sport turini ham o'z o'rnini, o'ziga hos xususiyatlari mavjud. Voleybolda turli-tuman harakatlar qo'llaniladi: yurish, yugirish, sakrash, kutilmaganda to'xtalish, epchillik va chaqqonlik, turli hil harakatlardan iboratdir. Voleybol turida ham boshqa sport turlariga o'xshab usullarni bajarib jamoadoshlari bilan birgalikda ustunlikka erishishga harakat qiladilar. Voleybolni tarbiyaviy ahamiyati ham juda katta, u o'zaro hamjihatlikni tarbiyalaydi. Biroq voleybolda ham boshqa jismoniy sifatlarni va texnika, taktikani rivojlantirish shart va shundagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, katta sportni ham rivojlantirishga ahamiyat qaratilmoqda. Xar yili respublikamizda halqaro va jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalar otkazilib yoshlarni sportga qiziqishi ortib bormoqda. Sportchilarimiz Osiyo, Jahon va Olimpiya musobaqalarida qatnashib yuksak natijalarga erishib, yurtimiz shuhratini tarannum etib kelmoqdalar. Ushbu muammoni haletish yo'llaridan biri har xil

turdagi maqsadli jismoniy tarbiya dasturlarini har bir talabaniing ehtiyojlarini maksimal qondirishga, ta'lim oluvchilarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasini imkon qadar to'liq hisobga olishga qayta yo'naltirish hisoblanadi. Afsuski sport o'yinlari, xususan voleybol sport turi keng rivojlangan bo'lsada xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishilayotgani yo'q. Voleybol o'quv fani sifatida barcha ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan, darsdan va ishdan tashqari vaqtlarda faoliyat ko'rsatadigan sport to'garaklari, bolalar va sport maktablarida o'quv-trenirovka jarayonlari o'tkazilib kelinmoqda.

Sport malakalariga dastlabki o'rgatish jarayoni ko'p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo'lib hisoblanadi. Dastlabki o'rgatish o'z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy-texnika nuqtayi nazaridan qanchalik puxta asoslangan bo'lsa, sifatli bo'lsa, shunchalik sport o'rinbosarlarini tayyorlash yo'li qisqaroq va osonroq bo'ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko'nikma va malakalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan o'quv dasturining eng e'tiborli va asosiy bo'limlaridan biri boshlang'ich o'rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo'lib hisoblanadi.

Musobaqa jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy omillaridan biri bu voleybolchining texnik tayyorgarligi, texnik mahorati takomillashgan darajada bo'lishidir. Demak, o'rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi bu o'yin texnikasini mukammal o'zlash-tirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirga qadar oliy o'quv yurti jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va amaliyoti muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo'lib, ularda oliy o'quv yurtlari sport takomillashuvi guruhlarida sport o'yinlaridan foydalanishning tabaqalashtirilgan uslubiyati masalalari yoritib berilgan. L.R.Ayrapetyans, M.A.Godik, 1991; Yu.D.Jeleznyak, 1994; M.C.Axmatov, 2004. Bundan tashqari V.A.Kobzev, 1996; N.A.Anashkina, 1998; A.Zelenskiy, 1998; V.P.Guba, 2000 va boshqalarning ilmiy ishlarida talaba yoshlar jismoniy tarbiya jarayonini tashkil qilishda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari hamda uslublari bayon qiligan. Harakat va o'yin malakalari - to'pni uzatish, qabul qilish (himoya), to'pni o'yinga kiritish, zarba berish, to'siq qo'yish belgilangan bosqichlarda, ma'lum uslublar va vositalar yordamida o'zlashtiriladi va takomillash-tiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

O'rgatish jarayoni - bu pedagogik jarayon bo'lib, murabbiy-o'qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo'lsada, harakatni (o'yin malakasini) ijro etish texnikasiga o'rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog'liqdir. Jumladan bolaning faolligi, mashg'ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati, yordamchi texnik uskunalar, mashg'ulot o'tkaziladigan joyning shart-sharoitlari, bolaning qiziqishi, harakat boyligi, tajribasi va hokazo. Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o'zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga ham bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va o'rgatish jarayonida e'tiborga olinadigan omillar ma'lum uslubiy tartibda asoslangan rejalashtiruv hujjatlaridan joy olishi kerak. Bundan tashqari, bolaning ichki sirli imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o'rgatish uslublarini, bosqichlarini va texnologiyasini qo'llashda tayanch omil bo'lib xizmat qilishi kerak.

Dastlabki o'rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarni har biri o'ziga xos uslub va vositalarni o'z ichiga oladi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o'yinchida jismoniy barkamollik va o'yinchi uchun zarur bo'lgan harakat ko'nikmalari va malakalarini sayqallash uchun qo'llaniladi.

Barcha mashqlar o'z yo'nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashg'ulotning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini tashkil etib bularga, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik va o'yin tayyorgarligi kiradi. Har bir tayyorgarlik turida o'zining etakchi omillari borki, ular yordamida ko'zlagan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdagi tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Misol uchun, agar o'quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o'quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko'p marta takrorlashdan ko'ra foydaliroqdir. Dastlabki o'rgatishda bosqichma-bosqich olib borilishi va o'rgatish tamoyiliga asoslanish lozim.

Birinchi bosqich - o'rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko'rsatish va tushuntirish uslublari qo'llaniladi. Murabbiy ko'rsatish bilan birga ko'rgazmali qurollardan kinofilm, tasviriy film, sxema, maydon maketi va hokazolardan foydalanadi. Namoyishni tushuntirishlar bilan qo'shib olib borish kerak. Murabbiy-o'qituvchining dastlabki urinishlari ularda birlamchi harakat sezgisini shakllantiradi.

Ikkinchi bosqich - texnikani soddalashtirilgan holatda o'rganish. Mazkur o'rganish bosqichida muvaffaqiyat ko'p holatlarda yondoshtiruvchi mashqlarning to'g'ri tanlanganligiga bog'liqdir. Ular o'zining tuzilishi shakliga ko'ra o'rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o'quvchilar bajara oladigan bo'lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan harakatlar ya'ni hujum zarbasi uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga qismlarga ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi buyurish, ko'rsatma berish, ko'rish va eshitish, ko'rib ilg'ash, texnik vositalar va hokazolar hamda ko'rgazmali harakatlar murabbiy-o'qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo'llash, axborot to'pga bo'lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yorug'lik yoki ovozni belgilash kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich - texnikani murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish. Bunda quyidagilar qo'llaniladi: takroriy usul, harakatni murakkab sharoitlarda bajartirish, o'yin va baholash uslubi, qo'shma uslub, aylanma mashqlari. Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiydir. Ko'p marotaba takrorlashgina malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni harakat sharoitini o'zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni taqazo etadi. Hattoki

charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo'shma va o'yin uslublari bir vaqtini o'zida texnikani sayqallashtirishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o'stirish masalalarini hal qilishga hamda texnik-taktik tayyorgarlik va o'yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich - harakatni o'yin jarayonida mustahkamlashni ko'zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi qo'llanadi (rasmlar, jadvallar, o'quv filmlari, tasviriy filmlar), o'yin jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, o'yin va bellashish usullaridan foydalaniladi.

Voleybolda ham boshqa sport turlari kabi o'rgatishning asosiy vositasi jismoniy mashqlar hisoblanadi. Ular juda turli-tumandir. Shuning uchun ular ma'lum bir o'rgatish bosqichidagi qo'yilgan vazifalarni hal etishdagi o'rni bo'yicha turkumlanadi. Bunday turkumlanishga voleybolchilarning musobaqa faoliyati asos qilib olingan. Shunga bog'liq holda mashqlar ikki katta guruhga ajratiladi, bular asosiy yoki musobaqa va yordamchi yoki trenirovka.

Voleybol harakatlariga o'rgatishda vositalarning samarasi ko'p hollarda ularni qo'llash uslublariga bevosita bog'liq bo'ladi. Uslublar qo'yilgan vazifa, shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasi, aniq shart-sharoitlarga bog'liq holda tanlanadi va qo'llanadi. Qo'yilgan vazifaga bog'liq ravishda aynan bir vositani turli uslublarda qo'llab, undan turlicha foydalanish mumkin. Bundan tashqari, har bir tayyorgarlik turida vazifalar va turlarning ketma-ketligi ham ma'lum mantiqiy bog'liqlikka egadir.

Bir tayyorgarlik turidagi vazifalar sifat jihatidan o'zgarib, keyingi tayyorgarlik turiga zamin yaratadi. Masalan, tayyorgarlik mashqlari o'rganilayotgan texnik usulning umumiy tuzilishini ifoda etadi. Yaqinlashtiruvchi mashqlar maxsus jismoniy tayyorgarlikdan texnik tayyorgarlikka o'tishda ko'prik vazifasini o'taydi. Ma'lum darajadagi murakkablik asosida qurilgan texnik mashqlar taktik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu asosda keyinchalik yakka tartibdagi taktik harakatlar o'rganiladi.

XULOSA

Voleyboldagi asosiy harakatlanish - bu yurish, yugurish, yonga qadam tashlab yugurish, orqa bilan, qadam tashlab to'xtash, sakrashdan iboratdir. Ko'p hollarda harakatlanishlar qiyin emas deb izohlanib, ularga etarli e'tibor berilmaydi. Bu esa noto'g'ri fikrdir. Chunki o'yinchining turli harakatlarni bajarishi uchun holat va joy tanlashi bajariladigan harakatning samarasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Shuning uchun harakatlanishlarni o'rgatishga katta e'tibor qaratish zarur. Murabbiyning dastlabki o'rgatish jarayonini to'g'ri tashkil qilishi, mamlakat terma jamoalari uzviylikini ta'minlash va malakali sport zahiralarini etishtirish kabi muhim vazifalarni samarali shakllanishiga asos bo'lib hizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi 394-sonli Qonuni (yangi tahriri). 2015 yil 5 sentabr. "Xalq so'zi" gazetasi 174-son.
2. Ayrapetyants L.R. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: O'zDJTI. 2011, - 280 b.
3. Masharipov F.T., Ro'zmetov N.Q., Ro'zmetov R.T. Voleybol mashg'ulotlarini olib borish va boshqarishning pedagogik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Urganch.: 2012, - 72 b.
4. Masharipov F.T., Ro'zmetov A.T., Ro'zmetov R.T. Voleybol va uni o'rgatishning pedagogik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Urganch.: 2018, - 80 b.
5. Isroilov Sh.X. Voleybol. Olimpiya zaxiralari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: Tasvir, 2008. - 144 b.

THE MAIN PROBLEMS OF TRANSLATING HISTORICAL TERMS

K.Z. Ziyayeva

Teacher, Andijan Machine Building Institute

Annotation. The relevance of this thesis lies in the importance of translating historical terms and demonstrates some problems with translation from one language to another.

Аннотация. Актуальность данного тезиса заключается в важности перевода исторических терминов и демонстрирует некоторые проблемы с переводом с одного языка на другой.

Annotasiya. Ushbu tezisning dolzarbligi tarixiy atamalar tarjimasining muhim jihatlari va bir tildan boshqa tilga tarjima qilishdagi muammolarni ko'rsatishdan iborat

Key words: temporal and cultural boundaries, national-historical text, translation, historical terms, historical methodology

Ключевые слова: временные и культурные рубежи, национально-исторический текст, перевод, исторические термины, историческая методология.

Kalit so'zlar: vaqtinchalik va madaniy chegaralar, milliy-tarixiy matn, tarjima, tarixiy atamalar, tarixiy metodologiya

Each nation has a special vision of the world, and this vision is created collectively and passed down from generation to generation bit by bit. It is also true that each text is created taking into account certain temporal and cultural boundaries, so the solution to the problem lies in translating the national-historical text or overcoming the time barrier and “modernizing” the most understandable text for readers [1, 5-30].

The theme of the relationship between the historical term, the concept of history, the subject and tasks of historical science is declared by us as research, and in this brief review we will try to explain its relevance and outline the most general approaches to its consideration. The problem of the formation and use of the terminological tools of historical science, which is based on the concept, is most closely related to its formation as a discipline and understanding of the subject of its research. “One of the features of society as a subject of scientific research is the integrity of the interactions and counteractions of factors of various nature ... the vagueness of theoretical thinking about society and its history, as well as the vagueness of judgments expressing public opinion, largely depend on the fact that in these areas we we have thinking expressed with the help of ideas, not concepts.

In the history of historical knowledge, many of the most prominent scientists paid the closest attention to the problems of the concept, historical terminology, since only the presence of a clear terminology expressing certain entities constitutes a scientific discipline, science. We will not be far from the truth,

arguing that understanding the language of the historian exists as long as the historical discipline itself.

A necessary condition for the successful translation of facts into another language, is such an element of translation competence as the availability of reference information. To avoid this, the translator must know the facts in the source language that cause difficulty, both at the stage of discovery and at the stage of text processing. However, it should be noted that sometimes the reader may not have this information. Therefore, it is important to apply some transformations. In addition, often the translation of facts varies from situation to situation [4, 31].

The translation of historical terms is not an exception in this regard and is associated with certain issues, the elimination of which determines the quality of data translation into another language. First of all, it should be considered, the obvious ease of translation of historical terms, most of which are combined and even dissolved in a common dictionary. However, historical terms require compliance with certain translation rules, which are determined by the basic knowledge and traditions adopted in the target language [3, 43].

Historical terms are lexical units expressing the categories and concepts of historical methodology, as well as the concepts of event history. The second captures the material and spiritual achievements of human activity. They carry information about the life of society in a certain period of historical reality, serve as a means of historical knowledge. The historical terms of the history of events help to reconstruct the historical past of mankind. Each period is evaluated based on certain categories and concepts, since each period is unique, irreversible and characteristic in time, in our case, its cases are expressed only in historical language [5, 67].

The main problem in translating historical terms is to preserve the originality of the meaning that they have in a particular historical period and transfer them to a specific geographical area. When translating historical terms, it is recommended to avoid ambiguities when translating their meaning into another language, as this leads to a distortion of historical reality and the creation of a false idea of history [6, 78].

It should be noted that the translation of historical terms is directly related to the establishment of translation units that have an ambiguous definition. An analysis of the definitions of translation units shows that all of them are classified mainly according to quantitative and qualitative indicators. The main attention is paid to the meaning of the conversion unit or its characteristics. Numerous studies have shown that, since the translation unit is a mobile value and depends on the task, its most accurate definition is as follows: "Translation units are separate parts of independent speech that require solution ... for translation" [1, 55]

The historical term acts as an independently existing translation unit that requires its own translation decision: a) the choice of a fixed equivalent, b) an occasional equivalent, c) interpretation. However, it is impossible to determine which of the solutions is the best, each of which is used when necessary, each has

its own advantages in each case. It is well known that the term performs a nominative function and that many translation operations are associated with the search for the most appropriate methods of nomination [4, 89].

Today, historical science has its own level of theory¹⁰, i.e. the level of categorical knowledge corresponding to its cognitive functions and determined by the collective experience of understanding the past. The nature of the historical term stems from the subject of study and undergoes dynamic changes as it is comprehended. This is one of the features of the logic of development not only of history, but also of all humanitarian scientific knowledge.

However, when translating historical texts, one should not forget about historical terms that play an important role in translation. An accurate and competent translation of terms is the key to a successful translation of a historical text. At the same time, the most important information for the translator is reference information, according to which it is impossible to comply with all the rules for the translation of historical terms. Historical terms contain information about the life of society in different periods, the moral and material values of people, those who lived in different historical periods and their achievements. Such terms help lift the veil and see the past [2, 44].

The main problem of translating historical terms is the difficulty of transferring and preserving the specific meaning of this term. Because they have a special meaning in a certain period of history. And having made a mistake or an error in the translation of historical terms, a translator can create a misconception about a particular historical event and the course of history as a whole, which is unacceptable for a professional translator [5, 61].

Summarizing the above, several conclusions can be drawn. Firstly, when translating historical texts, it is especially difficult to observe the chronological framework, therefore, in order to realize the pragmatic potential, the linguist needs to have sufficient background knowledge.

Secondly, if the linguist desire to get a successful translation of historical realities, the he must find a compromise between historicization and modernization and focus on the situation.

Used literatures

1. Carr, Edward Hallett. (1978) *What is History?* London, Reading & Fakenham: Penguin Books.
2. Kinnunen, Tuija & Kaisa Koskinen (eds.) (2010) *Translators' Agency. Tampere Studies in Language, Translation and Culture. Series B4.* Tampere: Tampere University Press. Full-text version at:
3. Lefevere, André. (1981) "Towards an Integrated Theory." *Bulletin: Midwest MLA* 14:1. Lefevere, André. (1992). *Translation, Rewriting and the Manipulation of Literary Fame.* London & New York: Routledge.
4. O'Sullivan, Carol. (2012) "Introduction: Rethinking methods in translation history." *Translation Studies.*
5. Paloposki, Outi. (2002) *Variation in Translation.* Unpublished PhD thesis, University of Helsinki.
6. Paloposki, Outi. (2006) "Translation, history and interdisciplinarity." In: Kasar, Sündüz Öztürk (ed.) *Interdisciplinarity on Translation.* Vol. 1. Istanbul: Les Editions Isis

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA NAFAS OLISH VA CHIQRISH SISTEMASI

*Umurzoqova Madina,
Raxmatova Shahnoza,
Erkinova Elnora,
Karimova Ezoza
SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabalari,*

*Xayitova Mohichera
Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolana nafas olish organlar ituzilishi, mohiyati, undagi kasalliklar va ularni davolash yo'llari, o'pkalar va to'qimalarda gaz almashinuvi, nafas berish jarayonlari haqida.

Аннотация. В статье речь идет о строении органов дыхания, их сущности, заболеваниях и их лечении, газообмене в легких и тканях, процессах дыхания.

Annotatsiya. This article is about the structure of the respiratory organs, their essence, their diseases about treatment methods, gas exchange in lungs and tissues, breathing processes.

Kalit so'zlar: O'pka, burun bo'shlig'i, hiqildoq, kekirdak, hiqildoq usti tog'ayi, plevra pardasi, bronxlar, diafragma, alveolalar, qon tomirlari, o'pka bronxlari.

Nafas olish odamning tashqi muhitdan kislorod olib, karbonat angidrid chiqarishdan iborat. Kislorod ta'sirida hujayralardagi organik moddalar suv va karbonat angidridgacha parchalanib ko'p miqdorda energiya ajralib chiqadi. Suv va karbonat angidrid ayirish va nafas olish oranlari orqali chiqarib yuboriladi, energiya va organlarning ishlashi, hujayraning ko'payishi va o'sishi uchun sarf bo'ladi. Nafas olish sistemasi havo o'tkazuvchi yo'llar (burun bo'shlig'i hiqildoq, halqum, kekirdak, bronxlar) va gaz almashinuvi organi-o'pkadan iborat.

O'pkadagi havoning muntazam almashinib turishi nafas olish va chiqarish tufayli amalga oshadi. Nafas olish va nafas chiqarishning almashinib turishi uzunchoq miyada joylashgan nafas olish markazi tomonidan boshqarib turiladi. Nafas olish markazida ritmik paydo bo'lib turadigan nerv impulslari nervlar orqali qovurg'alar oraliq va diafragma muskullariga uzatiladi. Nerv impulslari ta'sirida bu muskullar qisqarib, nafas olish yoki nafas chiqarish sodir bo'ladi. Nafas olishda tashqi qovurg'alar aro va ko'krak diafragmasi muskullari qisqarib, qovurg'alar ko'tarilishi tufayli ko'krak qafasi kenggayib, undagi bosim havo bosimiga nisbatan pasayib ketadi. Ko'krak qafasi bilan birga o'pka ham kenggayib alveolarlardagi bosim pasayishi bilan havosi o'pkaga so'rilib olinadi. So'ngra tashqi qovurg'alar aro va diafragma muskullari bo'shashib, ichki qovurg'alar aro muskullari qisqaradi. Qovurg'alar pastga tortilib, diafragma pardasi qorin bo'shlig'iga osilib tushadi. Ko'krak qafasining hajmi kuchayib undagi bosim atmosfera bosimidan yuqori

bo'lib qoladi. Havo alveolalaridan nafas yo'llariga siqib chiqariladi ya'ni nafas chiqarish sodir bo'ladi.

Nafas olish va nafas chiqarish shutariqa almashinib turadi. Odam tinch o'tirganida 1 minutda 16-18 marta nafa solib, nafas chiqaradi. Harakatlenganda yoki jismoniy mehnat bilan shug'ullanganda nafas olish tezlashadi. Lekin bolalar tinch turgan holatda ham kattalarga nisbatan ko'proq nafas oladi. Yosh bolalar yugurganda kattalarga nisbatan tez charchab qoladi.

Ularning to'g'ri nafas olishi hayotida katta o'rin egallaydi. Normal bolalar minutiga 30-40 marta nafas oladi. Bolalarda nafas olish gigiyenasi. Nafas olish gigiyenasi deganda, to'g'ri nafas olishni taminlash tushuniladi. Nafas jarayonida atmosfera havosi burun bo'shlig'iga kirib isiydi, namlanadi, ancha changing tozalanadi. Burun bo'shlig'ida tuklarning bo'lishi bunga yordam beradi. Demak burun bilan nafas olish gigiyenik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Og'iz bilan nafas olganda galla suyagining yuz qismi va ko'krak qafasi rivojlanishida kamchiliklar yuz beradi. Tez-tez shamollash halqum va traxeyaning shilliq qavatining yallig'lanishiga olib keladi. Ammo, gapirganda, ashula aytganda og'iz bilan nafas olishga majbur bo'linadi. Shuning uchun ashula darslari o'takaziladigan xonalar ozoda, havosi esa iliq bo'lishi kerak. Bolalarga to'g'ri nafas olishni o'rgatish jismoniy mashqlari o'tkazish vaqtida pedagoglar bajaradigan ishlardan biridir. Ular yurish, yugurish va boshqa turdagi faoliyat vaqtida, shuningdek o'tirganda to'g'ri nafas olishni bolalarga o'rgatish kerak. Nafas olinadigan havoda Chang zarralari bilan birga kasallik tug'diragigan mikro organizmlar mavjud. Ular nafas olish yo'llari shilliq pardasida tez ko'payib, rinit, gripp, angina, difteriya, o'pka sili kabi infeksiyali kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Frengit, larengit, zotiljam kasalli giplevrit kabi kasalliklar kiradi. O'pkalarda gaz almashinuvi ham muhim ahamiyatga ega. Nafas olinganda o'pkaga o'tadigan havo tarkibida 20,99% kislorod, 79,3% azot, 0,03% karbona tangidrid, juda oz suv bug'lari va enert gazlar bo'ladi. Nafas chiqarilayotganda o'pkadan chiqqan havoda kislorod kamayib karbonat angidritning miqdori ortib 4%ni, azot 79,7%ni tashkil etadi. Suv bug'lari miqdori ham ortadi. Lekin boshqa gazlar miqdori o'zgarmaydi. Nafas chiqarilgan havoda kislorod miqdori kamayib, karbonat angidrit miqdori ortishi o'pka alveolalari bilan qon o'rtasidagi gazlar almashinuviga bog'liq. O'pka alveolalariga kirgan havodagi kislorod konsentrassiyasi alveoliyalarga nisbatan yuqori, karbonat angidrit esa aksincha, past bo'lishi tufayli karbonat angidrit kapilyarlardagi qondan alveolalar bo'shlig'iga, kislorod esa alveolalardan qonga o'tadi. O'pkaning tiriklik sig'imi. Tinch holatda odam birmarta nafas olganda va nafas chiqarganida 500ml havo oladi va shuncha havo chiqaradi. Havoning bu miqdor nafas havosi deyiladi. Odam chuqur nafas olganda o'pkaga Yana 1500ml havo kiradi. Bu qo'shimcha havo deyiladi. Odam tinch nafas chiqargandan so'ng chuqur nafas chiqarganida Yana 1500ml havo chiqarishi mumkin. U zaxiradagi havo deyiladi. O'pkadan chiqadigan havoning eng ko'p miqdori yani, nafas rezerv nafas olish va nafas chiqarish havosi birgalikda o'pkaning tiriklik sig'imini tashkil etadi. Odatda o'pkaning tiriklik sig'imi 3500ml havoga teng bo'ladi. O'pkaning

tiriklik sig'imi sperometr yordamida o'lchanadi. Sport bilan shug'ullanadigan jismoniy sog'lom odam o'pkaning tiriklik sig'imi 7000 -7500ml havoga yetadi. Ayollar o'pkasining tiriklik sig'imi erkaklarnikiga nisbatan kam bo'ladi. Odam chuqur nafas chiqargandan so'ng ham uning o'pkasida Yana 1200ml havo bo'ladi. Bu qoldiq havo deyiladi. Uni o'pkadan chiqarib bo'lmaydi. Shuning uchun o'pka suvdan yengil bo'lib cho'kmaydi. Odam tinch holatda 1minut davomida 8-9litr havo olib, shuncha havo chiqaradi. Bu miqdor o'pkaning minutlik nafas hajmi yani, o'pka ventilyatsiyasi hisoblanadi.

Bolalar o'pkasining tiriklik sig'imi organizmning jismoniy rivojlanishi va mashq qilishi bilan bog'liq bo'lib, bola tug'ilganidan so'ng voyaga yetgunicha 45martagacha ortadi. Bolalarning to'g'ri nafas olishi to'g'ri o'sishini ta'minlab beradi. Bolalar uzoq vaqt bitta xonada qoldirilganda, xonaning eshik va derazalari ochib shamollatib turilishi lozim. Chunki bolalar bo'g'chada yoki maktab xonasida uzoq vaqt o'tirganda, u xonadagi kislorod kamayib, karbonat angidrid ko'payadi . Buning hisobiga bolalarda bosh og'rishi nafas qisishi kuzatiladi. Shuning uchun ham dars o'tish jarayonida xonaning eshik va derazalarini ochib shamollatib turish tavfsiya etiladi. Bu bolalarning yaxshi ta'lim olishini ta'minlaydi.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, nafas olish inson hayotida katta ahamiyatga ega. Biz nafas olganimizda kislorodni qabul qilib karbonat angidritni tashqi muhitga chiqaramiz. Shunday ekan xonada dars o'tilayotganda xonaning havolarini almashtirib turish lozim. Yopiq xonada kislorod kamayib karbonat angidrit ko'payadi, bu vaziyatda bolalarda bosh og'rishi, ko'ngil aynishi kuzatiladi. Dars jarayonlari havo almashtirilgan xonada o'tilishi bolalarni yaxshi bilim olishini ta'minlaydi. Bu esa yurtimizda yetuk kadrlar rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqov B, Kuchkarova L , Qurbonov Sh. " Bolalar va o'smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi" O'zbekiston Milliy Entklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T 2005y.
2. Sodiqov Q, "O'quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi" T. "O'qituvchi" 1992y.
3. Urinkova A, Antronova M, Farber D. " Vozrastnaya fiziologiya I shkohnaya gigiyenasi" Prosvesheniya" M.1990y.

ABU RAYHON BERUNIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Erkin Berdixanov Ergalievich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talabasi

[*erkinberdixanov@gmail.com*](mailto:erkinberdixanov@gmail.com)

Annotatsiya. Maqolada Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari haqida ma'lumot berilgan. Beruniyning "Kimyogar" va "Tahqiq ma'ruzalari" asarlarida o'qitish usullari, nazariyalar va ma'naviy qo'llanmalar haqida tushuntirilgan. Beruniyga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishlariga va talablari asosida ta'lim berishga harakat qilishi, nazariy va amaliy yondashuvlar bir-biriga mos kelishi, o'qituvchilar o'quvchilarning ma'lumot darajasiga va xarakteriga qarab ta'lim berishga harakat qilishi, o'qituvchilar o'quvchilarni o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni tushunishga harakat qilishi va o'qituvchilar o'quvchilarning o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga harakat qilishi kerak. Maqola yoritilgan ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning o'qitish metodikasi, didaktika va pedagogik nazariyalari haqida tushuntiradi. Beruniyning pedagogik qarashlari, o'zining ilmiy va falsafiy yondashuvlariga asoslanganligi sababli, o'zining vaqtida va bugungi kunda ham o'qitish uslublariga, tizimiga va maqsadlariga mos keladi. Bu maqola o'qituvchilar va talabalar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: Abu Rayhon Beruniy, pedagogik qarashlar, o'qitish usullari, nazariyalar, ma'naviy qo'llanmalar, qiziqishlar, talablar, ma'lumot darajasi, xarakter, o'rganish maqsadi, amalga oshirish.

Abstract. The article provides information about the pedagogical views of Abu Rayhan Beruni. Beruni's works *The Alchemist* and *Research Lectures* explain teaching methods, theories and spiritual guides. According to Beruni, teachers try to teach based on the interests and demands of students, theoretical and practical approaches are compatible with each other, teachers try to teach according to the level of education and character of students. To do, teachers should try to understand the goals and objectives for students' learning and teachers should try to implement the goals and objectives for students' learning. The information covered in the article explains the teaching methodology, didactics and pedagogical theories of Abu Rayhan Beruni. Beruni's pedagogical views, based on his scientific and philosophical approaches, are relevant to the teaching methods, systems and goals of his time and today. This article will be useful for teachers and students.

Key words: Abu Rayhan Beruni, pedagogical views, teaching methods, theories, spiritual guides, interests, requirements, educational level, character, learning goal, implementation.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) O'zbekiston, Hindiston va Orta Sharqiy hududlarida faoliyat yuritgan ilm-fan va falsafa mutafakkiri, matematik, astronom, geograf, tarixchi, tilshunos va pedagogik mutafakkiri bo'lib mashhur.

Pedagogik qarashlari asosan "Kimyogar" nomli asarida ifodalangan. Beruniy o'zbekistonlik o'qituvchilar, tarixchilar, falsafiy va diniy olimlar tomonidan o'qitish metodikasi, didaktika va pedagogik nazariyalarini izlab topishga harakat qilgan. [1]

Beruniyga ko'ra, o'qitishni o'rganishda o'qituvchi va o'quvchilar bir xil muammoga duch kelishlari kerak. Bu muammo, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi mazmun, tushuncha va fikrlar farqi hisobiga paydo bo'ladi. Beruniyga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarni o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni tushunishga to'g'ri kelishi kerak. [2]

Beruniy o'qitishni amaliy va nazariy tarafa ajratadi. Amaliy yondashuv o'quvchilarga ko'rsatiladigan amalga oshirilishi kerak bo'lgan amaldir. Nazariy yondashuv esa o'quvchilarga o'qitishda foydali bo'lgan nazariy fikrlarni va tushunchalarni ta'lim etishdir.

Beruniy o'zbekiston o'qituvchilari uchun ma'naviy va ma'rifiy qo'llanmalar tuzishga ham ko'rsatgan e'tibor qo'ymoqda. Uning pedagogik qarashlari, o'zining ilmiy va falsafiy yondashuvlariga asoslanganligi sababli, o'zining vaqtida va bugungi kunda ham o'qitish uslublariga, tizimiga va maqsadlariga mos keladi. [3]

Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlariga asoslangan ma'naviy qo'llanmalar mavjud. Uning "Kimyogar" asari, o'zbekistonlik o'qituvchilar, tarixchilar, falsafiy va diniy olimlar tomonidan o'qitish metodikasi, didaktika va pedagogik nazariyalarini izlab topishga harakat qilishga rag'batlantirgan. Bu asarda Beruniy, o'qituvchilar uchun ta'lim materiallarini yaratish, o'qitish usullarini va o'quvchilar bilan ishlashni o'rganishning muhimligi haqida yozadi. [4]

Bundan tashqari, Beruniyning "Tahqiq ma'ruzalari" nomli asari ham uning pedagogik qarashlariga asoslanadi. Bu asarda Beruniy, o'qituvchilar uchun ma'naviy qo'llanmalar tuzishning muhimligi haqida yozadi. Uning fikriga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarning odobi, aqliy manbalari, jamiyatda o'z o'rnini o'rganish, o'z xarakterini rivojlantirish, ma'naviy va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirish va yuksaltirish uchun o'z kuchlarini sarflashi kerak. [5]

Boshqa Beruniyning ma'naviy qo'llanmalari o'quvchilarning qiziqishlarini o'rganishga asoslangan "Hindiston toponimlari" nomli kitobidir. Bu kitobda Beruniy, o'quvchilarning o'zlarining qiziqishlar va arzulariga qarab ta'limni belgilashning muhimligi haqida yozadi. Beruniyning ma'naviy qo'llanmalari, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi tarbiya va ta'lim jarayonini o'z ichiga oladi va bu jarayonni o'zaro hamkorlik va mehnat tufayli muvaffaqiyatga olib chiqishga yordam beradi. [6]

Abu Rayhon Beruniyning "Tahqiq ma'ruzalari" nomli asari, uning pedagogik qarashlariga asoslangan ma'ruzalardan biridir. Bu asarda Beruniy, o'quvchi va o'qituvchilar uchun usullarni va qarashlarni tahlil qiladi va o'rganish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. [7]

"Tahqiq ma'ruzalari" asarida Beruniyning quyidagi pedagogik qarashlari ko'rsatilgan:

1. O'qitishda o'quvchilarni qiziqishlariga va talablariga asoslanish kerak. Beruniy, o'quvchilarning o'zlarining qiziqishlar va talablari asosida ta'lim berishning muhimligini anglashga harakat qilgan.

2. O'qitishda nazariy va amaliy yondashuvlar bir-biriga mos kelishi kerak. Beruniyga ko'ra, o'qitish nazariy va amaliy yondashuvlarga asoslanishi kerak, shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga amaliy mashqlar va vazifalar berishga harakat qilishi kerak.

3. O'qituvchilar o'quvchilarni o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni tushunish kerak. Beruniy, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi mazmun, tushuncha va fikrlar farqi hisobiga paydo bo'ladigan muammoga tushunishga yordam beradi.

4. O'qituvchi o'quvchilarning xarakteriga va ma'lumot darajasiga qarab ta'lim berishga harakat qilishi kerak. Beruniyga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarning ma'lumot darajasini va xarakterini hisobga olgan ta'lim dasturini belgilashga harakat qilinishi kerak.

5. O'qituvchilar o'quvchilarni o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga harakat qilishi kerak. Beruniy, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi ta'lim jarayonining o'quvchilar tomonidan amalga oshirilishi kerakligini tushunishga harakat qilgan. [8]

Xulosa

Bu maqolada Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan. Beruniyning "Kimyogar" va "Tahqiq ma'ruzalari" asarlarida o'qitish usullari, nazariyalar va ma'naviy qo'llanmalar haqida tushuntirilgan. Beruniyga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishlariga va talablari asosida ta'lim berishga harakat qilishi, nazariy va amaliy yondashuvlar bir-biriga mos kelishi, o'qituvchilar o'quvchilarning ma'lumot darajasiga va xarakteriga qarab ta'lim berishga harakat qilishi, o'qituvchilar o'quvchilarni o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni tushunishga harakat qilishi va o'qituvchilar o'quvchilarning o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga harakat qilishi kerak.

Maqolada yoritilgan ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning o'qitish metodikasi, didaktika va pedagogik nazariyalari haqida tushuntiradi. Beruniyning pedagogik qarashlari, o'zining ilmiy va falsafiy yondashuvlariga asoslanganligi sababli, o'zining vaqtida va bugungi kunda ham o'qitish uslublariga, tizimiga va maqsadlariga mos keladi.

Bu maqola o'qituvchilar va talabalar uchun foydali bo'ladi, chunki Beruniyning pedagogik qarashlari, o'qitish usullari va ma'naviy qo'llanmalari, hozirgi kunda ham o'qitishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning o'rganishga qaratilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Beruniy, A. R. (2019). Abu Rayhon Beruniyning falsafa va ilmiy nazariyalari. Toshkent: O'zbekiston.
2. Abdurasulova, N. (2019). Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari. O'zbek til va adabiyoti, 1(1), 56-60.
3. Beruniy, A. R. (2015). Ilm va falsafa. Toshkent: Sharq.
4. Beruniy, A. R. (2007). Kimyogar. Toshkent: Sharq.
5. Beruniy, A. R. (2015). Ilm va falsafa. Toshkent: Sharq.
6. Beruniy, A. R. (2004). Tahqiq ma'ruzalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Yusupov, A. (2008). Abu Rayhon Beruniyning kimyo ilmi va tarixiy o'zgarishlar. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2, 327.
8. Ismoilov, A. (2016). Abu Rayhon Beruniyning ilmiy yutuqlari. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 4, 567.
9. Ganiyeva G.M. Abdulla Avloniyning asarlarida pedagogik qarashlar. Journal of Integrated Education and Research, (2023) 2(3), 32–35. Retrieved from
10. Ганиева Г. (2022). Ёшларни юксак ғоявийлик ва миллий ғояга содиқлик, ёт мафқураларга қарши мурасасизлик руҳида тарбиялаш. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 2–5. Retrieved from
11. Ganieva G.M. Talaba-yoshlarda sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish. Journal of Integrated Education and Research, (2023) 2(4), 116-120. Retrieved from

JISMONIY SALOMATLIK TARBIYASI ZAMIRIDA JADIDLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI NAZARIYASI

*Djabborov Ma'sud Bahriddinovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

*Mustofoyev Shaxzodbek Ikrom o'g'li
va Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. maqolada, barkamol avlodni jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu tarbiyaning bosh maqsadi jismonan chiniqqan, mard va sabotli, qat'iyatli va vatanparvarlarni kamol toptirishda jadidlar maktabining ahamiyati xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, agar farzand sog'lom, oqil, iymon-e'tiqodli bo'lsa, ota-onasiga faqat rahmat keltirishiga doir fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadid, pedagogika, ta'lim, fan, o'quv, bilim, metod.

Abstract. in the article, it is impossible to imagine a mature generation without physical education, the main goal of this education is to talk about the importance of the modern school in raising physically fit, brave and steady, determined and patriotic people. It is also believed that if a child is healthy, intelligent, and religious, he will only bring thanks to his parents.

Key words: modernity, pedagogy, education, science, study, knowledge, method.

Аннотация. В статье невозможно представить здоровое поколение без физического воспитания, основная цель этого воспитания - рассказать о значении современной школы в воспитании физически крепких, смелых и настойчивых, решительных и патриотичных людей. Также считается, что если ребенок здоров, умен и религиозен, он принесет родителям только благодарность.

Ключевые слова: современность, педагогика, образование, наука, изучение, знание, метод.

Kirish. Jismoniy salomatlilik tarbiya tizimida muhim o'rinni egallaydi va boshqa tarbiyalar bilan birga amalga oshiriladi. Jadidshunos olim Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o'rin tutishini, ota-onalarga o'z bolalarining shunday o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlarini ta'min etishlarini maslahat beradi: "Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa bolalar uchun zarurdir. Shuning uchun bolalani jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o'yinlar bilan mashg'ul qilish foydalidir. Bolalarni o'yindan man etishning foydasi yo'qdir. Ularning doimo bir joyda o'tirishlari, harakat qilmasliklari ularni badanlarini zaif bo'lishlariga olib keladi.

Ota-onalar doim o'z bolalarini o'yinga tashviq va targ'ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o'yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak". Fitrat bu harakatli o'yinlar bolaning aqli, farosati, ilmini rivojlanishiga va to'g'ri

axloqiy tarbiya topishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. U bu o'yinlar orqali bolaga hayotni o'rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiysi bolani jismonan chiniqtirishdir deb biladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Jismoniy tarbiyaning maqsadi - o'quvchilarni sog'lom tarbiyalab, aqliy va jismoniy mehnatga o'rgatish, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdir. Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badanni tarbiya qilish zarurdir. Jismoniy tarbiyaning vazifalari: - sog'liqni mustahkamlash, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlantirish; - aqliy va jismoniy layoqatlilikning oshishi; - tabiatan berilgan harakat sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish; - harakatning yangi turlariga o'rgatish; - asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish (kuchlilik, epchillik, ehaqqonlik v.h.k.); - sanitar-gigiyena ko'nikmalaiini shakllantirish; - axloqiy sifatlarini tarbiyalash (mardlik, maqsadlilik, intizomlilik, javobgarlik, jamoada yashash); - jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy ravishda shug'ullanish ehtiyojini shakllantirish; sog'lom, tetik bo'lishga intilishni rivojlantirish asosida o'ziga va atrofidagilarga quvonchulashish. Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport - har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quwatni saqlab turishning vositasi hisoblanadi.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarining, ba'zan esa yomon sifatlarining ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarini boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat metodi. O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi. O'z-o'zini baholash mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat metodi. O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchiga bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tusbunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni, tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari, atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim. [1, 168-bet.]

Tadqiqot metodologiyasi

Jismoniy tarbiya tarbiyaning ajralmas qismlaridan biri bo'lib, maktabda tarbiyaning boshqa tomonlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bu bilan jismoniy tarbiya inson shaxsining har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi. Bolani oilada jismoniy jihatdan tarbiyalash u tug'ilgan kundan boshlanadi. Bu davrda jismoniy tarbiya, asosan, uning to'g'ri o'sishi va sog'lom bo'lishini ta'minlaydigan gigiyenik talablarga rioya qilishdan, jismoniy jihatdan parvarishlashdan iborat bo'ladi. Jismoniy tarbiya bolaning jismoniy kuchi va kishi psixik faoliyatining moddiy negizi bo'lgan markaziy nerv tizimini o'stirish va taraqqiy ettirish bilan birga, uning aqliy qobiliyatlarini to'g'ri o'si shiga ham yordam beradi. Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.[1, 6-bet.]

Mulohaza va takliflar

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mardlik, qat'iylik, o'zini tuta bilishlik, matonatlik kabi axloqiyirodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlar va sport o'yinlari. turli estafetalar bolalar o'rtasida jamoali, o'rtoqlik va do'stlik hissini o'z oldidagi va sport jamoasi oldidagi burchini, mas'uliyatlik va talabchanlikni his qilishni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositalaridandir,

Xulosa qilib ichki jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- inson a'zolarining tuzilishi va ularning funksional kamoloti.
- a'zolar, nerv va harakat, suyak-muskul tuzilishi, badanning uyg'unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish;
- o'quvchilar sog'ligini mustahkamlash; - gigiyena qoidalariga ko'nikish; - o'quvchilarni har tomonlama mohirligini o'stirish;
- bo'lajak ishchi, mehnatkashlarning jismoniy va fizik sifatlarini, kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish;
- o'quvchilarning jismoniy va yosh xususiyatlari uchun sharoit yaratish;
- o'quvchilarning iroda, chidamlilik, qat'iy intizom, do'stlik hissini kamol toptirish; - kasbiy, jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
2. Asqarova O'. M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun O'.M. Asqarova, M.Xayitboyev, M.S. Nishonov. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Talqin», 2008 - 288 b.
3. Жамолдинова О. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизлик тамойиллари амал қилишининг педагогик механизмларини такомиллаштириш: Автореф.... пед. фан, док. - Т., 2015. – 83
4. Жумаева Й.Э. Умумий урта таълими инсонпарварлаштиришда уқ;иғиш тамойиллари ва методларининг узаро алоқадорлиги: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. - Қарши, 2005. - 162 б

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ БИОЛОГИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Черняховская Людмила Анатольевна

Учительница биологии, школа №182, город Ташкент

Телефон: +998-97-410-53-51

Аннотация. За последнее время резко изменилась работа воспитателя в учебном цикле. Ясно, что преподаватель в этот момент не интерпретирует мгновенную информацию для учеников и в передовом учебном климате выполняет новые образовательные роли и экспертные задания. Педагог также действует как координатор учебных упражнений; и в работе эксперта, предлагая правильные стратегии помощи ученикам, учитывая их зону ближайшего развития событий, а также координатор использования инноваций в учебном цикле.

Abstract. Recently, the work of the educator in the educational cycle has changed dramatically. It is clear that the teacher at this point is not interpreting instantaneous information for students and in an advanced learning climate is performing new educational roles and expert assignments. The educator also acts as the coordinator of the learning exercises; and in the work of an expert, offering the right strategies to help students, taking into account their zone of proximal development of events, as well as a coordinator of the use of innovations in the educational cycle.

Ключевые слова: методы, биология, мультимедийные технологии, качественное обучение

Keywords: methods, biology, multimedia technologies, quality education

Использование и внедрение инноваций в образовательной среде является основным условием качественного обучения в связи с высокими темпами информатизации общества и критическим увеличением объема данных. Таким образом, каждый педагог постепенно пытается включить в свои иллюстрации различные улучшения, включая зрение и звук, чтобы сделать наиболее распространенный способ представления информации и способностей у учеников действительно увлекательным, интуитивно понятным, жизнеспособным и практичным.

Медиа, показывающие нововведения, представляют собой смесь современных специализированных показывающих пособий и обучающих показывающих пособий - транспортеров данных. Улучшения зрения и звука позволяют воспитателю объединять различные приемы показа, давая возможность лучше усваивать учебный материал.

Изучение адекватности собственного акта использования различных процедур, стратегий и достижений в области научных иллюстраций в средней школе позволяет нам предположить, что лучшими из них являются:

- использование обучающих интеллектуальных досок Pudlet и Jamboard;
- использование интеллектуального подготовительного видео с вопросами, составленными инструктором с помощью обучающей помощи Learnis.ru;
- использование интуитивно понятных вступлений, содержащих гиперссылки, записи, триггеры, действия;
- использование подготовки карточек для работы с терминами, схемами, регламентами с учетом этапа quizlet.com;
- проведение веб-тестов с использованием обучающей игровой сцены kahoot и т. д.

Позвольте нам более подробно остановиться на каждой из вышеперечисленных образовательных стратегий.

Ведущие научные примеры исключительно интересны с использованием интуитивно понятных досок. Интуитивно понятная доска, сделанная на сцене pudlet.com, — невероятная опция в отличие от обычного образовательного комитета. Преподаватель может заранее настроить макет доски для конкретной иллюстрации и на реальном примере дать возможность ученикам разобраться с ним. Например, концентрируясь на предмете «Виды клеточного дыхания», педагог может использовать макет классной доски - «Разделы». Преподаватель может сделать 2 раздела, которые ученики позже будут использовать для изображения и анализа сильнодействующего и анаэробного дыхания. Кроме того, краткие текстовые материалы, рисунки, подготовка записей, связи с интеллектуальными начинаниями и т. д. могут быть перенесены на саму интуитивно понятную доску. Ученики с разной степенью развития способностей (зрение, слух, ощущения) могут использовать для ознакомления любые материалы, размещенные на этой доске, с учетом их уровня. Все действия происходят в Интернете, преподаватель и ученики могут сотрудничать на этой доске, сочинять, вставлять изображения, делать замечания, вставлять реалистичные статьи и так далее.

Jamboards — еще один вариант в отличие от белой доски. Объединение иллюстрации с помощью этой помощи может быть выполнено с помощью сбора, сопоставления или отдельных видов работы. В отличие от прошлой загрузки, когда все ученики работают над одним и тем же интеллектуальным материалом, делая предполагаемые посты, эта помощь позволяет вам делать несколько загрузок одновременно в одной записи. На каждой умной доске преподаватель может составить имена учеников, которые будут ее сокращать. Движения любого рода также будут происходить в сети и управляться педагогом. Ученики и преподаватель могут переходить от одной доски к другой, чтобы увидеть последствия работы разных учеников. Например, концентрируясь на предмете «Экологические проблемы», педагог может заранее сделать листы с названиями основных проблем конкретного

региона или страны в целом и предложить ученикам сделать небольшой баннер во время примера, чтобы узнать причины для вопроса, основные результаты и возможные меры. Затем результаты проделанной работы могут быть сохранены в формате pdf и отправлены ученикам по электронной почте или распечатаны на принтере и распространены среди молодежи.

Отличным вариантом по сравнению с простым просмотром видео во время примера является использование интеллектуального видео с вопросами, требующими ответов от каждого ученика во время просмотра.

Литература

1. Альтшуллер Р.С. Развитие профессионального интереса учащихся на факультативных занятиях//Биология в школе. 1971. - № 4.
2. Андреева Н.Д., Левченко А.Л. Профильное обучение: вчера, сегодня, зав-тра//Биология в школе. 2004. - № 5. - С. 21 – 24
3. Комиссаров Б.Д. Методологические проблемы школьного биологического образования. М.: Просвещение, 1991
4. Морозова М.И. Формирование научного мировоззрения у учащихся при обучении общей биологии: Дис. канд. пед. наук. СПб., 2005

O'ZBEK TILIGA NEMIS TILIDAN O'ZLASHGAN MA'NOSI KENGAYGAN SO'ZLAR

Nodira Ozatova

*Urganch davlat universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti
stajyor o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tiliga nemis tilidan bilvosita va bevosita kirib kelgan va endilikda asliyat tilida anglatadigan ma'nolaridan tashqari yangi ma'nolar ham kasb etuvchi o'zlashmalarning semantik tahlili xususida gap boradi. Til egalari tasavvurida ichki va tashqi o'xshashlik, funksiyalaridagi monandlik kabi qiyoslanish omillari ostida o'zlashmalar anglatuvchi tushunchalarning hajmi va soni oshganligi misollar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zlashma, leksika, semantik, tushuncha, ma'no kengayishi.

Аннотация. В данной статье проводится семантический анализ заимствований, которые прямо и косвенно вошли в узбекский язык из немецкого языка и в настоящее время приобретают новые значения в дополнение к своим первоначальным значениям. В воображении носителей языка размер и количество ассимиляционных понятий увеличились под влиянием таких сравнительных факторов, как внутреннее и внешнее сходство, монадность по своим функциям, что объясняется на основе примеров.

Ключевые слова: приобретение, лексика, семантика, концепт, расширение значения.

Annotation. This article deals with the semantic analysis of borrowings that entered the Uzbek language directly and indirectly from the German language and now acquire new meanings in addition to their original meanings. In the imagination of the language owners, the size and number of the concepts of assimilation have increased under the comparative factors such as internal and external similarity, monadity in their functions, it is explained on the basis of examples.

Key words: acquisition, lexicon, semantics, concept, meaning expansion.

Tilimizda shunday o'zlashmalar mavjudki, ular rus va o'zbek tillarida o'z ma'nolarini kengaytirgan. Til egalari tasavvurida ichki va tashqi o'xshashlik, funksiyalaridagi monandlik kabi qiyoslanish omillari ostida o'zlashmalar anglatuvchi tushunchalarning hajmi va soni oshgan. Hatto, u bilan boshqa narsa va predmetlar nomlana boshlagan.

Misol tariqasida *Shnur* so'zining tarjimasiga nazar soladigan bo'lsak, bu so'z nemis tilida "eshilgan yoki to'qilgan nozik chilvir, arqon" ni bildiradi. O'zbek va rus tillarida esa uch ma'noga ega:

- 1) elektr simi;
- 2) dinamitning yonuvchi chilviri;

3) chizim, nozik chilvircha.

4) bog'ich, ip

Analogik misol sifatida *fartuq* o'zlashmasini olish mumkin. Bu so'z manba tilida arxaizmga aylangan. Keyingi yillarda chiqqan nemis tilining eng katta lug'atlari ham uni qayd etishmagan. Faqat G. Paulning lug'atida (1896) *fartuq* o'zlashmasining izohi va uning hozirgi davrdagi ekvivalenti Schürze so'zi bilan sinonim ekanligi tavsiflangan. Hozirgi nemis tilida *Schürze* so'zi *fartuq* anglatadigan (peshband) ma'nolarida qo'llaniladi. Bu o'zlashma bizga "kiyimni iflos qilmaslik uchun libos ustidan kiyiladigan yoki belga bog'lab olinadigan ish kiyimi, peshband" va "paxta" terish uchun maxsus tikilgan, bo'yinga osib, belga boglab olinadigan mato, etak" ma'nolarida kirib kelgan. Masalan: "Egningizda uy xizmatchisining *fartug'i* emas, ofitser mundiri bor" (Y. Dold-Mixaylik). "*Fartuq*" so'zining yana bir ma'nolaridan biri bu bozor rastalaridagi savdogarning pul solishga mo'lljallangan katta cho'ntakli belga bog'lanadigan mato. O'zbek tilida "*fartuq*" so'zi so'zlashuv nutqimizda "etak" ma'nosida ko'p ishlatiladi.

Nutqimizda ko'p uchraydigan yana bir o'zlashmalardan biri "*par*" (*das Paar*) so'zining ma'nolariga nazar soladigan bo'lsak, bu so'z nemis tilida "juftlik" yoki "biror narsaning jufti" ma'nolarida qo'llaniladi.

O'zbek va rus tillarida esa quyidagi ma'nolarni kasp etadi:

1) juft: *Kechqurun... par otli izvosh ko'chaning boshida to'xtab, undan tergovchi tushdi* (A. Qahhor, "Sarob").

2) Birga ishlatiladigan ikkita bir xil narsaning biri, bittasi: *pari yo'q etik*.

3) O'z xislatlari bilan bir-biriga mos, teng ikki kishining biri: *Qizim bor edi yakka, ismi Qamar, Oz erdi husn bobida unga par* (S. Abdulla, „Tohir va Zuhra“).¹

4) ta'lim sohasida: 80 (yoki 90) minutdan iborat dars mashg'uloti davomiyligi: *Bugun 2 par darsimiz bor*.

5) Bolalar oy'inlaridan biri "langi" yoki "lanka"da juftlab sanash turi, juft sanash uchun ishlatiladigan so'z;

6) mutanosib, monand: *bu ayol hardoim par (parniy) kiyinadi. Kiyim rangini tanlashda unga hech kim teng kelolmaydi*.

7) zargarlikda: bir turkumga kiruvchi yoki o'xshash narsalarni jamlab ko'rsatuvchi so'z: *bu zirak pari (uzuk, bilaguzuk va tumori) bilan sotiladi*.

Shuni ta'kidlash joizki, "*par*" so'zi nemis tilida inkor shaklda shaxsni inobatga olmaganda "*mos emas*" ma'nosini hosil qila olmaydi. Shu jihatdan "*par emas*" (*непарный*) so'zi o'zbek tilida qisman yangi ma'no hosil qila oladi desak, yangilishmagan bo'lamiz.

Analog misol sifatida "*signal*" so'zini taxlil qilamiz. "*Das Signal*" so'zi nemis tilida "optik yoki akustik belgi" ma'nosini anglatadi. Quyida keltirilgan misollar orqali esa bu o'zlashmaning o'zbek tilida ifoda etgan ma'nolarini

¹ O. Jumaniyozov. "O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari". Toshkent, 1987, 89-bet.

ko'rishimiz va ular orqali o'zlashish jarayonida ro'y beradigan tafovvudlarni yaqqol kuzatishimiz mumkin:

1) Biror ma'lumot, buyruq, xabar va h.k.ni yaqin yoki uzoq masofaga yetkazish, kishilarni o'ziga qaratish, ogohlantirish, tartibga chaqirish uchun qo'llaniladigan shartli belgi, ishora, tovush va h.k.: *Shofyorning "Yo'l ochinglar" ma'nosida berayotgan signali befoyda edi.*

2) (ko'chma) biror hodisaning oldini oluvchi, u haqda ogohlantiruvchi, ta'kidlovchi xabar yoki belgi, ishora: *Shundan buyon ikki oy o'tdi, hali ham matbuot signaliga javob yo'q ("Mushtum").*

3) Signal variant- kitobning nashr etilishidan oldin uning kamchiliklarini ko'zdan kechirish maqsadida muallifga taqdim etiladigan nusxasi: *Yozuvchi kecha o'z kitobining signal variantini ko'zdan kechirib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etdi. Yaqin kunlarda ushbu kitob sotuv rastalarini egallaydi.*

4) Signal (xos, maxsus) so'z: *Ingliz tili grammatikasida har bir zamonning signal so'zlari mavjud.*

5) budilnik: *Ertalab telefonim nuqul signal chalgani chalgan.*

6) (kasallik) alomat: *Yo'tal shamollash signalidir.*

7) (sport) start: *Poygaga signal berildi.*

8) (anomiya) buyruq: *Dastavval signal miyaga boradi va tana harakatlana boshlaydi.*

Yuqoridagi misollar orqali signal so'zining xabar ma'nosida qo'llanilishi xususida to'xtalib o'tildi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, xabar (signal) yetkazilish tarziga ko'ra quyidagicha klassifikatsiya hosil qiladi:

a) yorug'lik signali: *optik lazerlar, mayoq va h.k.*

b) tovushli signal: *hushtak. diqqatni qaratishga yo'naltirilgan tovushlar;*

c) imo orqali signal: *bosh irg'itish, ko'z qisish va h.k.*

d) rasmlı signal: har xil shartli belgilar yoki suratlar;

e) o'zaro kelishilgan signal. Bunday signallar ma'lum guruhlar uchun mo'lljallangan bo'lib, o'zlari tomonidan yaratilgan va faqat shu guruh a'zolariga tushunarli bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, signal qay tarzda namoyon bo'lishi makon, muhit, sharoit va qatnashuvchilarga chambarchas bog'liqdir.

Analogik misol sifatida "Pult" so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, bu so'z nemis tiliga oid manbaalarda "minbar" yoki "yozuv stoli" ma'nolari qayd etilgan. O'zbek tilida esa bu so'z quyidagi ma'nolarga ega:

1) notalar qo'yish uchun mo'lljallangan uzun oyoqli stolcha: *Professorimiz 80 daqiqa davomida pult yonida tik holatda ma'ruza o'qidilar, shunga qaramasdan yuzlarida charchoq alomatlari sezilmasdi.*

2) avtomatik boshqaradigan asbob va apparatlar o'rnatilgan joy: *Televizorning pult orqali masofadan turib boshqarilishi foydalanuvchilarga ko'plab qulayliklar yaratdi.*

3) Radioteleapparaturalarni boshqaruvchi asbob.

Masalan; Televizor pultini bosmoq.

Zamon, biz yashayotgan dunyo taraqqiy etarkan, bizni o'rab turgan atrofimizdagi jamiki narsa-buyumlar, xususan, atamalar ham o'zgarish kasb etishi tabiiy holdir. Jumladan, "pult" so'zi ham innovatsiya natijasida o'z manosini boyitib bormoqda. Endilikda "pult" so'zi "kalit" ma'nosida ham qo'llanilmoqda. Yaqqol misol tariqasida mashina pultini olishimiz mumkin. Hammamizga ma'lumki, mashina pulti kalit vazifasini o'taydi, demak, bu o'zlashmaning ma'nosi milliy tilimizda yana bittaga ko'payadi.

Olmon tilidan *der Teller* so'zi o'zbek tiliga *tarelka* shaklida o'zlashgan bo'lib, bu so'z asliyat tilida " dumaloq shakldagi soy yoki tubi keng, ovqat solishga mo'ljallangan oshxona buyumi, idish-tovoq turi" ni anglatadi. Tilimizda esa ushbu o'zlashmaning bir necha ma'no ostida qo'llanilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

a) Cheti biroz ko'tarilgan, tubi keng, yassi oshxona idishi, likopcha; *Chinni tarelka xolvaytar; Oshqovoqdan pishirilgan qozon somsani tarelkaga tuzab... ularning oldiga olib borib qo'yib, o'zi uyga kirib ketdi (S. Zunnunova, Olov).*

b) (musiqa) bir-biriga uriluvchi ikkita metal barkash shaklidagi uzma cholg'u asbobi; *Boburning ha deganda o'sha qurmagur tarelkasini chalib shovqin solaverishi boshimni g'uvlatib yubordi.*

c) Afsona tarzidagi, tarelkaga o'xshash, osmonda uchib yuruvchi noma'lum jism; *Uchar tarelkalar;*

Yulduz desa, yulduz emas,

Yo yo'ldoshmi bir daydi.

Har holda, u shov-shuv slogan

Tarelkaga o'xshaydi (A. Oripov, yillar armoni).

d) shakli likopchaga o'xshash bo'lgan, parabolaning optic xususiyatlariga asoslangan televizor signalini olib boradigan antenna turi; *Dadam sotib olib kelgan tarelkasini o'rnatgandan buyon televizorimiz son-sanoqsiz chet el kanallarini ko'rsatayapdi.*

Navbatdagi misolimiz nemis tilidagi *die Tabelle* so'zi bo'lib, u *jadval* ma'nosini anglatadi. O'zbek tiliga esa bu so'z *tabel* shaklida o'zlashgan va quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

a) (esk) Biror narsani hisobga olish varaqasi, jadval: *Sinfidagi barcha stol-stullar va qolgan jihazlar soni tabelda aniq yozib qo'yilgan.*

b) Ishchi va xizmatchilarning ishga kelish va ketish vaqti qayd qilinadigan maxsus daftar yoki taxta:

Tabellarda yozilsa "Ro'zibish kampir",

Tabelchiga xo'mrayib asta qaraydi (G'. G'ulom)

c) Maktab o'quvchilarining darsdan ulgurishlari (baholari) qayd qilib boriladigan varaq: *Akamning tabelidagi "hulq" deb yozilgan grafada hamma vaqt "5" bahosi bo'lardi (S. Anorboyev, Oqsoy).*

d) Maktabda o'qituvchilarning o'tgan dars miqdoriga monand holda ishlab chiqiladigan oylik miqdori haqidagi hisobot: *Maktabimiz o'quv ishlari bo'yicha*

direktor o'rinbosari I. Turdiyev bu oydagi tabelni vaqtida tayyorlamaganligi sababli maoshlar kechiktirildi.

O'zbek tilidagi *kvartal* so'zi nemis tilidagi *das Quartal* so'zidan olingan bo'lib, bu so'z manbaa tilida faqatgina “*yilning to'rtidan bir qismi*” ma'nosida ishlatiladi: *Das vierte Quartal beginnt mit dem ersten Oktober (Yilning to'rtinchi choragi birinchi oktabrdan boshlanadi).*

O'zbek tilida esa bu so'z ma'nosini ancha boyitgan:

a) Yilning to'rtidan bir qismi, choragi (uch oy): *Yilning uchinchi kvartali; To'rtinchi kvartal hisoboti; Ikkinchi kvartal rejasi; Buni biz xalq xo'jalik planida belgilangan ishlarning dastlabki kvartaldanoq oshirib bajarilayotganligida ko'rib turibmiz (N. Safarov, Jasoratning davomi).*

b) Shaharning bir necha (odatda to'rtta) kesishib o'tgan ko'chalar bilan chegaralangan qismi, mavze: *Shahardagi eski mahllalar o'rnida ko'rkam kvartallar barpo etilayapti (S. Soliyev, Faxr). Yo'q, aqalli har bir kvartalda bittadan mahalla markazi bo'ishi kerak (O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol).*

c) O'rmon, tokzor va shu kabilarning yo'lkalar yoki tabiiy to'siqlar (*masalan daryolar*) bilan ajratilgan har bir bo'lagi (odatda, chorburchak bo'ladi): *Tokzorning har bir kvartalidan mo'l hosil olindi.*

Nemischa *das Prozent* so'zi “*biror son yoki miqdorning yuzdan bir hissasi, ulushi*” ma'nosini bildiradi va “%” belgisi bilan ifodalanadi: *Bei sofortiger Zahlung werden drei Prozent Rabatt gewährt (darhol to'lov qilinsa, 3 foizlik chegirma saqlab qolinadi); zehn Prozent der Abgeordneten haben zugestimmt (deputatlarning 10 foizi rozilik bildirdi).*

O'zbek tilida esa *prosent* so'zi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi:

a) Biror son yoki miqdorning yuzdan bir hissasi, ulushi; % belgisi bilan ifodalanadi: *Planning bir prosentini. O'ninchi oktabrda yillik paxta shartnomamizning sakson prosentini berib bitiramiz (A. Qodiriy, Obit ketmon). Ko'pi bilan bir oy ichida bironta ham yakka xo'jalik qolmasligi, hamma yuz prosent kolxoz bo'lishi kerak (dedi Shodiyev) (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari).*

b) Qarzga olingan puldan foydalanganlik uchun qarzdor tomonidan pul egasiga to'lab beriladigan haq, foyda: [Fazliddin:] ... kecha Abdulla akam yigitchani tutib, ota qarzini uz, deb mahkamroq ushlabdi. Keyin hisoblab qarashsa, yigitchaning gardaniga present bilan rosa sakkiz yuz so'm pul tushibdi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Das Formular so'zi nemis tilida “anketa” ma'nosini bildiradi: *ein Formular ausfüllen* (anketani to'ldirmoq), *ein Formular unterschreiben* (anketaga imzo chekmoq).

O'zbek tilidagi *formular* so'zi aynan yuqorida ta'kidlangan so'zning o'zlashmasi hisoblanadi va quyidagi ma'nolarga ega:

a) Biror inshoot, mexanizm va shu kabilarning holati va uni ishlatish bo'yicha ma'lumotlar batartib yozib boriladigan maxsus daftar yoki varaqa: *Mashina zavodidagi barcha mexanizmlar boshqarilishida ularning formularlari tayanch yordam bo'lin xizmat qiladi.*

b) Kutubxonalarda har bir kitob ichiga solib qo'yiladigan va shu kitob haqidagi asosiy ma'lumotlar yozilgan hisob varaqasi: *Kutubxonachi fondagi har bir kitobda formular shakllantirilishiga mas'ul bo'ldi.*

Analog misol tarzida *kitel* so'zini oladigan bo'lsak, bu so'z o'zbek tiliga nemis tilidagi *der Kittel*, ya'ni "ish kamzuli" so'zidan o'zlashgan bo'lib, asliyat tilidagi ma'nosidan farqli o'laroq quyidagicha ma'nolarga ega:

a) Xarbiylarning bir yoqlama tugmalanadigan tik yoqali rasmiy kiyimi: *Stul suyanchig'iga tashlab qo'yilgan kitel yelkasidagi pogon oydinda yaltiraydi (S. Axmad, o'ylar).*

Uning egnida kelishgan, yoqasi bo'g'iq kitel, boshida parrak va qanot belgisi taqilgan, gardishi tarang furajka (H. Nazir, So'nmas chaqmoqlar).

b) keying davrlarda ushbu o'zlashmaning qo'llanilish doirasi kengaygan, aktuallashtirilgan va hozirda *kamzul* yoki *kastyum* ma'nosida ham qo'llaniladi: *Talaba har doim bir xil kitelini kiygani kiygan.*

c) *kitel* atamasi *yomg'irpo'sh* ma'nosida ham ishlatiladi: *Yomg'ir sharros quygan pallada kitelimni olmaganimga afsus qildim.*

Nemis tilida „bayroq ko'taruvchi, bayroq ko'tarib turuchi odam“ ma'nosini bildiruvchi *der Flaggemann* so'zi o'zbek tiliga *flagman* shaklida o'zlashgan va ma'no jihatdan asliyat tiliga qaraganda ancha boyigan:

a) Flot yoki yirik harbiy kemalar qo'shilmasi qo'mondoni:

b) Qo'mondon joylashgan va uning bayrog'i ko'tariladigan kema:

c) ko'chma ma'noda: Ilg'or, yetakchi, bosh, asosiy, muhim: *Navoiy kon-metallurgiya kombinati O'zbekiston kimyo sanoatining flagmani (Gazetadan).*

Biz so'zlashuv nutqida tez-tez duch keluvchi papka so'zi ham tilimizga nemis tilidan o'zlashgan bo'lib, bu so'z o'zbek tilida nemis tilida anglatadigan ma'nosiga ko'ra kengroq tushunchalarni anglatadi. Nemischa die Pappe so'zi „muqova, o'ram sifatida foydalaniladigan qog'oz yoki shunga o'xshash material“ ma'nosini anglatadi, ona tilimizda papka so'zi quyidagi ma'nolarga ega: a)

qog'oz, xat, hujjat solib qo'yiladigan, karton, charm va shu kabilardan yasalgan jild yoki muqova: *Umid g'aladon ichidagi qora charm papkasini oldi. Uning boyadan beri nima bo'layotganiga hech aqli bovar qilmas edi (Mirmuhsin, Umid).*

b) Maktablarda o'quv qurollarini solish uchun mo'ljallangan, yelkaga osish uchun ikkita bandli bo'lgan sumka turi: *Maktabning ilk kunidayoq prezidentimiz tomonidan 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilarga o'quv qurollarini o'zida jamlagan papkalarining tuhfa etilishi o'quvchilarda ilm olishga bo'lgan shijoatni oshirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi (Gazetadan).*

Adabiyotlar ro'yxati

1. O. Jumaniyozov. "O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari".
2. Toshkent, 1987-yil.
3. Qarang: Ozbek tili leksikologiyasi.
4. «Ozbek tili va adabiyoti», 1982, 6-son.

SPORTCHINING RATSIONAL OVQATLANISH TAMOYILLARI, BOYITISH, OZUQAVIY QO'SHIMCHALAR VA ULARDAN FOYDALANISH

*G'ulomov Jahongir,
SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

*Xayitova Moxichehra
Ilmiy rahbar, Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali asistenti*

Annotatsiya. Sportchining yaxshi natijalarga erishishi uchun unga nafaqat motivatsiya, balki yuqori darajadagi chidamlilik ham kerak, bu uning ovqatlanishi qanchalik to'g'ri tashkil etilganiga bevosita bog'liq. Bu juda muhim, chunki zaiflashgan immunitet va sog'liq muammolari bilan tananing sportchilar boshdan kechirgan og'ir jismoniy zo'riqishlariga bardosh bera olmaydi. Oziqlanish tanani yaxshi holatda saqlashga va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Annotation. In order for an athlete to achieve good results, he needs not only motivation, but also a high level of endurance, which directly depends on how well his nutrition is organized. This is very important, because the body with a weakened immune system and health problems cannot withstand the heavy physical stress experienced by athletes. Nutrition helps to keep the body in good condition and achieve high results.

Аннотация. Чтобы спортсмен добился хороших результатов, ему необходима не только мотивация, но и высокий уровень выносливости, которая напрямую зависит от того, насколько правильно организовано его питание. Это очень важно, ведь при ослабленном иммунитете и проблемах со здоровьем организм не выдерживает тяжелых физических нагрузок, которые испытывают спортсмены. Питание помогает поддерживать организм в тонусе и достигать высоких результатов.

Kalit so'zi: Sportchi, ovqatlanish, vitamin, sabzavot, minerallar.

Key word: Athlete, nutrition, vitamin, vegetables, minerals.

Ключевые слова: Спортсмен, питание, витамин, овощи, минералы.

To'g'ri ovqatlanishni tashkil etish insonning qaysi sport turi bilan shug'ullanishiga bog'liq. Vujudga etarli miqdorda vitamin va minerallar kirishi juda muhim, bu nafaqat immunitetni himoya qilishni, balki tananing umumiy ohangini ham oshirishi mumkin. Shuni ham hisobga olish kerakki, jismoniy faoliyat ko'p miqdorda energiya talab qiladi, shuning uchun sportchining dietasining kaloriya tarkibini kuzatish muhimdir.

Sport bilan shug'ullanadigan odamlarning ovqatlanishiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- unda yetarli kaloriya bo'lishi kerak;

- tana suyaklar va mushaklar uchun zarur bo'lgan minerallarni, shuningdek, immunitet tizimining to'g'ri ishlashini qo'llab-quvvatlaydigan vitaminlarni albatta oladi;

- metabolik jarayonlarni faollashtiradigan maxsus faol qo'shimchalarni olish tavsiya etiladi;

- dieta sportchining maqsadi - vaznni kamaytirish yoki oshirishni hisobga oladigan tarzda rejalashtirilgan;

- ovqatlanish yog 'massasini kamaytiradigan va mushaklar darajasini oshiradigan tarzda tashkil etilgan.

Bundan tashqari, sportchilarning to'g'ri ovqatlanishini tashkil qilishda iste'mol qilinadigan suyuqlik miqdorini, xususan, toza ichimlik suvini hisobga olish kerak, ularning etishmasligi suvsizlanish, charchoq va mushaklarning spazmlariga olib kelishi mumkin. Va jismoniy faoliyat jarayonida tana suyuqlikni intensiv ravishda yo'qotadi, shuning uchun bu zaxiralarni to'ldirish juda muhimdir.

Sport o'ynashda juda muhim nuqta shundaki, mashg'ulotdan oldin murakkab uglevodlarga boy ovqatlar, keyin esa oddiy ovqatlar iste'mol qilish kerak. Ushbu moddalarning umumiy miqdori kilogramm vazniga 10 gramm bo'lishi kerak, ammo asosiy e'tibor [murakkab uglevodlar](#). Ularni ertalab iste'mol qilish yaxshidir, chunki kechqurun yuklar kamaytirilganda, uglevodlar yog'larga aylanishi mumkin.

Parhezshunoslar, sportchilarning ratsionida yog'larni iste'mol qilishni cheklash kerak, deb hisoblashadi. Biroq, ular me'yorida iste'mol qilinsa, hayot uchun zarurdir. Yog 'etishmasligi gormonal muvozanatga olib keladi, mushaklarning shakllanishi jarayonlarini yomonlashtiradi va immunitet tizimining faoliyatini kamaytiradi. To'yinmagan yog'lar organizmga vitaminlarni o'zlashtirishga yordam beradi, shuning uchun ular dietaga kiritilishi kerak. Bunday moddalar o'simlik yog'i, yong'oq, dengiz mahsulotlari va baliqlarda mavjud.

Sportchilarning ovqatlanishi

Katta jismoniy zo'riqishlarni boshdan kechirayotgan odamlarning ovqatlanishi oddiy odamning dietasidan sezilarli darajada farq qiladi, shuning uchun sportchilar o'z menyularini diqqat bilan rejalashtirishlari kerak. Buning asosiy jihatlari:

1. Oziq-ovqat to'liq, yangi va yuqori sifatli bo'lishi kerak. Siz faqat tanaga foyda keltiradigan mahsulotlarga tayanishingiz kerak, zarar etkazadigan mahsulotlar esa butunlay chiqarib tashlanishi kerak.

2. Sportchilarning ratsional ovqatlanishidagi oziq-ovqat miqdori.

Bu erda hamma narsa sport bilan shug'ullanadigan kishi boshdan kechiradigan jismoniy faoliyat turiga bog'liq bo'lishi kerak. Ba'zi odamlar mushak massasini olish uchun juda ko'p oziq-ovqatga muhtoj, boshqalari uni yo'qotishi kerak, shuning uchun ovqatlanish sezilarli darajada cheklanishi kerak. Ya'ni, mashg'ulotlarning maqsadlarini hisobga olish, sog'lom ovqatlanish rejasini tuzish kerak. Shunday qilib, sport bilan shug'ullanish tanani faqat mustahkamlaydi va uning ishini buzmaydi.

Parhezshunoslar va shifokorlar sportchilarga oz miqdorda, lekin tez-tez ovqatlanishni tavsiya qiladilar. Ya'ni kuniga 3-4 marta emas, balki 5-6 marta. Bu

mashg'ulotlardan oldin tanani ortiqcha yuklamaslikka va undagi doimiy energiya muvozanatini saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, shu tarzda, oziq-ovqat yaxshiroq so'riladi va tezroq, og'irlik va noqulaylik hissisiz qayta ishlanadi. Sportchilarning ovqatlanish xususiyatlarini ko'rib chiqing.

Sport dietasi variantlari

Yuqorida aytib o'tilganidek, ovqatlanish imkoniyatlari to'g'ridan-to'g'ri mashg'ulot rejimiga va jismoniy faoliyat turiga bog'liq. Bir kunlik sportchining dietasi taxminan 2500 kaloriya bo'yicha hisoblanadi, u quyidagicha ko'rinishi mumkin:

- qaynatilgan tuxum (2 dona);
- yog'siz tvorog (150-200 gramm);
- sutda qaynatilgan jo'xori uni, bir qoshiq zaytun moyi qo'shilishi bilan;
- bir bo'lak non;

Tushlik:

- mevalar (masalan, 1 banan va olma);
- kam yog'li yogurt (20 gramm);
- bulochka.
- sutli karabuğday pyuresi;
- ikkita tuxumdan tayyorlangan omlet;
- sabzavotli salat (200 gramm);
- butun donli non (2-3 dona);
- kam yog'li pishloq (40-60 gramm);
- bir stakan choy.
- yog'siz tvorog (100 gramm);
- meva yoki rezavorlar bilan karabuğday pyuresi (200 gramm);
- bir stakan apelsin sharbati (siz boshqa har qanday foydalanishingiz

mumkin).

- yangi meva yoki sabzavotlar (300 gramm);
- kepak noni (2-3 dona);
- bir stakan kefir yoki sut.

Yotishdan oldin sportchilarga olma yeyish yoki bir stakan shakarsiz choy ichishga ruxsat beriladi.

Quyida 3500 kaloriya uchun mo'ljallangan dieta mavjud:

- jo'xori uni (300 gramm);
- 4 dona tuxumdan tayyorlangan omlet;
- tostlar (2 dona);
- Apelsin.

Tushlik:

- bir stakan yogurt (har qanday yog 'tarkibida);
- banan (2 dona);
- yong'oqlar (100 gramm).
- qaynatilgan mol go'shti (300 gramm);
- qaynatilgan kartoshka (3-4 dona);

- sabzavotli salat (200 gramm);
- sharbat yoki choy.
- qaynatilgan guruch (200 - 250 gramm);
- mevali salat (150 gramm);
- bir stakan sut.
- qaynatilgan baliq (250 gramm);
- kartoshka (4 dona);
- o'simlik yog'i (130 gramm) qo'shilishi bilan maydalangan sabzidan tayyorlangan salat;
- choy yoki sharbat.

Yotishdan biroz oldin siz bir piyola jo'xori uni eyishingiz yoki bir stakan sut ichishingiz mumkin. Har bir sportchiga mos keladigan parhez, ehtimol, hali biron bir ovqatlanish mutaxassisi tomonidan tuzilmagan. Buning sababi shundaki, har bir sportchi qaysi sport turi bilan shug'ullanishi, qaysi vazn toifasiga mansubligi va sport bilan shug'ullanayotganda qanday maqsadlarni ko'zlashiga qarab o'ziga mos keladigan o'ziga xos ovqatlanish dasturiga muhtoj. Biroq, ro'yxat mavjud [umumiy tavsiyalar](#), bu istisnosiz hammaga mos keladi, ular o'zingizni yaxshi holatda saqlashga va o'z tanangizga zarar bermaslikka yordam beradi.

1. Ovqatlar xilma-xil va sifatli. Shu bilan birga, sportchilar uchun oziq-ovqat mahsulotlari mos bo'lishi kerak, chunki ularning ba'zilarini birgalikda assimilyatsiya qilish mumkin emas.

2. Oziq-ovqat sog'lom bo'ladigan tarzda tayyorlanishi kerak. Tayyorlangan idishning yog 'miqdori bunga bog'liq bo'lib, bu ruxsat etilgan me'yorlardan oshmasligi kerak.

3. Fraksiyonel ovqatlanish. Siz dietangizni 6-7 ta taomga bo'lishingiz mumkin, bu esa uni so'rib olish va imkon qadar ko'proq foyda olish imkonini beradi.

4. Oxirgi ovqat yotishdan ikki soat oldin bo'lishi kerak, aks holda yog'lar va uglevodlar tanadagi kiruvchi konlarga aylanadi.

5. Faqat ovqatdan oldin tayyorlangan yangi ovqatlarni iste'mol qiling. Shunga ko'ra, dietadan tez ovqatlanish va har xil turdagi yarim tayyor mahsulotlarni chiqarib tashlash kerak.

Biz har kuni sportchilar uchun ovqatlanishni ko'rib chiqdik.

Ishlash, tiklanish va moslashuvchan reaksiyalarni rag'batlantiradigan turli xil moddalardan foydalanishning butun tizimi qurilgan asos sportchining ratsional ovqatlanishi.

Oziqlanish ko'p jihatdan sportchilarning ishlash darajasini, tiklanish jarayonining samaradorligini va mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklar bilan rag'batlantirilgan moslashuvchan reaksiyalarni belgilaydi. Oziq-ovqat talablari sportchining yoshiga bog'liq. Intensiv o'sish davri (erkaklar 12-22 yosh, ayollar - 11-19 yosh) oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq.

Kun davomida ovqatlanish

Kun davomida iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning optimal taqsimlanishi ham muhimdir. Masalan, kuniga 5 marta ovqatlanish bilan 5500 kkal iste'mol qilish uchun mo'ljallangan sportchining optimal dietasi quyidagicha: nonushta - 1200 kkal, ikkinchi nonushta - 900, tushlik - 1500, kechki ovqat - 1100, gazaklar, ichimliklar - 800 kkal.

Mutaxassislar sportchilarning ovqatlanishini o'z mohiyatiga ko'ra tiklovchi va moslashuvchi jarayon sifatida ko'rib, kun davomida oziq-ovqat yukini to'g'ri taqsimlashga, uning mashg'ulot va raqobatbardosh yuklamalar bilan bog'lanishiga, oziq-ovqat iste'molining tez o'zlashtirilishini ta'minlashga katta e'tibor beradi. Yuqori mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklar sharoitida kun davomida bir necha marta ovqatlanish (3-4 asosiy va 2-3 qo'shimcha porsiya) eng samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, oziq-ovqatning asosiy miqdori kunduzi va tungi uyqudan 3-4 soat oldin olinishiga e'tibor berish kerak.

Sportchilar uchun u o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular sport o'ynash jarayonida sezilarli jismoniy zo'riqish va yuqori neyropsik stress bilan bog'liq bo'lib, bu chidamlilik va ish faoliyatini oshiradigan vositalar to'plamidan foydalanishni talab qiladi. Va bu erda ratsional ovqatlanish muhim rol o'ynaydi.

Sport bilan shug'ullanadiganlar, oziq-ovqat bilan muntazam ravishda intensiv mashg'ulotlar paytida kuniga 4200 - 5500 kkal olishlari kerak. Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining Oziqlantirish instituti intensiv sport mashg'ulotlarida kunlik energiya iste'molini aniqladi: ayollar uchun 3000 - 6000 kkal, erkaklar uchun - 3500 - 6500 kkal. Agar istisno holatlar mavjud bo'lsa, masalan, marafonda qatnashish, velosipedda yurish, kunlik iste'mol 7000 - 8000 kkalgacha oshishi mumkin.

Sportchilarning ovqatlanishi boyitilgan bo'lishi kerak va chunki tananing ularga bo'lgan ehtiyoji intensiv mushak ishi bilan ortadi.

Sportchilar uchun uchta turdagi ovqatlanish mavjud:

1. Oddiy mashg'ulot paytida ovqatlanish. Oziqlanishning asosiy turiga ishora qiladi va tanani uglevodlar va oqsillar bilan ta'minlaydigan ovqatlarni o'z ichiga oladi. Dana, mol go'shti, cho'chqa go'shti, kam yog'li qo'zichoq, quyon, tovuqni tavsiya eting. Ratsionga har kuni yangi meva va sabzavotlarni kiritish tavsiya etiladi, buning natijasida kunlik energiyaning kamida 15-20% ni ta'minlash kerak.

2. Intensiv mashg'ulotlar va musobaqalar paytida ovqatlanish. Ushbu davrda dudlangan va yog'li go'sht, qizarib pishgan ovqatlarni iste'mol qilishni cheklash kerak, [tuzlangan karam](#), dukkaklilar va boshqalar.

3. Uzoq muddatli sport musobaqalari sharoitida ovqatlanish (masofada). Ushbu turdagi ovqatlanish bilan shakar va glyukozani boshqa oziq moddalar bilan birgalikda yoki uning sof shaklida olish kerak, qo'shimcha ravishda shokoladni, ayniqsa uning maxsus namunalarini iste'mol qilish kerak, unda shakar glyukoza bilan almashtiriladi. Yuqori yuklanish davrida bu sportchining tanasini ovqat hazm qilish tizimining og'ir mehnatisiz metabolizmga kiritilgan oson va tez hazm bo'ladigan moddalar bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, yurak mushaklarining ish

qobiliyatini tiklash va jigarda yog 'birikmalarining oldini olish uchun musobaqa tugagandan so'ng glyukoza va shakarni iste'mol qilish foydalidir.

Sportchining ovqatlanishini tashkil etish jismoniy faoliyat turiga qarab belgilanadi.

Sportchining dietasi

Sportchi uchun parhez katta rol o'ynaydi. Mashg'ulot mehnat bilan birlashtirilgan kunlarda u umumiy fiziologik tamoyillarga asoslanadi, mashg'ulotning tugashi va ovqatlanish o'rtasida 15-20 daqiqalik interval kuzatiladi. Siz och qoringa mashq qilishni boshlay olmaysiz, ammo sport mashg'ulotlaridan oldin darhol ovqat iste'mol qilish ham zararli.

Yig'inlar davomida kuniga to'rt marta ovqatlanish tavsiya etiladi. Agar mashg'ulot kunning birinchi yarmida amalga oshirilsa, nonushta dietaning kunlik energiya qiymatining 30-35% ni, tushlik uchun - 35-40%, tushlik uchun - 5%, kechki ovqat uchun - 25% ni tashkil qiladi. - 30%.

Qoida tariqasida, sportchilar ertalabki mashg'ulotlarni nonushtadan bir yarim-ikki soat o'tgach boshlaydilar. Shuning uchun, agar nonushta mo'l-ko'l va zich bo'lsa, uzoq vaqt talab qilinadi - 3-4 soat, ovqat hazm qilish tizimi organlarining funktsional holati buziladi va jismoniy ko'rsatkichlar pasayadi.

Bu fiziologik jarayonlar bilan bog'liq: qonning ovqat hazm qilish va assimilyatsiya jarayoni sodir bo'lgan ovqat hazm qilish organlari va muhim jismoniy ishlarni bajaradigan skelet mushaklari o'rtasida taqsimlanishi. Bir tomondan, jismoniy mehnat ovqat hazm qilish jarayonini sekinlashtiradi, boshqa tomondan, ovqat hazm qilish jarayoni ANS ning simpatik markazining (vegetativ asab tizimi) faoliyatini kamaytirishga yordam beradi, uning faoliyati asosan asab tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi. mushaklar.

Agar mashg'ulot kunning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa, unda foizlar o'zgaradi: nonushta uchun 35 - 40%, tushlik uchun 30 - 35%, tushdan keyin choy uchun 5%, kechki ovqat uchun 25 - 30%.

Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining Oziqlantirish instituti har bir taomning energiya qiymati kunlik ratsionning 10% gacha, dietani taqsimlash bilan restorativ vositalarni (mashqdan oldin va keyin) qo'shgan holda besh marta ovqatlanishni tavsiya qiladi. quyidagicha - nonushta uchun 25%, tushlik uchun 35%, kechki ovqat uchun 20% .

Qanday bo'lmasin, ovqatlanish oralig'i besh soatdan oshmasligi kerak va musobaqa kuni ular boshlanishidan uch yarim soatdan kechiktirmay ovqatlana olmaysiz.

Qattiq mashg'ulotlardan keyin qon aylanish funktsiyasi tiklanishi uchun mashg'ulotlar va keyingi ovqat o'rtasidagi vaqt oralig'i o'ttiz-qirq daqiqaga yetishi kerak. [jismoniy faoliyat](#), va ishda ishtirok etadigan skelet mushaklaridan ovqat hazm qilish organlariga qonning qayta taqsimlanishi sodir bo'ldi.

Shunday qilib, sportchi uchun parhez o'ziga xos xususiyatlarga ega va ularni hisobga olgan holda, harakatlar uchun amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Material Platonov V. N. Olimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlash tizimi
2. Rajamurodov Z. T. , Rajabov A. L. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" T. : Tib. Kitob. 2010 y.
3. Nuriddinov. E. N. "Odam fiziologiyasi" T. : "A'loqachi" 2005 y.
4. Almatov K. T. , Allamuratov. Sh. I. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" T. : Universitet. 2004 y.
5. Xudoyberdiev. R. E. , I. K. Axmedov. "Odam anatomiyasi" T. : "Ibn Sino" 1993 y.
6. Ahmedov. A. "Odam Anatomiyasi" T. : "Iqtisod moliya" 2007 y.
7. R. Boxodirov "Odam anatomiyasi" T. : "O'zbekiston", 2006 y.
8. K. Axmedov "Atlas odam anatomiyasi" T. : "Uzb. Milliy ensiklopediyasi"1998y.
9. Human Anatomy and Physiology. Nega Assefa Alemaya University Yosief Tsige Jimma University. In collaboration with the Ethiopia Public Health Training Initiative, The Carter Center, the Ethiopia Ministry of Health, and the Ethiopia Ministry of Education 2003.

KASB-HUNAR MAKTABIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING O'QITILISHI HAMDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI

Bulayeva Marhabo Muhammadiyevna
Samarqand viloyati Kattaqurg'on tuman
2-son kasb-hunar maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Badiiy adabiyotning yoshlar ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etishini ko'zda tutgan holda ushbu maqolamizda hikmatlardan tahlillar berilgan. Yoshlarga berilayotgan e'tibor va shu sohada qabul qilingan qonun va qarorlar keltirilgan. Yosh avlod tarbiyasida ustozlarning mas'uliyati zarurligi yoritilgan. Darslarda hikmatlardan foydalanish natijasi haqida tavsiyalar berilgan. Kitob o'qish foydali ekanligi ta'kidlangan. Badiiy asarlardan foydalanish orqali, ayniqsa, hikmatlar orqali o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish va ularga ruhiy quvvat berish mumkinligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ozuqa, ijodkorlik, ruhiy quvvat, yoshlar tarbiyasi,*

Annotation. In view of the positive impact of literature on the spirituality of young people, the analysis of proverbs as a continuation of the previous ones is given in this article. The attention given to young people and the laws and decisions adopted in this area. The need for the responsibility of teachers in the education of the younger generation is highlighted. In the lessons, recommendations were made about the result of the use of proverbs. It is noted that reading a book is useful. Through the use of literature works, especially through proverbs, it is mentioned that it is possible to raise the morale of students and give them spiritual strength.

Keywords: reading culture, spiritual feed, creativity, spiritual power, youth education

Аннотация. Ввиду положительного влияния литературы на моральное состояние молодежи в данной статье дается анализ пословиц как продолжение предыдущих. Внимание, уделяемое молодежи, а также законы и решения, принятые в этой связи. Было отмечено, что ответственность учителей в воспитании подрастающего поколения необходима. Были даны рекомендации по результату использования пословиц на уроках. Отмечается, что чтение книги полезно. Из литературных произведений говорится, что можно поднять мораль студентов, придать им духовных сил, особенно за счет использования пословиц.

Ключевые слова: культура чтения, духовная подпитка, творчество, духовная сила, воспитание молодежи

Badiiy adabiyotdan bahramand bo'lish, ayniqsa, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumi, Navoiy, Bobur kabi mumtoz

adabiyot vakillari asarlarini o'rganish yosh avlod ma'naviyatining yuksaltirish uchun zamindir!

Bugungi kun talabi yoshlar ma'naviy dunyosini yuksaltirish hamda bu borada yurtimizda qator mazmunli ishlar olib borilganligi tahsinga sazavordir. Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun («Xalq so'zi» gazetasining 2016-yil 15-sentabridagi 182 (6617)-sonida e'lon qilingan), «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi 2017-yil 13-sentabrda e'lon qilingan qarori va yoshlarni tarbiyalash yo'lidagi beshta muhim tashabbus yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga molik bo'ldi.

Kitobga ko'ngil qo'ygan, badiiy adabiyotdan ozuqa olgan, ilmi, dunyoqarashi keng insonlar hayotda doimo ilg'or va boshqalar uchun yo'l boshchi bo'lganlar. Adabiyot fanining maktablarda o'qitilishidan maqsad o'quvchi yoshlarni ezgulikka chorlash, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usini shakllantirishdan iborat. Bu degani o'quvchilarga insoniy fazilatlarini singdiruvchi, ma'naviy-ruhiy ozuqa beruvchi, ijodkorlikka, ixtiro qilishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiruvchi omil sifatida adabiyot fani hayot bilan hamnafas yashashga undovchi fandır.

Albert Eynshteynning quyidagi fikrlariga e'tiboringizni jalb qilmoqchiman: "Men aql egalari bo'lgan matematiklar oldida bosh egaman, lekin ko'ngil egalari bo'lgan adabiyotchilar oldida tiz cho'kaman".

Turli davrlarda turli elatlarda olimlar tomonidan kitob o'qishning foydali xususiyatlarini tadqiq etib kelishgan: jumladan, mutolaa asabni tinchlantiradi, miya faoliyatini yaxshilaydi, qalbni yumshatadi, chet tillarini o'rganishni osonlashtiradi, muomala madaniyatini rivojlantiradi, so'z boyligini oshiradi, tinglash qobiliyatini shakllantiradi, ijodkorlik xususiyatlarini yuzaga chiqaradi va h.k.z. Shunga qaramay tez sur'atlarda rivojlanayotgan texnika asrida vaqt tezlashib ketganligi, turli manbalarning: mobil aloqa, kompyuter, internet kabi yoshlar qiziqishini oshiruvchi texnikalar ko'pligi uchun kitobxonlik sezilarli darajada susayganligining guvohi bo'lyapmiz. Kitobxonlik madaniyatini oshirish dolzarb muommalardan biriga aylanganligi bois, biz ta'lim posbonlari zimmamizga yuklangan katta mas'uliyat bilan yoshlarga o'rnak bo'lishimiz, kelajak yoshlarining yo'lini yorituvchi nur bo'lib xizmat qilishimiz zarur.

Dars va ma'naviyat majlislarida hikmatli so'z, ibratli aforizm va motivatsiya beruvchi fikrlardan foydalanishni, bu bilan o'quvchilar ruhiyatini o'stirish va ezgulikka chorlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz darkor. Bu maqsad, albatta, o'quvchilar o'qishi, ijodkorligining o'sishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu o'rinlarda Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro, Navoiy kabi o'zbek adabiyotining buyuk nomoyondalari ijodidan foydalanishni tavsiya etishim mumkin. Menimcha, bu donishmand

ijodkorlar ijod namunalaridan adabiyot, tarix fani o'qituvchilari o'rinli foydalana olishadi, albatta.

Quyida foydalanish uchun hikmatlar namunalaridan keltirmoqchiman.

Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, ahloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug'laydi. Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir.

Adib o'quv va bilimni farqlaydi: o'quv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,

Bilim kimda bo'lsa, buyuklik oladi.

Zakovatli uqadi, bilimli biladi,

Bilimli, zakovatli tilakka etadi.

Yusuf Hos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bir necha san'at turlarini va hunarlarni tugal o'rganmog'i lozimligini ta'kidlaydi, bu-ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Alloma farzandlarga turli bilim va hunarlar o'rgatilmog'i kerakligini aytib, ularni go'zal ahloqli qilib, voyaga etkazishni ota-onalarga maslahat beradi: Hudo kimga zakovat, aql, bilim bersa, U barcha orzularga qo'l uzatadi.

Kimning hulqi yahshi, fe'l-atvori to'g'ri bo'lsa, U tilagini topadi, kun va oy unga boqadi.

Kitob o'qish, aql va tarbiya masalalariga oid hikmatlarni o'quvchilarimizga ko'proq aytishimiz joyizki, quloqlari shunaqa tarbiyaviy ahamiyatli gaplarga o'rgansin. Bu hikmatlarni o'quvchilarga tahlil qildirsak esa o'z fikrlari kabi ongida muhrlanadi deb o'ylayman.

Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay.

Imom al-Buxoriy

Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar.

Hadis

Agar yolg'iz esang, hamdam kitobdur,

Bilim subhidagi nur ham kitobdir.

Kim hunarni desa, u dono bo'lur, nodonlar qudrat deb boylikni bilur.

Abdurahmon Jomiy

Kimki o'rganishni uyat, or demas,

Suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos.

Nizomiy Ganjaviy

Men olimlarga, ilohiyotchilarga, faylasuflarga va tarixchilarga hurmat – ehtirom ko'rsatdim. Men ularni hurmat qildim va e'zozladim.

Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat – ibodatdan afzal.
Amir Temur

Ishga yarab qolsa ilming bir muddat,
Yana oshirmoqqa aylagil shiddat
Mirzo Ulug'bek

Madaniy jamiyat shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo'ladi, har Kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar.

Bilim, ma'rifat yaxshi axloq bilan bezanmog'i lozim.
Abu Nasr Forobiy

Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birining o'rnini egallab boradigan avlodlar zinadan zinagagina ko'tariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir avlod o'zidan keyin kelayotgan, o'zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga etkazib beradi.

Abu Rayxon Beruniy

Harakat zaif bo'lgan joyda, kuchli bilim foydasizdir. Harakatsiz bilim – ipsiz kamon o'qidir.

Har qanday mushkul ish aql egalari tufayli isloh qilinur.
Az-Zamaxshariy

Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik – zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoe ketkazma.

Alisher Navoiy

Yomonlik – butun nuqsonlar majmuidir. Dunyoning ishlari siyosatsiz tartibga tushmaydi. Agar ta'lim tarbiya va jazo to'g'risida qonun-qoida bo'lmasa, mamlakat ishlari buziladi.

Husayn Voiz Koshifiy.

Ilm namoyondalariga baxillik qilma, zero ilm xazinadirki, undan qancha foydalansang ham boylikdan farkli o'laroq, baribir ko'payib boraveradi.

Oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-xushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir.

Majid Xavofiy

Aflotundan so'radilar: o'qish-o'rganish tokaygacha izzat va hurmatda bo'lg'usi? U javob qiladi: johillik nuqson deb hisoblangunga qadar.

Jaloliddin Davoniy

Insonning qimmati emas siymu zar.

Insonning qimmati ilm ham hunar.

Bedil

Maktab – dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy ma'nosini bilgan millatlar jonlari, mollari bilan himmat va g'ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiyi rivojiga ijtixod qilurlar.

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur.

Mahmudxo'ja Behbudiy

Hayot yo'lida birinchi masala – maktab masalasidir.

Abdurauf Fitrat

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur.

Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-iridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir.

Abdulla Avloniy

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir.

Abdulla Qodiriy

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab avlodlarga etkazadi.

Oybek

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, badiiy asarlarni o'qish inson uchun ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda o'quvchilarga o'rnak bo'lishimiz, ularning kitob o'qish madaniyatini shakllantirishimiz, ibratli hikmatlar orqali o'quvchi ongiga ta'sir eta olishimiz lozim. Har bir dars ma'naviyat daqiqasida 5-10daqiqalik ezgulikka chorlovchi, hayotbaxsh hikmatlar orqali o'quvchi qalbiga yo'l topib, shijoatli va maqsadga intiluvchanlik ruhini singdirish biz-pedagoglarning oldimizdagi asosiy vazifalarimizdan biri deb o'ylayman. Ushbu maqolamizni o'qigan

hamkasblarimizda o'quvchilar ma'naviyatini kamol toptirish yo'lida yangi g'oyalar va fikrlar uyg'onishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilovov, I.Saydullayev.-T.: "Sano-standart"2016.
2. Alisher Navoiy. Aforizmlar.Toshkent-1961
3. "Pedagogik mahorat" A.Xoliqov Toshkent 2011
4. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: 2003
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy Al-jomi' as-sahih. 4-jild.-Toshkent, 1997.
6. Alisher Navoiy. Asarlar. 15-tom.-Toshkent, 1968.
7. Alisher Navoiy . Mukammal asarlar to'plami. 14-tom.Toshkent, "Fan", 1998.
8. Ahloq-odobga oid hadis namunalari.-Toshkent, 1990.

JAHON ADABIYOTIDA ILMIY-FANTASTIKA JANRI VA YO'NALISHLARI

Tohirova Umida Akramovna
Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya. Ilmiy-fantastika janri fantastikaning bir yo'nalishi hisoblanib, nafaqat adabiyotda balki san'atning boshqa turlarida ham, xususan kinematografiya sohasida ham juda ommalashgan. Fantastika janri xayoliy g'oyalarga asoslanadi, lekin bunday g'oyalar ilm fan doirasida aniq fanlar, tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlarga asoslansa, o'z izohini topa bilsa buni bemalol ilmiy fantastika deb atay olamiz. Ilmiy fantastika – ilm fan sohasidagi izlanishlarga asoslanib, yirik kashfiyotlarning paydo bo'lishi, tabiatning yangi qonuniyatlarini ochish va hattoki jamiyatning yangi modellarini yaratish kabi yangiliklarni qamrab oladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-fantastika, texnologiya, ilm-fan, paradox, utopiya, g'oya, zamon, evolutsiya, renessans.

Аннотация. Жанр научной фантастики считается направлением художественной литературы и пользуется большой популярностью не только в литературе, но и в других видах искусства, особенно в области кинематографии. Жанр фэнтези основан на воображаемых идеях, но если такие идеи основаны на точных науках, естественных науках и социальных науках и могут найти собственное объяснение, мы можем смело назвать это научной фантастикой. Научная фантастика — основана на исследованиях в области науки, включает в себя такие новости, как появление крупных открытий, открытие новых законов природы и даже создание новых моделей общества.

Ключевые слова: фантастика, техника, наука, парадокс, утопия, идея, время, эволюция, ренессанс.

Abstract. The genre of science fiction is considered a direction of fiction and is very popular not only in literature, but also in other types of art, especially in the field of cinematography. The genre of fantasy is based on imaginary ideas, but if such ideas are based on exact sciences, natural sciences and social sciences, and can find their own explanation, we can easily call it science fiction. Science fiction - based on research in the field of science, includes news such as the emergence of major discoveries, the discovery of new laws of nature and even the creation of new models of society.

Key words: science fiction, technology, science, paradox, utopia, idea, time, evolution, renaissance.

Ilmiy-fantastika ilm-fan sohasidagi yangiliklar, yangi texnologiyalarning kashf etilishi, ularning g'aroyib imkoniyatlari, insoniyatga ijobiy va salbiy tomonlama ta'siri, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan paradokslarni o'rganadi.

Shuningdek, bu janr ilmiy tasavvurlarni uyg'otib, kelajak haqida, ilm fanning naqadar kuchli imkoniyatlari haqida o'rganishga majbur etadi.

Bu masalaga yanada kengroq qaraydigan bo'lsak, bu yo'nalish ilmiylikka asoslanadi, shuningdek, ertakona, afsonaviy g'oyalardan yiroq turgan holda, undagi voqea hodisalar ilohiy yoki qandaydir mo'jizaviy tushuntirishlarni emas, balki ilmiy isbotlangan asoslarni talab etadi.

Hozirgi kungacha ilmiy fantastikaning tematik kenligi, yondashuvlar ko'lami quyidagi mavzular bilan chegaralanib qolgan:

Kosmosga sayohat – ushbu yo'nalishda yozuvchilar quyosh tizimiga yaqin bo'lgan sayyoralar va ularga amalga oshirilgan parvozlar haqida yoki sayyoramizga yaqin bo'lgan yulduzlar haqida yozishadi. Shuningdek, bu mavzu doirasidagi asarlarda yerliklarning turli sayyoralarni egallab olishlariga doir sarguzashtlar yoritib beriladi.

Vaqt mashinasi bilan sayohat mavzusi ilmiy fantastikaning eng ommalashgan mavzulardan biri hisoblanib, bunda vaqt mashinasi ixtiro qilinadi va kelajakka yoki insoniyat tarixiga nazar solinadi.

Parallel olamlar haqida shu uslubda yaratilgan asarlarda parallel bo'lgan olamlar, sayyoralar haqida yoziladi. Mazkur olamlarning turli-tumanligi va kelib chiqish tarixini yozish fantastikada yana bir yo'nalish – tarixiy fantastikani yaratilishiga asos bo'ldi.

Evolyutsiya yoki insoniyatning mutatsiyaga uchrashi – bu mavzudagi asarlarda kelajakda insoniyatning ilohiy, mo'jizaviy qudratga ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi shuningdek, psixologik-telepatiya va prokinez hodisalari tasvirlanadi.

Keyingi yo'nalishda jamiyatni yangicha modellashtirish g'oyasi asosiy o'rin tutadi. Bu mavzuda yaratilgan asarlarning eng mashxuri Tomas Morning “Utopiya” romani hisoblanadi. Mazkur asarda turli ijtimoiy muammolarning yechimini ko'rsatish uchun ideologik jamiyat tasvirlangan. Bunday asarlar sirasiga turli jamiyat shakllari haqidagi hikoyalar, hozirgi kunda, zamonaviy jamiyatimizda, mavjud lekin Yerning izolyatsiya qilingan qismlarida: Tibetdagi vodiylarda, Tinch okeanining chekka orollarida sodir bo'ladi. Bunday adabiy asarlarni kreptio-tarixiy asarlar deb nomlanadi, bunda zamonaviy qandaydir sirli kuchlar ta'sirida rivojlanadi.²

Ilmiy fantastika janrining bosh obrazi doim taraqqiy etuvchi, rivojlanuvchi inson timsolidir. Bu qahramon evolyutsion rivojlanuvchi, taraqqiy etuvchi hisoblanadi.

Ko'pchilik adabiyotshunoslar tahlillariga binoan ilmiy fantastika janri ilk marotaba amerikalik yozuvchi Edgar Allan Po asarlarida ko'zga tashlangan. Uning ba'zi hikoyalari konseptual asosga ega, ya'ni inson faqat o'zi egallagan bilimlari yordamida tabiatning tushunarsiz, noaniq qonuniyatlarini ocha oladi. Uning bu qarashlari “Gans Haolyaning sarguzashtlari” nomli asarida o'z aksini topgan.

² Чернышева. Т. Научная фантастика и современное мифотворчество И.: “Наука”. 1989. – Стр. 25-27

Jahon adabiyotida birinchi professional fantast yozuvchi Jyul Vern hisoblanadi. Uning mashhur asarlari “Havo sharida besh hafta”, “Yer markaziga sayohat” kabilarning adabiyot ommasiga havola etilishi bilan ilmiy fantastika janri ham adabiyot olamida bir vaqtda paydo bo’lgan deb aytiladi. Yevropa davlatlarida Jyul Vernning asarlari juda kata shuxrat qozondi. Uning adabiy qarashlari, adabiy elementlari reallikka “jyul verncha” yondashish yoki ilm fanni hamma narsaga qodir deb qarash kabi g’oyalarini yevropalik yozuvchilar o’z asarlarida qo’llashgan.

XIX asrning 20-yillarida iste’dodli ingliz yozuvchisi Gerbert Uells ilmiy fantastika sohasida katta burilish qildi. U jyul verncha qarashlarga, ijobiy optimistik yondashuvlarga pessimistik ruh olib kirdi. Uning ijodining birinchi pallasida chop etilgan “Vaqt mashinasi”, “Doktor Maro oroli”, “Ko’rinmas odam” va “Omlar jangi” kabi asarlari ilmiy fantastika janrining rang-barangligini yanada boyitdi.³

Hozirda bu yo’nalishning ijodkorlari asarlarida nafaqat Uellsning yoki Vernning g’oyalarini balki o’zlarining boy, har xil g’oya va qarashlarini zamon ruhiga moslashtirib olib kirdilar. XX asrning boshlarida ijod qilgan yozuvchilarning asarlarida bizga parallel bo’lgan omlar haqida yoki mutantlar haqida yozish keng tarqaldi.⁴

1926-yilda “Amazing stories” jurnalining chiqishi ilmiy fantastika yo’nalishida tubdan burilish yasadi. Bu jurnalning muharriri Xyugo Gernsberg bo’lgan. Uzoq vaqt mobaynida aynan shu jurnal jahon fantastikasida haqiqiy bayroq bo’lib kelgan. A.Azimovning hikoyalari mazkur jurnalda birinchi bo’lib chop etilgan.⁵

1920-yillarga kelib, fantastik adabiyotda uchta asosiy yo’nalish ustunlik qildi: fantastika, ilmiy fantastika va “qo’rqinchli” adabiyot. Bu janrlar uchun maxsus jurnallar chop etila boshlandi. “Amazing stories” jurnali faqat ko’ngilochar ilmiy fantastik asarlarni chop etgan bo’lsa, AQShda yana bir mashhur jurnal “Wizard tales” paydo bo’ldi.

1930-yillarni ilmiy fantastikaning “oltin davri” deb atashadi. Bunday nomga loyiq bo’lgan asarlar “Astounding science fiction” jurnalida chop etila boshlandi. Bu jurnalning muharriri Kampbellning xizmatlari tufayli bu yo’nalish ilmiylikka asoslandi va adabiyotning g’oyaviyligiga, ilmiy bilimlarning ommaviyligiga asoslandi.

Yevropada bu janr tug’ilgan bo’lsada, biroq bu davrda biroz oqsadi. Bir nechta fantastik asarlar paydo bo’lgan bo’lsada, bular kitobxonlar orasida katta shuhrat qozonmagan. Bu davrning jahonga mashhur mualliflari J.Roni – Fransiyada, G. Evers va E.Kisha – Germaniyada, K. Chapeka – Chexoslavakiyada ijod qilishgan.

³Sterling, Bruce. Science fiction in Encyclopedia Britannica 2008

⁴Осипова. Н. Фантастикаот «А» до «Я» М.:1999 – Стр.198.

⁵Vanspankeren, Kathryn. Outline of American Literature – P.: Washington, 2006. – P.60-62.

Bunday qarashlarning chegaralanganligiga qaramasdan, muharrirlar fantastik adabiyotning gullab yashnashiga xizmat qilishdi. Shu davrni ingliz adabiyotida “oltin davr” deb atasak bo’ladi. “Astounding science fiction” jurnalining muharrirlari P.Xaylayn, T.Starjon, A.E.Van Vogt, L.Del-Rey kabi mualliflarni ijod sahnasiga chiqishiga katta yordam bergan.⁶

Buyuk Britaniyada ham bunday jarayonlar davom etgan. Adabiyotda bu harakat “Yangi to’lqin” deb atalgan. Bu harakatning ilk mualliflari D.Ballrad, D.Banner Angliyada, S.Dilini, T.Disha, X.Ellison, N.Spinrad kabilar AQShda ijod qilishgan. “Yangi to’lqin”ning yanada yorqin tarafdorlari ilmiy fantastika taraqqiyotida judayam radikal o’zgarishlarni kiritishdi. Hattoki ular ilmiy fantastikani yangicha nomlashni taklif qilishdi. “Yangi to’lqin” ideologiyasi faol ravishda adabiyotning turli yo’nalishlarida zamonaviy yutuqlarini va uning eng oxirgi va avangard yo’nalishlarni o’zlashtirishdi.⁷

Bu harakatning tarafdorlari yangi tajribalar o’tkazishga, ularni asarlarida ifodalashga juda moyil edilar.Garchand, bu oqimning ijodkorlarining uslubi judayam keskin ko’rinsada, “Yangi to’lqin” inqilobiy hodisa bo’lib qolaverdi. Mazkur oqim ko’plab katta avlod yozuvchilarini mobillashishga, raqiblarning usullarini o’zlashtirishga, g’oyalar xilma-xiligini boyitishga majbur qildi.

“Yangi to’lqin”dan so’ng ingliz adabiyotida qalam tebratuvchi har bir ijodkor o’z asarida ilmiy fantastik g’oyalarni ifodalalar ekan, ijod namunasining uslubiga va adabiy tuzilishiga alohida e’tibor berdi. Garchi “Yangi to’lqin” shovqinli va inqilobiy harakat bo’lsada, 1970-yillarning boshida bu harakat o’zidan sezilarli darajada katta o’zgarishlarni qoldirdi. Shundan so’ng adabiyotshunoslarning bu janrga nisbatan munosabatlari ham o’zgardi. Endilikda jahon adabiyotida yozuvchilar ilmiylik g’oyasini xuddi maqsad deb emas, balki adabiy usul sifatida ishlatishga harakat qilishdi.⁸

1980-yillarning boshlariga kelib, ilmiy fantastikada gumanitar g’oyalar shakllana boshlandi. “Yangi to’lqin” harakatiga nisbatan yanada keng tarmoqli, xilma-xil yo’nalishga aylandi. Endilikda yozuvchilar o’z ishlarida insoniyatning ruhiy olamiga e’tibor bera boshlashdi, uning ichki olamidagi o’zgarishlarni tasvirlashga intilishdi. Bu yozuvchilar bir fikrda qat’iy turdilar: “Atrof muhitdagi istalgan transformatsiyalarga qaramasdan, insondagi yaxshi sifatlar o’zgarmaydi”. Judayam optimist ruhdagi gumanitar ilmiy fantastika yo’nalishi mustahkam harakatga aylanmadi, unga bo’lgan qiziqish tezda so’ndi.⁹

So’nggi yillarda jahon adabiyotida yangi oqimlar va yo’nalishlar kirib kelmoqda. Xususan ilmiy fantastikada “Kiber Pank” oqimi kirib keldi. Bu harakat katta ta’sirga ega bo’lib, informatsion inqilobga aylandi. Bu yo’nalishdagi yozuvchilar kont madaniyatga e’tibor berishdi. Individualistik g’oyalar va adabiy tajribalar o’tkazish ommalashdi. “Yangi to’lqin”ning bunday elementlarini “Kiber

⁶Sadoul J. Histoire de la science-fiction modern - P.,1976. – P. 23-25.

⁷Бритникова.Ф. Русский советский научно-фантастический роман - Л.:1970. – Стр. 210.

⁸Ляпунов Б.В. В мире фантастики: обзор научно-фантастической литературы.- М., 1975. - Стр. 67.

⁹Таков Вл. Виток спирали:Зарубежная научная фантастика 60-70-х годов И.: Москва 1980. - Стр. 45-47.

pank” oqimi tarafdorlari ham davom ettirishdi. Aholining katta qismi virtual olam bilan mashg’ul bo’lganligi uchun ular asarlarida kompyuterlashgan jamiyatni tasvirlashadi. “Kiber pank”ning mashhur namoyondalari V.Gibson, B.Sterling, R.Ryukerlar hisoblanadi.¹⁰

G’arb adabiyotida 90-yillarning oxirida va XXI asrning boshlarida yaratilgan ilmiy fantastik asarlarda eski uslublar, shakllar va erishilgan yutuqlardan foydalanilayotganini ko’rishimiz mumkin. Zamonaviy jahon adabiyotida ancha vaqt oldin qilingan adabiy “kashfiyotlar” modernizatsiya qilinmoqda, 20-yillarda ommalashgan uslublar qo’llanilmoqda. Misol uchun adabiyotga yangi kirib kelgan “kosmik opera” oqimi ilmiy fantastikada renessans davriga aylandi. Bu mavzu XX asr boshlarida paydo bo’lgan bo’lib, “Kosmosga sayohat” va “Planetalar urushi” kabi adabiy g’oyalarni qamrab olgan. “Kosmik opera”ning yangicha varianti hattoki muhim va biroz hazilomuz nomlandi – “barokko uslubidagi kosmoopera”. “Kosmik opera”ni yangilash uchun personajlar ustida qayta ishlandi. Mualliflarning asosiy e’tibori tushuntirish va detallarga, asardagi chalkash jumboqlar va tez-tez uchraydigan bema’ni kosmik g’oyalarga qaratildi. Biroq shunisi ma’lum bo’ldiki, keyinchalik “kosmik opera” taraqqiy etmadi, bu yo’nalish hamjahon adabiyoti ilmiy fantastikasida katta burilish yasay olmadi.

Amerika zamonaviy adabiyoti vakili Ezra Paundning “Doimiy yangilanishda bo’l” chaqirig’i ham XX asrning aks-sadosi bo’ldi. Yangi davr yozuvchilari nasrda va nazmda yozgan o’z asarlarida yangilik olib kirishga g’ayrat bilan kirishdilar. Bu asrga kelib zamonaviy psixologiyaning adabiyotga ta’siri ham kuchli bo’ldi. Ko’pchilik buyuk yozuvchilar inson idroki mavzusiga qiziqish bildirdilar. Adabiyotda “stream of consciousness”(sezgi oqimi) paydo bo’ldi. Shu oqim namoyondasi Gertrud Steyn o’z asarlarida takroriy gaplardan foydalandi. Zamonaviy uslubni amalda qo’llagan Irlandiyalik yozuvchi Jeyms Joysning “Ullisses” asari shu uslubning o’ziga xos namunasi. Joysning hissasi katta bo’ldi, undan keyin ijod qilgan yozuvchilar o’z asarlarida Joysning uslubidan foydalanishga e’tibor qaratishdi.

Ko’pchilik adabiyotshunoslar tahlillariga binoan ilmiy fantastika janri ilk marotaba amerikalik yozuvchi Edgar Allan Po asarlarida ko’zga tashlangan. Uning ba’zi hikoyalari konseptual asosga ega, ya’ni inson faqat o’zi egallagan bilimlari yordamida tabiatning tushunarsiz, noaniq qonuniyatlarini ocha oladi. Uning bu qarashlari “Gans Haolyaning sarguzashtlari” nomli asarida o’z aksini topgan. Lekin E. Po hech qachon oddiygina ilmiy fantast yozuvchi bo’lishga harakat qilmagan, u fantastikaning boshqa yo’nalishlarida ham ijod qilgan.

Bugungi kunda ilmiy-fantastik janr nafaqat rivojlangan Yevropa va Amerika davlatlari uchun xos bo’lmasdan, balki oldinlari bunday mustaqil janrga ega bo’lmagan o’zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg’iz adabiyotlarida shakllanib, rivojlanib bormoqda. Bu adabiyotlarda ilmiy-fantastik janrning shakllanishi fan-texnika

¹⁰ Erich Schneider. “Cyberpunk as a Science Fiction Genre” P.: 2008. – P. 50-57.

inqilobi asrining samarasi, shu bilan birga, jahon ilmiy-fantastikasining ta'siri ostida ham rivojlanmoqda.

Bu janrning atoqli vakili Jyul Vern romanlarini "ilmiy", boshqa bir mashhur yozuvchi Herbert Uells esa "fantastik" deb hisoblagan. Rus olimi, fan targ'ibotchisi Yakov Perelman 1914-yili "Vaznsiz oshxonadagi nonushta" nomli hikoya e'lon qiladi va uning janrini "ilmiy fantastika" deb belgilaydi.

Jahon adabiyotiga nazar soladigan bo'lsak, ilmiy fantastika barcha xalqlar adabiyotida kundan kunga ommalashib, o'z kitobxonlarini topmoqda. Biroq AQShda va Britaniyada bu jarayon ancha erta boshlangan bo'lib, dunyoga mashhur fantastik yozuvchilar aynan ingliz adabiyotiga mansub bo'lishgan.

Ingliz yozuvchilari orasida bu yo'nalishda ijod qiluvchilari ko'p bo'lsada, ular orasida Gerbert Jorj Uells, Artur Klark va Brayan Oldisslar juda samarali va unumli ijod qilishgan.

Xullas, bu janrning badiiy imkoniyatlarini aniqlash, tahlil etish, yozuvchining mahorat sirlarini ochib berish adabiyotshunosligimizdagi eng dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Erich Schneider. "Cyberpunk as a Science Fiction Genre" P.: 2008.
2. Sadoul J. Histoire de la science fiction modern - P.:1976.
3. Sterling, Bruce. Science fiction in Encyclopedia Britannica 2008.
4. Tokhirova U.A "The description of image in H.Shaykhov's works" – Студенческий вестник, (8-3)2021. 52-5
5. Vanspankeren, Kathryn. Outline of American Literature – P.: Washington, 2006.
6. Бритников А.Ф. Русский советский научно-фантастический роман - Л.:1970. Гаков Вл. Виток спирали: Зарубежная научная фантастика 60-70-х годов И.: Москва 1980.
7. Ляпунов Б.В. В мире фантастики: обзор научно-фантастической литературы - М.:1975.
8. Осипов А. Н. Фантастика от «А» до «Я» М.:1999.
9. Чернышева. Т. Научная фантастика и современное мифотворчество И.: "Наука". 1989.

ALIBEK RUSTAMIY - MANBASHUNOS OLIM

Nizomiddinov Abbosxon Abdulkarim o'g'li
TerDU O'zbek adabiyotshunosligi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada manbashunos, matnshunos, tilshunos Alibek Rustamov ilmiy faoliyati, nazariy qarashlari, o'zbek manbashunosligi va matnshunosligi, navoiyshunoslik sohalari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: Alibek Rustamov, manbashunoslik, tilshunos, navoiyshunos, tarjimachilik, mumtoz so'z.

Abstract. This article provides information about the scientific activity, theoretical views, contribution to the development of Uzbek source studies and textual studies, and the development of the fields of linguist Alibek Rustamov.

Keywords: Alibek Rustamov, source studies, linguist, linguist, translation, classic word

Абстрактный. В данной статье представлены сведения о научной деятельности, теоретических воззрениях, вкладе в развитие узбекского источниковедения и текстологии, развитии направлений языковеда Алибека Рустамова.

Ключевые слова: Алибек Рустамов, источниковедение, лингвист, языковед, перевод, классическое слово.

Inson o'zining ma'naviy dunyosi bilan boshqa mavjudodlardan ajralib turadi. Har bir kishining insoniylik darajasi ham uning ma'naviy boyligi bilan belgilanadi. Ma'naviy yetuklik insonni xayrli amallarni qilishga undaydi. Shunday ekan, hamma davrda ham xayrli amallar qilgan, o'zidan foydali ilm qoldirgan insonlar doimo barhayot. Ezgulikni hamma har xil olim ilmi bilan, ona yaxshi tarbiyasi orqali qiladi. Ana shunday ezgu amallar qilib, yashab ijod etgan olimlar sirasi navoiyshunos, tilshunos, manbashunos Alibek Rustamovni ham kiritsak xato bo'lmaydi.

Bo'lajak olim 1931-yil Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida xizmatchi oilasida dunyoga keladi. 1955-yil O'rta Osiyo davlat universitetining eron-afg'on filologiyasi tamomlab, ilm yo'liga kirib keladi. Turli yillarda yurtimizning nufuzli oliygo'harida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib, 1995-yili xizmatlariga munosib ravishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylanadi. A.Rustamov qariyb 60 yil davomida ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordi. Taniqli olimning o'zbek tili, matnshunoslik, tarjimashunoslikka oid monografiya va risolalari, ilmiy-publististik maqolalari ilm ahliga ma'lum. Tadqiqotlariga e'tibor bersak Hazrat Navoiy ijodiga bo'lgan qarashlari, mehri o'zgacha edi. Buyuk shoir va mutafakkirning bebaho merosini chuqur o'rganishi alohida o'rin tutadi. Jumladan, "Navoiy tilining Grammatik xususiyatlari", "Navoiyning badiiy mahorati", "So'z haqida so'z" kabi kitoblarni yozib, Hazrat Navoiy ijodining yangi qirralarini kashf etdi. Alibek Rustamov ijodiga nazar

solsak, Hazrat Navoiy ijodiga qarashlari o'zgacha bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, olim arab, fors, turk, ingliz va rus tilining bilimdoni edi. Rus tilini esa o'zbek tilini qanday bilsa, shunday bilardi.

Olim ijodi bilan filologiya sohasining hammasida sermahsullik ko'rsatgan. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik sohalarida baravar ilmiy faoliyat olib borgan. Hazrat Navoiydan keyin Zahiriddin Muhammad Bobur va Husayn Bayqaro ijodi ham alohida e'tibor beradi. Husayn Bayqaroning "Risola"si bir necha olimlar tomonidan nashr qilinishga qaramay, 1991-yilda qayta nashr qiladi. Bu nashrning oldingilaridan berilgan izoh va lug'atlari bilan ajralib turadi.

Shuni alohida eslatib o'tish kerakki, Alibek Rustamovning bu ilmiy muvaffaqiyatlari zahirida eron-fors filologiyasini tugatgani, keyinchalik arab tilini puxta o'rganish va qadimgi turkiy tilni teran o'zlashtirishdek katta mehnati bor. Agar olim turkiy, fors va arab tillarini puxta egallamaganida Navoiy asarlarini tilini o'rganish va ilmiy-tadqiqotlarida bunchalik muvaffaqiyatlarga erishmagan bo'lar edi. Chunki Navoiy asarlarining tili o'sha davr o'zbek tili me'yorlariga ko'ra forsiy va arabiy o'zlashmalarga boy, diniy va tasavvufiy g'oyalarga yo'g'rilgan, Qur'on va hadislardan iqtiboslar bilan bezalgan edi. Undan tashqari, Navoiy asarlari mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish uchun o'sha davr klassik adabiyotining o'ziga xos badiiy vositalari: ilmi bade, ilmi maoniy, ilmi balog'a, ilmi aruz, ilmi qofiya va boshqa badiiy san'atlarni puxta egallash lozim edi. Alibek Rustamov yuqoridagi ilmlarni puxta o'rganib kitoblarida Navoiy ijodini quyidagicha tavsiflaydi.

"Navoiyning asarlari barcha jihatdan nihoyat darajada rango-rangligi bilan ajralib turadi. Ularda voqea, qahramon, tabiat, narsa, buyum, inshoot, makon va zamon ham, tasvir va bayon ham, vazn, qofiya, saj' va badiiy vositalar ham har asarda: har bobda, har faslda, har bayt va har jumlada turlichadir. Shu bilan birga boshqalariga nisbati yo'q na bir bob, na bir fasl, na bir bayt yoki jumla, na bir so'z, na bir ma'no va na bir tovush bor. Voqea va qahramonlarning turliligini, masalan, "Xamsa"da ko'rish mumkin, lekin bu turlilik zidlik va uyg'unlikni o'z ichiga olganligi uchun birlikning turliligidan iborat. Navoiy asarlarida tilga olinmagan tabiiy va sun'iy narsalar, ilmiy tushunchalar juda kam. Shoir qalamiga tushmagan o'lka, manzil, zamon, fasl va vaqt ham yo'q. Uning qofiya, vazn va badiiy vositalarining turli-tumanligini ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, turlilik Navoiyning butun ijodidagina emas, uning har bir asariga va har bir asarining har bir bo'lagiga ham xosdir¹¹.

Bizga ma'lum bo'ladiki olimga Navoiy ijodini anglash qiyinchilik tug'dirmagan. Filologiya fanlari doktori, professor Suyima G'aniyeva A. Rustamov haqida shunday eslaydi: Aliybeg "Mahbub ul-qulub" haqida har suhbatda bir yangilik aytar edi. Tilga oidlarini ba'zan anglamas, lekin adabiyotga oid fikrlarini maroqlanib eshitar edik. Hamfikir do'st, yaxshi suhbatdosh edik. To'y, tug'ilgan kunlarda birga, musibatlarda dardkash bo'lganmiz. U kamgap edi. Lekin meni

¹¹ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B. 128.

Yangiyo'lga olib borganda, uyi va yaqinlarini ko'rsatganda sergap bo'lganidan zavqlanganman. A. Rustamiy Navoiy tili bo'yicha ancha ishlar qildi. Nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. "O'zbek adabiyoti tarixi"ga hammualliflikda maqola yozdik. Hamkorligimizning yoddan chiqmas natijasi — rus tilida "История узбекской литературы" uchun mazkur qismni rus tiliga o'g'irganimda menga yaqindan yordam qildi. 1957-yildan beri muntazam o'tkazib kelinayotgan Navoiy anjumanlariga Aliybeg kelar edi (1962-yil, 6-konferensiya, 1964-yil, 8-konferensiya, 1965-yil, 9-konferensiya, 1970-yil, 14-konferensiya, 1971-yil, 15-konferensiya, 1974-yil, 18 konferensiya va boshqalar)¹².

Rustamiy ilmiy kitoblar yozishdan tashqari xalqimiz ma'naviyati, o'zligi, tobora yo'qolib borayotgan ma'naviy qadriyatlarga ham bee'tibor emasdi. Xalqimiz o'zligini va ma'naviy qadriyatlarini teran anglab yetishi kerakligini, jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini ta'kidlaydi. Olim bu yo'lda ham bir qator ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, "Shifo duosi" (1992), "Bismillohning ma'nosi" (1993), "Rustamiy tafsiri. Fotiha surasi" (2004), "Hazrat-i Navoiyning e'tiqodi" (2010), "Hazrat-i Navoiyning "mast-i alast"i" (2012), "Hazrat-i Navoiyning ma'naviy va suvariy sharoblari" (2013), "Hazrat-i Navoiyning ma'naviy olami" (2014) kabi risolalar, "So'z gavhari. "Basmala", "til", "adab", "odob" so'zlari" (2002), "Hazratning diyonati" (2011), "Masnaviy-i ma'naviy"dagi "nay"u "nayiston"ga Jomiyning sharhi" (2007) kabi maqolalar hamda ukalari Botirbek, Karimbek, Saidbek Hasanovlar bilan hamkorlikda tayyorlagan "Alisher Navoiy. Arba'iy" (1991, "Husayn Boyqaro" (1991), "Alisher Navoiy. Siroju-l-muslimiyn" (1993), "Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1993), "Nuri Muhammadiy va Nurnoma" (1996) risolalaridir. Olim keng ilmiy faoliyati bilan o'ziga ilmiy maktab yaratgan edi.

Adabiyotshunoslik fani tarixida turli ilmiy maktablar mavjud bo'lib, ularning aksariyati o'sha maktab asoschisi nomi bilan (akademik Konrad maktabi) yoki o'z yo'nalishi bilan (Struktural poetika maktabi) kabi nomlanadi. O'zbek adabiyotshunosligida ham Fitratning adabiyotshunoslik maktabi, Xodi Zarif folklorshunoslik maktabi mavjud va harakatda bo'lgani har bir mutaxassisga ma'lum. Shuningdek, XX asr adabiyotshunosligida ayrim sohalar bo'yicha Izzat Sulton nomi bilan bog'liq nazariya maktabi, Ozod Sharafiddinov tanqidchilik maktabi, G'ulom Karimov va Aziz Qayumov nomlari bilan bog'liq mumtoz adabiyot va manbashunoslik maktablari haqida adabiyotshunoslikka doir kitoblarda fikrlar aytilgan, ayrim risola va maqolalar yaratilgan. Biroq Aliybeg Rustamiy nomi faqatgina olim yozgan ilmiy asarlardagina aks etib qolmay, balki o'zbek tarixiy tilshunoslik, navoiyshunoslik, manbashunoslik, tarjimashunoslik kabi sohalarga taalluqligi, ustozning bu sohalarda yozgan asarlari ilmiy tizimga solinadigan bo'lsa, uni bevosita "Akademik Aliybeg Rustamiy maktabi" umumiy nomi ostida jamlash mumkin bo'ladi. Akademik Aliybeg Rustamiy asarlarining

¹² Aliybeg Rustamiy xotirasi: Odamiylik va olimlik fazilatlarini mujassam inson/ mas'ul muharrir A.Samad. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014.

ilmiy tasnifini berishga jur'at qilolmasam ham, o'z faoliyatim doirasida domla yaratgan asarlar mutolaasi bilan boglik fikrlarim bilan o'rtokdashishim mumkin¹³

Xulosa sifatida aytish mumkinki, olim filologiya fanning qaysi sohasiga oid tadqiqot qilsa ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Olim uzoq yillik faoliyati bilan o'z ilmiy maktabini yaratdi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Alibeg Rustamiy xotirasi: Odamiylik va olimlik fazilatlari mujassam inson: (xotiralar) / mas'ul muharrir A. Samad. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014.
2. Navoiyning badiiy mahorati: (badiiy adabiyot) / A. Rustamov. – Toshkent : Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
3. Forscha-o'zbekcha o'quv lug'ati: (pedagogika in-t studentlari uchun o'quv qo'll.) / A. Rustamov, K. Karimov, Z. Umarov. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.
4. "Xamsa" va o'zbek adabiy tili : [Alisher Navoiyning bebaho "Xamsa"si o'zbek adabiy tilining yangi tub so'zlar bilan boyitganligi haqida] / A. Rustamov // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1986.

¹³ O'sha asar –108 bet

TILSHUNOSLIKDA LINGVISTIK BAZALAR VA ULARNING AHAMIYATI

*Nizomiddinov Obidxon,
Termiz davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda lingvistik bazalar tuzish hamda ularning ahamiyati xususida soʻz yuritiladi. Bugungi kunda yaratilayotgan korpuslar, dunyodagi mashhur lingvistik bazalar va korpuslar, lingvistik baza tuzish, oʻzbek tilida lingvistik bazalarning yuzaga kelishi va hozirgi kundagi taraqqiyoti toʻgʻrisidagi fikrlar tahlilga tortiladi.

Kalit soʻzlar: tilshunoslik, lingvistik baza, ahamiyat, dunyo tilshunosligi, korpus, mashhur baza va korpus, oʻzbek tilidagi lingvistik bazalar.

Abstract. This article talks about the creation of linguistic bases and their importance in linguistics. Today's created corpora, world-famous linguistic bases and corpora, creation of a linguistic base, emergence of linguistic bases in Uzbek language and their current development are analyzed.

Keywords: linguistics, linguistic base, significance, world linguistics, corpus, famous base and corpus, linguistic bases in Uzbek language.

Абстрактный. В данной статье говорится о создании языковых основ и их значении в языкознании. Анализируются созданные сегодня корпуса, всемирно известные лингвистические базы и корпуса, создание лингвистической базы, появление лингвистических основ в узбекском языке и их современное развитие.

Ключевые слова: языкознание, языковая база, значение, мировая лингвистика, корпус, известная база и корпус, языковые основы в узбекском языке.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda tilshunoslikning kompyuter lingvistikasi tarmogʻi juda ham taraqqiy etib kelmoqda. Sababi, bugungi texnika va texnologiyalar asrida til sohasining ham kompyuter bazasidan oʻrin olishi davr talabiga aylanib ulgurdi. Tillarning kelgusi taraqqiyoti ham ushbu sohaga bevosita aloqador desak, aslo mubolagʻa boʻlmaydi. Kompyuter lingvistikasining tillar taqdiriga taʼsiri benihoya ekan, uning tarkibidagi sohalarning ham ahamiyati juda ham yuqoriligi ham aslo sir emas. Alalxusus, lingvistik baza va korpuslar shular jumlasidandir. Bizning ushbu maqolamizda lingvistik bazalar, korpuslar va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Lingvistik ma'lumotlar bazasi (LMB) ostida mos ravishda tizimlashtirilgan lingvistik ma'lumotlar to'plami tushuniladi hamda u kompyuter lingvistikasi fanining asosiy bazasi hisoblanadi. Korpus esa ana shu lingvistik bazaning yaratilishidagi muhim poydevor sanaladi. Korpus tilning barcha jihatlarini qamrab olsa, lingvistik baza esa korpus asosida yuzaga keladi. Dunyo miqyosida yaratilgan qator lingvistik bazalar mavjud boʻlib, ularning yaratilishi turli davrlarga borib taqaladi. Xususan, rus tilida mavjud asosiy lingvistik bazalarning yaratilishi XX

asr oxiri – XXI asr boshlariga to'g'ri kelgan hamda ularni qaysi mavzu asosida yaratishda leksikografik manba sifatida foydalanish amaliyoti hisobga olindi[3]. N.Y. Shvedova ishlab chiqilgan LMB ning mazmuni rus semantik lug'atining birinchi jildi misollari asosida ekanligi borasida o'z fikrlarini keltirgan edi. Tadqiqot uchun material sifatida ko'rsatilgan lug'atdan doimiy tanlab olish usuli bilan tanlangan shaxs va shaxslar guruhining nominatsiyasi ma'nosiga ega otlar va salbiy-baholash semantikasi bo'ldi. Material mafkuraviy, semantik va uslubiy tamoyillar asosida tanlangan[5].

Ma'lumotlar bazasi texnologiyasi turli sohalarda, jumladan, tilshunoslikda, masalan, "tipologik va qiyosiy, fonetik, leksik, grammatik tadqiqotlarda; leksikografiya; semantik tadqiqotlar, shu jumladan, tezauruslarni tuzish; matematik tilshunoslikda va amaliy lingvistik muammolarni hal qilish uchun (lingvistik didaktik, avtomatlashtirilgan tarjima, avtomatik tanib olish va nutq sintezi) foydalaniladi. Mishankina gumanitar fanlarda ma'lumotlar bazasi texnologiyasiga asoslangan axborot tizimlarini yaratish va ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqadi, xususan, ushbu texnologiyadan filologik (lingvistik) tadqiqotlar sohasida foydalanish bilan bog'liq ekanligi xususida fikr yuritadi[9]. Tadqiqotchi mavjud ma'lumotlar bazalari haqida tarixiy ma'lumot beradi va LMBni alohida toifaga ajratib, uni ikki turga bo'lishni taklif qiladi:

- I. To'liq matnli (to'liq matnlarni o'z ichiga olgan).
- II. Faktografik (turli til darajasidagi lingvistik birliklarni o'z ichiga olgan)[11].

To'liq matnli LMBga misol sifatida biz Tomsk davlat universiteti jamoasi (N.A. Mishankina, I.V. Tubalova, Y.A. Emer) tomonidan ishlab chiqilgan "O'rta Sibir folklori" ma'lumotlar bazasini keltirishimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar bazasini yaratishdan maqsad Sibir xalq madaniyatining ilgari mavjud bo'lmagan folklor materialini antropologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslik va Sibir mintaqasi tarixi sohasidagi turli tadqiqotlar uchun qulay va munosib formatda birlashtirish va taqdim etishdir. Bu ma'lumotlar bazasiga rus tilidagi turli janrdagi xalq og'zaki ijodi matnlari, masalan, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar, olmoshlar, til o'girishlari kiritilgan[13].

Shuningdek, boshqa adabiyotlarda lingvistik bazaning boshqa turlari ham alohida qayd etib o'tiladi. Uning birinchi turi, shuningdek, elektron kutubxonalar, matn to'plamlari va matn korpusini o'z ichiga oladi. Ikkinchi turdagi lingvistik bazalar orasida ulardagi til tavsifi darajasiga ko'ra, mos ravishda fonetik, morfologik, leksik va sintaktik lingvistik bazalarni ajratib ko'rsatish mumkin[4].

Leksik birliklar taqdim etilgan LMBlar, ayniqsa, an'anaviy va elektron lug'atlarni tuzish uchun leksikografik amaliyotda faol qo'llaniladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari leksikografik ma'lumotlarni to'plash va saqlash jarayonini soddalashtirishga imkon beradi, yozuvlari an'anaviy katalog kartasiga o'xshash oddiy fayl o'rniga ma'lumotlar bazasidan foydalanadi. Biroq, leksik LMBlar nafaqat yangi lug'atlarni yaratishda, balki turli xil lingvistik tadqiqotlarda ham qo'llaniladi, chunki LMB leksikografik ma'lumotlarni taqdim etishning

mustaqil formati sifatida lug'atlarga nisbatan bir qator quyidagi afzalliklarni taqdim etadi[8]:

- to'plash;
- saqlash;
- lingvistik ma'lumotlarni tizimlashtirish va uning ichida tezkor qidiruvni amalga oshirish;
- shuningdek, til tizimida doimiy ravishda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni amalga oshirish uchun ochiq tuzilishga ega [11].

Dunyo tilshunosligida xilma-xil lingvistik bazalar yaratilgan bo'lib, ularga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

"Ovoz" lingvistik bazasi (N.A. Mishankina, Tomsk davlat universiteti) semantikasida "tovush" komponentini o'z ichiga olgan fe'llarni qamrab oladi, "ovoz" leksik-semantik maydonini aks ettiradi va turini ko'rsatadigan audio yoki vizual demomateriallarni to'ldirish imkoniyatini beradi. Tovush, uning predmeti va u bilan bog'liq harakatlarni jamlagan ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Metaforik terminologiya lingvistik bazasi ilmiy nutqning kaliti bo'lgan konseptual metaforalarni aks ettiruvchi universal metafora modellarini aniqlashga qaratilgan baza hisoblanadi. Mualliflar (N.A. Mishankina, E.A. Panasenko, Tomsk politexnika universiteti) ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazasidan bir qator muayyan muammolarni hal qilishda, masalan, milliy tilning atama yaratishda eng mashhur leksik birliklarini aniqlashda foydalanish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ushbu ma'lumotlar bazasini yaratish uchun materiallar turli xil ilmiy sohalarning terminologik lug'atlariga asoslangan edi: biologiya, geologiya, informatika, tilshunoslik, tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, ekologiya. Tahlil qilingan manbalarning umumiy soni 65 tani, aniqlangan metaforik terminologik birliklar soni esa 2000 ga yaqinni tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlar bazasining markaziy jadvali "Leksik birlik", yordamchi jadvallari "Metaforik model" va mavzu sohalari jadvallari muayyan predmet sohasining metaforik terminologiyasidan iboratdir [12].

Psixolingvistik lingvistik bazasi (Tomsk davlat universiteti loyihasi: Z.I.Rezanova, A.A.Miklashevskiy) lingvistik semantikaning obrazli-idrok komponentini tavsiflash uchun ishlatiladi va yarim tizimli semantik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun statistik usullardan foydalanishga imkon beradi. Ushbu lingvistik bazada psixolingvistik eksperiment davomida olingan 506 aniq va mavhum otlar haqida ma'lumotlar, ya'ni ularning idrok etish usullari (ko'rish, eshitish, ta'm, hid va teginish hissi) bilan aloqasi va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar, masalan, so'zni o'rganishning subyektiv ahamiyati xususidagi ma'lumotlar o'rin olgandir [13].

Pragmatik belgilangan lug'at lingvistik bazasi Novosibirsk davlat pedagogika universiteti jamoasi tomonidan ishlab chiqilmoqda: T.A. Tripolskaya, E.Y. Bulygina, V.D. Chernyak (Sankt-Peterburg), V.A. Efremov (Sankt-Peterburg), M.A. Lappo, E.G. Basalaeva, L.N. Xramtsova, I.I. Sazhenin. Taxminan 400 birlikni o'z ichiga olgan ushbu ma'lumotlar bazasining demo versiyasi Internetda

mavjud. [14, 15] Keltirilgan tavsifga ko'ra, ma'lumotlar bazasi tavsifi rasmiy va mazmunli ravishda ikki qismga bo'lingan. Birinchi qismda rus tilining quyidagi klassik va zamonaviy lug'atlarining lug'at yozuvlari keltirilgan: "Rus tilining izohli lug'ati". D.N. Ushakov (1935–1940), 17 jildli zamonaviy rus adabiy tilining lug'ati (1950,1965), 4 jildli rus tilining lug'ati, A.P. Evgenyeva (1981-1984), "Rus tilining izohli lug'ati" S.I. Ozhegova va N.Yu. Shvedova (1999), "XX asr oxirida rus tilining izohli lug'ati. G.N. Sklyarevskaya (1998), "Rus tilining katta tushuntirish lug'ati", S.A. Kuznetsova (1998). Ma'lumotlar bazasining ikkinchi qismi mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan "Pragmatik belgilar lug'ati" lug'at yozuvlari asosida tuzilgan ushbu lingvistik baza bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda lingvistik baza borasida o'tkazilgan tahlillar ko'rib chiqilayotgan LMBlarning har biri ma'lum bir tadqiqot muammosini hal qilish uchun yaratilgan degan xulosaga kelishga imkon beradi va shuning uchun ular bir qator mezonlar bo'yicha farqlanadi, buning asosida LMB ning quyidagi kichik turlarini ajratish mumkin:

- leksik birliklarning turiga ko'ra, ya'ni ularning qismiga mansubligi bo'yicha: fe'llarni o'z ichiga olgan LMB ("Ovoz" LB), otlar (psixolingvistik LB, pragmatik belgilangan lug'at ma'lumotlar bazasi), nutqning bir nechta qismlari birliklari (lug'at LB); shuningdek, ulardan foydalanish sohasiga ko'ra: maxsus lug'atni o'z ichiga olgan LMB (metaforik terminologiya ma'lumotlar bazasi);

- leksik semantikasi tavsiflash jihati nuqtayi nazaridan: "tovush" (LB "Sound") semantik komponentini tavsiflovchi LB, metaforik semantika (metaforik terminologiya MB), obrazli-idrok komponenti (psixolingvistik LB), pragmatik makrokomponent, (MB pragmatik belgilangan lug'at), dinamik jihatdagi me'yoriy-stilistik komponent (lug'at bazasi);

- ma'lumotlar manbai bo'yicha: bir nechta turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan LMB ("Ovoz" ma'lumotlar bazasi), eksperimental ma'lumotlar (psixolingvistik ma'lumotlar bazasi), lug'at ma'lumotlari (metaforik terminologiya ma'lumotlar bazasi, pragmatik belgilangan lug'at ma'lumotlar bazasi, lug'at MB);

- qo'llanilish sohasi bo'yicha: turli tadqiqot maqsadlari uchun mo'ljallangan LB ("Ovoz" ma'lumotlar bazasi", pragmatik belgilangan lug'at ma'lumotlar bazasi), terminologik tadqiqotlar (metaforik ma'lumotlar bazasi) terminologiya), psixolingvistik tadqiqotlar (psixolingvistik ma'lumotlar bazasi), leksik va grafik amaliyotda foydalanish (lug'at bazasi).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, amaliy tilshunoslik va zamonaviy leksikografiya kesishmasidagi samarali yo'nalishlardan biri bu LB ning rivojlanishi bo'lib, undan foydalanish bir qator yangi muammolarni hal qilish va tilshunoslik uchun an'anaviy muammolarni hal qilish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Lingvistik (va, umuman, gumanitar) tadqiqotlarda ma'lumotlar bazasi texnologiyasidan foydalanish nafaqat materiallarni qulay taqdim etish va ularni yagona tuzilishga birlashtirishga, balki ular bilan ishlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mashinani qayta ishlash vositalaridan foydalanish,

shuningdek, yaratilgan ma'lumotlar bazalari yoki ulardan foydalanish asosida keyingi tadqiqotlar uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Alexander Clark, Chris Fox, and Shalom Lappin. (Edited) The Handbook of Computational Linguistics and Natural Language Processing. 2010 Blackwell Publishing Ltd.
3. Bender E.M., Langendoen D.T. Computational linguistics in support of linguistic theory. (Linguistic Issues in Language Technology, Vol. 1, 2010)
4. Igor A. Bolshakov and Alexander Gelbukh COMPUTATIONAL LINGUISTICS Models, Resources, Applications. – Mexico, 2004
5. Jurafsky D., J. H. Martin. Speech and Language Processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition. 2006 (elektron variant)
6. Mitkov R. The Oxford handbook of Computational linguistics. Oxford university press, 2003 (elektron variant)
7. Pulatov A.K., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2014.
8. Pulatov A. Kompyuter lingvistikasi. –Toshkent: Akademnashr, 2011.
9. Rahimov A. Kompyuter lingvistika asoslari. -Toshkent: Akademnashr, 2011.
10. Волкова И.А. Введение в компьютерную лингвистику. Практические аспекты создания лингвистических процессоров. –Москва, 2006.— 43 с.
11. Зубов А.В., Зубова И.И. Основы лингвистической информации. –Минск: МГПИИЯ, 1992.
12. Марчук Ю.Н. Компьютерная лингвистика: учеб. Пособие –Москва, Восток-Запад, 2007.
13. Шемакин Ю.И. Начала компьютерной лингвистики. –М.:Высшая школа, 1992

TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH UNDERSTANDING A CULTURALLY SIGNIFICANT TEXT

Mamadaliyev Abdumajit Mamosolievich

*Tashkent state pedagogical university
named after Nizami, Dean of Foreign
Languages Faculty, PhD, associate - professor
abdulmajid2003@mail.ru*

Abstract. *The article discusses the issues of teaching foreign languages through understanding a culturally significant text. Sharing many scholars' views on the problems of intercultural communication, it is stressed that the goal of teaching a foreign language in the universities of Uzbekistan should be the formation of the ability to use it as a tool for communication and cooperation in the dialogue of cultures, as a way of bilingual and multicultural self-development.*

Key words: *bilingual, multicultural, self-development, intercultural communication, foreign languages, cultural competence, community, social development.*

Introduction. The key methodology of the new education system of the Republic of Uzbekistan was the competence-based paradigm as the most consistent with the principles of the Bologna process, the requirements of the innovative development of society and the personality of a modern specialist. The actual problem of education in the context of globalization and informatization of all aspects of social life is the formation of competencies in university graduates - general cultural and professional, necessary for their subsequent successful self-realization in the professional space and active interaction in a multicultural society.

In connection with the orientation of the domestic education system towards entering the world educational space, general cultural competencies (CC), and at the same time the issues of language education, are of particular importance. A search is underway for new models and technologies for teaching a foreign language that contribute to the formation of not only linguistic, but also to a greater extent linguocultural competencies of future specialists. And in this sense, the relevance and social development potential of the discipline "Foreign Language" can hardly be overestimated. A foreign language is an important means of social development of the individual, comprehension of the social experience of mankind, world culture. The fact of the growing role of a foreign language in conditions when integration processes in the world community - a mixture of peoples, cultures, languages - have reached global proportions is recognized as indisputable, which makes the problem of fostering tolerance, respect and interest in foreign culture extremely relevant.

Considering the problems of intercultural communication, many researchers agree that the goal of teaching a foreign language in the universities of Uzbekistan

should be the formation of the ability to use it as a tool for communication and cooperation in the dialogue of cultures, as a way of bilingual and multicultural self-development [6].

At the same time, a pragmatic approach often prevails in the university when teaching foreign languages, which excludes the very possibility of forming a multicultural personality as a prerequisite for its successful self-realization and self-promotion in the professional space. This necessitates making appropriate adjustments to the educational process that enhance the sociolinguocultural component of the educational process, due to which, first of all, such personal qualities are formed that, according to domestic linguists (G.T. Makhkamova and others), makes it possible to actively interact in society, proceeding from the rules of behaviour accepted in society, customs, moral norms [1]. Thus, the formation of students' sociocultural competence becomes a priority task of modern language education.

The main part. At present, the language educational policy of the universities of the Republic of Uzbekistan, as practice shows, is built taking into account the multilingual information and educational space and demonstrates a tendency to study several foreign languages. Thus, by developing sociocultural competence through the perception of culturally significant texts in a foreign language, we implement the principle of "sociocultural orientation of the learning process" (co-study of a foreign language and culture), thereby solving an important task of modern education - the formation and growth of students' multiculturalism. And a foreign language becomes "a means of performing academic and professional activities, a cognitive tool for professional self-expression and self-improvement" [8, p. 91].

So, the effective linguistic self-realization of the personality of the future specialist in the cultural environment of the university is an important indicator of both its cultural self-determination and competitiveness in the labour market.

Initially, the main function of language in culture was the transmission of cultural values from generation to generation and through this - the achievement of understanding and mutual understanding, i.e. provision of information and technical conditions for solving the problems of social co-organization. But in the twentieth century the focus of the problem of understanding has shifted from understanding a culturally significant text and through it - a person to self-understanding of a person, regardless of cultural norms and values. The language began to act in a new and unusual function - providing an individual, but presented in society, self-understanding. In the scientific literature, there is an active discussion about the concepts of "reflection", "understanding", "interpretation".

For the first time, the problem of understanding appears in ancient philosophy and is associated with the names of Socrates, Plato and Aristotle, in whom it has the status of a moment of rhetorical discourse, and its solution was reduced to the development of language standards at all levels. In early antiquity, the problem of understanding was not recognized as an independent one, and the elimination of

misunderstanding was reduced to emotional impact; only in late antiquity did normative logical-rhetorical forms of ensuring understanding begin to be developed.

In cognitive linguistics, an attempt is made to expand the rational foundations for the analysis of linguistic discourse by taking into account extralinguistic factors. However, two ways are possible here: to expand the traditional linguistic paradigm or to rationalize these factors. The activity-communicative approach proceeds from the fact that social communication is the source of situations of interpretation and understanding of language actions and discourses in general; then understanding turns out to be not a state of consciousness and not a means of transforming one of its states into another, but a means of solving the problem of misunderstanding. At the same time, the problem of determining the active grounds for the transition from misunderstanding to understanding comes to the fore.

The cultural-psychological direction formed in linguistics solved the problem of adequate understanding of cultural (moral, religious, spiritual) values through the language. Initially, it manifested itself through the problem of poetic translation. We are talking about "emotional elements of speech", which are not thoughts and therefore cannot be transmitted through linguistic categories. Therefore, they are traditionally considered "extra-linguistic".

Thus, in communication between people, in order to understand the transmitted information, it is necessary to determine the context in which this information acquires the meaning that is embedded in the message. An important point seems to be that mutual understanding will be possible if people have already gained experience in recognizing and responding in this context. Otherwise, he will perceive information only in the contexts of understanding available to him, and attempts to clarify the conditions of the contexts will not lead to understanding [2].

Our analysis of the philosophical, psychological and linguistic studies of the category of understanding allows us to assert that these same processes underlie the acquisition of foreign language speech activity. In addition, it is obvious that the creation of an artificial foreign language environment in the process of teaching foreign languages is an important problematic issue of modern methodology. Both of these facts allowed us to form our own concept of teaching a foreign language through the perception of culturally significant texts, which is based on the identification of a two-way process of interaction between language and culture.

Based on the results of the analysis of the above studies, we come to the conclusion that the solution of one of the important modern problems of teaching a foreign language - the formation of students' multiculturalism - is possible only if there is a certain strategy for the formation of this competence, implemented through the chain "interpretation - reflection - understanding".

The desire to understand the socio-cultural characteristics of the country of the language being studied, the norms and values of the world of native speakers of a foreign language is a powerful incentive for students of the tourist profile to

realize their cognitive needs when working with a foreign language culturally significant text. From this follows a universal cognitive attitude for all the humanities: it is impossible to know a person without understanding him. This also applies to a person's understanding of himself: "The correlate of self-understanding is the contemplation of another individuality, which is known as the opposite of one's own. Only those who constantly strive to contemplate the whole of humanity and oppose their worldview to another can come to comprehend their own originality. Own accomplishment in the circle of others is the highest meaning" [7]. This means that understanding is an action aimed at correcting misunderstanding, which is of a natural nature and origin. But misunderstanding separates people, while understanding unites people. From this follows the moral meaning of understanding as a way to achieve the universal unity of people. At the same time, language is not just a means of transmitting and receiving information, but, first of all, a means of ensuring understanding and mutual understanding between people, i.e. language performs a moral and ethical function.

Conclusion. Thus, learning a foreign culture through language, a person comes to a better understanding of himself - self-understanding and self-knowledge, and through the processes of self-reflection - also to an awareness of his place in a multicultural society. This explains the need to present culturally rich texts in foreign language classes. At the same time, "text" should be understood as the whole variety of existing information resources, including audio, video materials, Internet resources, etc. The use of various channels for the receipt of information (auditory, visual, motor perception) has a positive effect on the strength of the perception of regional and linguistic material.

We attach special importance to the authenticity of the language material. Authenticity creates the illusion of familiarization with the natural language environment, which, according to many researchers, is the most important factor in the successful mastery of a foreign language and allows students to get acquainted with speech clichés, phraseology, vocabulary associated with various spheres of life. Authentic materials are materials taken from original sources, which are characterized by the naturalness of lexical content and grammatical forms, the situational adequacy of the language means used [5]. This is important, because, without having sufficient contacts with native speakers, students have limited background knowledge about the country of the language being studied, which means that they can misinterpret the extracted information, as well as the verbal and non-verbal behavior of the speaker - a native speaker, from the standpoint of their culture and their norms of behavior in certain situations of communication. This often leads to a misunderstanding of the perceived information and disruption of contact.

To overcome such difficulties, language, being a phenomenon of a certain culture, must be studied in the context of this culture. And authentic materials are called upon to help in this, in the process of perception of which the students form the background knowledge necessary for adequate understanding about the country

of the language being studied and its people. In fact, their use in the educational process contributes to the implementation of the principle of co-study of language and culture, i.e. the formation of sociolinguocultural competence.

So, overcoming situations of intellectual difficulty associated with the processes of understanding culturally significant texts (in the broad sense of the word), students of tourism specialties form not only foreign language communicative competence, but also sociocultural competence, which is both general cultural and professional for them, and which is given special importance in modern scientific pedagogical literature.

References

1. Ариян М.А. Механизмы и условия социального развития студентов средствами иностранного языка. – М.: МГУП, 2011. – № 5. – С. 124–128.
2. Boykhanov, Shuhratjon and Mamadaliev, Abdumajit (2021) "COMPARATIVE ANALYSIS OF DEFINITIONS OF A POLYSEMANTIC WORD PROVERB IN THE REFERENCE BOOKS," *Mental Enlightenment Scientific Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 4 , Article 4.
3. Икромхонова, Ф. И. (2021). КОМПОЗИЦИОННАЯ СТРУКТУРА ИСТОРИЧЕСКОЙ ПОВЕСТИ МИРКАРИМА ОСИМА" ТУМАРИС". *Вестник Челябинского государственного университета*, (1 (447)), 55-60.
4. Jabbarov, U. A. (2021). Teaching A Foreign Language Using Foreign Experience. *International Journal of World Languages*, 1(2).
5. Контекст понимания. О системной нейрофизиологии // Достижения науки, техники и культуры. – URL: http://www.scorcher.ru/neuro/neuro_sys/ego/context.php.
6. Makhkamova G. Culture matters. Tashkent, 2011
7. Mamadaliev, A. M. (2023). WORLD CULTURAL DIVERSITY IN IMPROVING MULTICULTURAL COMPETENCIES. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(1), 219–226. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/1447>
8. Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка. – Т.: Изд.-во «Фан» АНРУ, 2010.
9. Носонович Е.В., Мильруд Р.П. Параметры аутентичного учебного текста // Иностранные языки в школе. – 1999. – № 1. – С. 18–23.
10. Осиянова О.М. Модернизация лингвистического образования – путь вхождения ОГУ в единое образовательное пространство // Вестник ОГУ. – 2004. – № 12. – С. 57–61.
11. Потера М. Этика и герменевтика у Шлейермахера // Герменевтика и деконструкция / под ред. Ф. Штегмайера, Х. Франка, Б.В. Маркова. – СПб., 1999. – С. 34–46. – URL: anthropology.ru/ru/texts/potera/potera.html.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA ASOSIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Kadirova Shahnoza Aminboyevna

Urganch Davlat Universiteti

“Pedagogika” fakulteti “TSMG” kafedrası o’qituvchisi

shahnozaqadirova4488@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi tasviriy san'at darsida ta'lim kompetensiyasini qo'llashdir. Umumjahon bilim, ko'nikma va malakalarning yagona tizimini rivojlantirish, shuningdek talabalarning mustaqil faoliyati va shaxsiy javobgarligi tajribasini rivojlantirish, ya'ni bular ta'limning zamonaviy sifatini belgilaydigan asosiy kompetensiyasidir.

Kalit so'zlar: kompetensiya, semantik, vizual, natyurmort, manzara, kommunikativlik, motivatsion, konstruktivlik, mazmunli- operatsion, mazmuni kognitiv, instrumental ijro, komponentlar, motivatsion.

Abstract. the purpose of this article is to apply educational competence in a fine arts lesson. The development of a unified system of universal knowledge, skills and competencies, as well as the development of the experience of independent activities and personal responsibility of students, that is, these are the main competencies that determine the modern quality of Education.

Keywords: competence, semantic, visual, Still Life, Landscape, communicativity, motivational, constructivism, meaningful - operational, content cognitive, instrumental performance, components, motivational.

Kompetensiya (lat. competentia- loyqlik, mansublik)-har qanday kasb yoki mansabdor shaxsning fan bo'yicha egallagan nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalarni turli xil masalalarni yechadigan xususiyatlar doirasi. "Kompitentli" tushunchasi (lat. competens, competentis-mos; qobiliyatli) - kompetensiyaga ega; bilimdon, mahoratli. "Kompetentsiya" - "kompitentli" dan olingan-kompetensiyaga ega bo'lish; ma'lum bir sohada biron bir narsani hukm qilishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish. Kompetentsiya- talabaning kompetensiya bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarning faoliyatiga shaxsiy munosabatini o'z ichiga olgan. Kompetentsiya- bu talaba shaxsiyatining mavjud fazilatlar to'plami va ma'lum bir sohadagi faoliyatning eng kam tajribasi. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida talabalar nazariy bilimlar to'plamini yetarli darajada o'zlashtira oladilar, shu bilan birga ta'lim muhitida ozgina qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa muayyan muammoli vaziyatlarni yoki ta'lim muammolarini hal qilish uchun ushbu bilimlardan foydalanishni talab qiladi. Kompetentsiya deganda talabaning ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega muhitda ishlash tajribasi tufayli uning shaxsiy fazilatleri (semantik yo'nalishlar, bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar) majmui tushuniladi.

Ta'lim kompetensiyasi- bu samarali faoliyatni amalga oshirish uchun haqiqiy voqelik ob'ektlarining ma'lum bir doirasiga nisbatan talabaning o'zaro bog'liq

semantik yo'nalishlari, bilimlari, ko'nikmalari, ko'nikmalari va ish tajribasi yig'indisida ifodalangan ta'lim tayyorgarligiga qo'yiladigan talab.

Ta'lim kompetensiyalari:

1. Kompetensiya nomi (asosiy, umumiy fan, fan kompetensiyasi);
2. Kompetensiya kiritilgan voqealikning haqiqiy ob'ektlarini o'rab olish;
3. Kompetensiyaning ijtimoiy va amaliy ahamiyati;
4. Talabning ushbu ob'ektlarga nisbatan semantik yo'nalishlari, kompetensiyaning shaxsiy ahamiyati;
5. Haqiqat ob'ektlari doirasi haqida bilim;
6. Haqiqiy ob'ektlarning ushbu doirasi bilan bog'liq ko'nikmalar;
7. Haqiqiy ob'ektlarning ushbu doirasiga nisbatan faoliyat usullari;
8. Ushbu kompetensiya sohasidagi talaba faoliyatining minimal zarur tajribasi (o'qitish bosqichlari bo'yicha);
9. Ko'rsatkichlar-talabning malakasi darajasini (darajasini) aniqlash uchun (o'qitish bosqichlari bo'yicha) o'quv va nazorat-baholash topshiriqlarining namunalari.

MDH davlatlari olimlari qatorida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kompetensiyalari, shu jumladan pedagogik kommunikativlik kompetensiyalari masalasi Adolf V.V., Kozlova N.B., Xayrullin A.R., Malinskaya L.L.Mokrousov S.I. va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan.

Tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganishga bag'ishlagan tadqiqotlarda ushbu turdagi kompetensiyalarning tarkibiy qismlari alohida taxlil qilingan. Jumladan, V.A. Adolf o'qituvchining kasbiy malakasini quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb hisoblaydi: motivatsion, maqsadni belgilash va mazmunli- operatsion.

N. B. Kozlovning fikricha, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining mazmuni kognitiv, motivatsion va faoliyatli komponentlarni o'z ichiga oladi.

A.R.Xayrullin tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi mazmuniga quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: motivatsion, instrumental ijro va tasviriy- ijodiy.

L.L.Malinskaya bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi: professional tasviriy-pedagogik yo'nalish, kasbiy kompetensiyalar (kompetensiyalar tasviriy-pedagogik faoliyat sohasida: tasviriy san'at, pedagogika, psixologiya; tasviriy-ijodiy faoliyatning yetakchilik qobiliyati, tasviriy faoliyatning texnologik usullarini o'zlashtirish; kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy xususiyatlar (tasviriy-majoziy fikrlash, tasavvur, badiiy obraz yaratish qobiliyati, ijodiy faoliyatlilik, o'z-o'zini tartibga solish qobiliyati, kasbiy harakatchanlik, mahsuldorlik, tashkiliy qobiliyat, talabchanlik, qat'iyatlilik, ishchanlik, kommunikativlilik, konstruktivlilik).

S. I. Mokrousov nuqtai nazaridan tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi mazmuni quyidagilardan iborat: universal (asosiy) kompetensiyalar: axborotlashgan, ijtimoiy-kommunikativ; umumiy kasbiy

(pedagogik) kompetensiyalar: proeksion, tashkiliy, kognitiv; maxsus professional kompetensiyalar: uslubiy, analitik, tasviriy, madaniy.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik kommunikativlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonini o'rganish asosida mavjud pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Umumiy madaniy kompetensiya barcha odamlar uchun umumiy bo'lgan milliy madaniyatni bilishni va ushbu sohalarida tajriba orttirishni ta'minlaydi;

O'quv va kognitiv kompetensiyalar. Bularga talabaning faoliyatning mantiqiy, uslubiy, umumiy ta'lim elementlarini o'z ichiga olgan mustaqil qidiruv-kognitiv faoliyat sohasidagi kompetensiya to'plami kiradi.

Axborot kompetensiyalari. Bu ta'lim fanlari va ta'lim sohalarida, shuningdek atrofda butun dunyoda ma'lumot bilan ishlash mahoratini ajratib ko'rsatishadi - bu zamonaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalarini o'zlashtirishdir.

Kommunikativ kompetensiyalar. Ushbu kompetensiyaga quyidagilar kiradi: turli tillarni bilish, atrofda odamlar va so'nggi voqealar bilan o'zaro ta'sir qilish usullarini bilish; guruhda, jamoada ishlash ko'nikmalarini egallash, turli xil ijtimoiy rollarni egallash qobiliyati.

Shaxsiy o'zini takomillashtirish kompetensiyari jismoniy, ma'naviy va intellektual o'zini o'zi rivojlantirish, hissiy o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi qo'llab-quvvatlash va ulardan foydalanishga qaratilgan. Talaba o'zini doimiy ravishda zamonaviy inson uchun muhim bo'lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, psixologik savodxonlik, aqliy va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda namoyon bo'ladigan uning manfaatlari va imkoniyatlari uchun faoliyat turlarini o'zlashtiradi.

Tasviriy san'at darslarida siz quyidagilarni shakllantirishingiz mumkin:

-semantik kompetensiyalar, chunki vizual faoliyat talabalarning atrofda dunyoni ko'rish va tushunish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi;

- umumiy madaniy kompetensiyalar, chunki tasviriy san'at inson hayotining ma'naviy va axloqiy asoslari manbalaridan biri bo'lib, xalq an'alarining tashuvchisi hisoblanadi;

- shaxsiy o'zini takomillashtirish kompetensiyalari, chunki tasviriy san'at orqali ma'naviy o'z-o'zini rivojlantirishga, shuningdek hissiy o'zini o'zi boshqarishga erishiladi.

Kompetensiyani aniqlashda mavjud axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'g'ri foydalangan holda ma'lum bir doiradagi muammolarni hal qilish qobiliyati ta'kidlanadi.

Tasviriy san'at darsida ob'ektlarni qo'llash shakllari har xil bo'lishi mumkin:

1. Butun rasm reproduksiyasi sinfi uchun katta hajmadagi ko'rgazmalilik namoyishi. Talabalar taklif qilingan reproduksiyani tahlil qiladilar, rasm, kompozitsiyani muhokama qiladilar.


2. Talabalarning guruh ishi (raqobat o'yini: 5 daqiqada kim ko'proq rasm chizadi).

3. Frontal ish. (O'qituvchi materialni ekranga namoyish etadi va uning asosida suhbat o'tkazadi):

- Yovvoyi tabiat tasvirlangan tasvir janrining nomi ? (Manzara)
- O'lik tabiat qanday tasvirlangan? (Natyurmort)
- Malik Nabiyeving "Sohibqironning adolat mezonlari" asarida nima tasvirlangan?
- Raxim Axmedovning "Natyurmort" asarining reproduksiyasida nima tasvirlangan?



Malik Nabiyevi "Sohibqironning adolat mezonlari"



Raxim Axmedov "Natyurmort"

4. Mustaqil ish uchun talaba uchun darsdagi topshiriq. (O'quv mashqlarini bajarish).

5. Ko'nikmalarni mashq qilish. (O'qituvchi testlar va o'quv mashqlaridan foydalangan holda individual ta'lim shaklini tashkil qilish imkoniyatiga ega).

6. Boshqa darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun dasturlar (o'qish, mehnat ta'limi, atrofdagi dunyo va boshqalar).

7. Talabalar tomonidan mustaqil topshiriqlar uchun foydalanish (shu jumladan rassomning ma'ruzalarini tayyorlash).

8. Tadqiqot va loyiha ishlarini tashkil etish.

Tasviriy san'at darslarida quyidagi fan kompetentsiyalari shakllantiriladi

1. Ishda tasavvur, tasavvurdan foydalanish, rasmda o'z fikrlaringiz va his-tuyg'ularingizni aks ettirish qobiliyati;

2. Ob'ektlarni tekislikda va hajmda tasvirlash qobiliyati;

3. Rasmdagi ob'ektning shakli, harakati, nisbatlarini aniqlash va yetkazish imkoniyatiga ega bo'lish;

4. Badiiy faoliyat ko'nikmalaridan uning turli turlarida (rasm, grafika, san'at va hunarmandchilik va boshqalar) foydalana olish.;

5. Vizual faoliyatingizda badiiy materiallarning ekspressiv imkoniyatlarini (bo'yoqlar, qalamlar, ko'mir, qalam, plastilin va boshqalar) tanlab olish va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish.;

6. Rasmning rangli dizaynini hal qila olish;

7. San'at asarlarini tahlil qila olish;

8. Badiiy terminologiyadan faol foydalana olish.

Talabalarni san'at olami bilan tanishtirish "san'at" ta'lim sohasining eng muhim vazifasidir. Uning asosiy maqsadlari orasida ma'naviyatni tarbiyalash, tabiat va inson shaxsiga axloqiy munosabat, badiiy did va majoziy - assotsiativ fikrlashni shakllantirish. O'qituvchi hayotdagi o'xshashliklardan maksimal darajada foydalanishi, mazmunli, tematik jihatlariga ko'proq e'tibor berishi kerak, tasviriy-badiiy materiallardan foydalangan holda.

Xulosa: tasviriy san'at darslarida rasmni tavsiflash ustida ishlash jarayonida talabalarning fan kompetentsiyalarini shakllantirish nutqni rivojlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, estetik tarbiyaga yordam beradi, talabalarni san'at olami bilan tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.F. Abdirasilov "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" Toshkent-2012
2. Рахим Хасанов "Тасвирий санъат асослари" ИБ№ 4837 Гафур Фулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи Тошкент-2009
3. Гофур Абдурахманов "Композиция" Тошкент-2009 й
4. Изобразительное искусство и художественный труд. 1-9 кл. / Под рук. Неменского Б.М. - М.: МДО, 1995
5. Горохова И.Ф. Формирование ключевых компетенций школьников на уроках технологии посредством взаимодействия основного и дополнительного оборудования
6. Гусарова Н.Н. Беседа по картине: Времена года // Худ. И.Ф. Дукк. – СПб.: ДЕТСТВО ПРЕСС, 1999.
7. Беда Г.В. Основы изобразительной грамоты: рисунок, живопись, композиция. 2-е изд. - М., 1986.

**BOSHLANG`ICH TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN
FOYDALANISH ORQALI O`QUVCHILARDA KASBIY
KO`NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA O`QUV TOPSHIRIQLARINI
BAJARISH ORQALI TA'LIM SAMARDORLIGINI BAHOLASH
OMILLARI**

Saidova Mashhura Safiyenna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani

70-maktab boshlang`ich sinfi o`qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang`ich ta'limda o`quv mashg`ulotlarida STEAM texnologiyalaridan foydalanishning aniq fanlar misolida o`quvchilarining o`quv bilim qobiliyatlarini samarali tashkil etish, o`zlashtirish, bilimlarni qo`llay olish malakalarini shakllantirishning didaktik metodlarini ishlab chiqish orqali o`quvchilarni mehnat ko`nikmalarini shakllantirishga erishish. Boshlang`ich ta'limda STEAM texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodik usullarini yoritish, o`quv dars mashg`ulotlarida didaktik usullar asosida o`quvchilar ijodiy imkoniyatlarini baholash, o`quvchilarni aniq fanlar bo'yicha dastlabki tushunchalarini shakllantirishga erishish.

Kalit so`zlar: STEAM texnologiyasi, klaster, keys-mushoxada, tadqiqot natijaviyligi, didaktik usullar, metodik ko`rsatkichlar, ko`rsatkich, samaradorlik, omillar, daraja.

Annotation. In the article, the production of examples of specific subjects by downloading from STEAM technologies in the training sessions, assimilation, increasing the skills of applying knowledge, assimilation, and the production of knowledge will make students employable. to find out what is going on. Production of methodical methods of effective orientation of STEAM technology in primary education, development of educational activities based on didactic methods in training classes, development of students' production in specific subjects.

Key words: STEAM technology, Cluster, case-observation, research effectiveness, didactic methods, methodological indicators, indicators, efficiency, quality, level.

Аннотация. В статье рассмотрено использование STEAM-технологий в учебных занятиях в начальных классах, на примере конкретных предметов, посредством разработки дидактических методов эффективной организации, усвоения и применения знаний учащихся, помогающих формировать у учащихся навыки работы. . Освещение методических приемов эффективного использования STEAM-технологий в начальном образовании, оценка творческих способностей учащихся на основе дидактических методов на учебных занятиях, достижение формирования у учащихся базовых представлений о конкретных предметах.

Ключевые слова: технология STEAM, Кластер, кейс-наблюдение, эффективность исследования, дидактические методы, методические показатели, показатель, эффективность, факторы, уровень.

Bugungi kunda bilimni boyitish, amaliy jihatdan kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga erishishdagi imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'lim va tarbiya jarayonining alohida amaliy ahamiyatini aks ettiradi. Bu hozirgi kunda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi bilvosita aloqadorlikni ta'minlanishga nisbatan dolzarb talablarni shakllantiradi. Bu bevosita ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi bilvosita aloqalar tizimida pedagogik texnologiya, didaktik jarayonlar, zamonaviy o'qitishning STEAM texnologiyalaridan keng foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqishga nisbatan bir qator talablarni shakllantiradi. Masalan, ta'lim axborot bazasi keng va uni amaliy ahamiyatini, mehnat samaradorligini oshirishdagi rolini oshirish faqat nazariy jihatdan texnologiyalarni qo'llashga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan, ta'limning fundamental bazasi hisoblangan boshlan'ich ta'lim o'quv mashg'ulotlarida STEAM texnologiyalari asosida aniq fanlar bilimlarini o'zlashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat jarayonlaridagi turli amaliy jarayonlarning to'g'ri hisobini yuritish malakalarini shakllantirish ushbu maqolaning didaktik prinsiplari, ta'lim jarayoni xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'lim o'quv mashg'ulotlarida STEAM texnologiyalaridan foydalanish va ta'limni texnologiyalashtirishning siyosiy omillarini yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi —Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5538 farmonida rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etishdagi jarayonlar mazmunini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta'limni amaliy ahamiyatini yoritishda STEAM texnologiyalari hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin.

S –science .

T – technology.

E – engineering.

A – art .

M – mathematics .

Yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir. Bu yaxlit tushunchaning boshlang'ich ta'lim tizimidagi didaktik o'quv mashg'ulotlaridagi rolini yoritishda dolzarb masalalar qatorida e'tirof etilayotgan maktab ta'limida barkamol, sog'lom fikrlovchi mehnat ko'nikmalariga ega shaxslarni tarbiyalashning maktab ta'limining muhim xususiyatlaridan biridir.

Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyalarni o'quv dars mashg'ulotlarida qo'llashda ta'lim samarali rivojlanish, o'zgarish, takomillashish, andoza olish xususiyatlarini o'z ichiga olib, ta'lim o'z navbatida rivojlantiruvchi omillarni qo'llash, ilmiy asosdan foydalanish mezonlariga bevosita bog'liq. Shu boisdan, ta'limning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, olinganda maktab ta'limi boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodlari, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari misolida o'quv samaradorligi natijalarini olishga qaratilgan ushbu maqola hozirgi kunda mukammal dars o'quv mashg'ulotida ilmiy yondashuv shakllari, texnologiya turlari, injenerlik mahorati, san'at va matematik metodlar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish orqali o'quvchilar o'zlashtirish darajasini oshirish, mehnat, kasbga yo'naltirishning metodik tahlil natijalarini shakllantirish maqolaning metodik vazifasini aks etadi. Jumladan, boshlang'ich ta'limda matematika fani misolida o'quvchilarni STEAM integratsion metod asosidagi o'quv faolligini oshirishdagi bir qator metodlarini keltirib o'tamiz.

S–science. Ya'ni fanlar bo'yicha ilmiy tafakkurni shakllantirish darajasi. Bu bevosita aniq fanlar bo'yicha ilmiy tafakkurni shakllantirish sohasi hisoblanib, o'qitishning ilmiy qoidalarini o'z ichiga oladi.

Matematika fanidan oddiy kasrlarni aqliy yondashuv asosida klaster metodi asosida o'quv mashg'ulotida sinf o'quvchilari ishtirokida quyidagi klaster tarmoq metodi asosida quyidagi topshiriq bo'yicha o'quvchilar tafakkur darajasi tekshiriladi. Klaster metodi aniq fanlar bilimlarini o'zlashtirishning strukturaviy ko'rinishi hisoblanib, ilmiy natija olishdagi aniq fanlarning har bir fan sohasi mazmunini ma'no jihatidan tizimli o'lashtirish imkoniyatini aks ettiradi. Berilgan namuna orqali guruhda o'quvchilar 0,5 qiymatni turli doiralardagi qiymatlarga solishtiradi va teng qiymatni tanlab klaster tuzadi. Bu klaster metodi orqali guruh o'quvchilari o'zlaridagi kasr va qiymatni solitirib o'tadi. Bu o'z navbatida kasr va qiymat o'rtasidagi bog'liqlikni tafakkur qilish malakasi shakllanadi. Klaster metodini STEAM texnologiyasiga bog'liqlik jihati o'quvchilar kelgusidagi kasbiy faoliyatdagi miqdor va qiymat o'rtasidagi bog'liqlik, miqdor va qiymat o'rtasidagi solishtirma tahlil qilish malakasini shakllantirishga erishadi.

E–engineering. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayotiy jarayonlardagi matematik qiymatni baholashning to'g'ri taqsimotini shakllantirish. Masalan, o'quvchilarni kelgusidagi matematik bilimlarni kelgusi mehnat jarayonlarida qo'llash malakalarini shakllantirishning didaktik omillarini ishlab chiqish. Shu boisdan, sinf o'quvchilari jamoasida quyidagi masala asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida injenerlik maxoratini shakllantirishning hayotiy narsa va jismlar shaklini o'zgartirish, yangi shakl yasash kabi ko'nikmalarni shakllantirishda matematik jihatdan tahlil qilish malakasini shakllantirishga erishish mumkin. Masalan, qurilishda aniq matematik hisob bo'lmasa, qurilish to'liq tugatilmasligi, qurilish harajatlarini ortishi kuzatilishi mumkin. Bu o'z navbatida qurilish bilan bog'liq bilimlarni doimiy chuqur o'zlashtirib borishga nisbatan texnologik va ilmiy talablarni shakllantiradi.

1.2. Masala. Qirradi 6 sm bo'lgan kubni bo'yash uchun qanday kattalikdagi yuzani bo'yash lozim? Bu o'z navbatida qurilishdagi injenerlik malakasini shakllantirish va to'liq bo'yash uchun zaruriy miqdorni kerakligi bilimni zarurligini ko'rsatadi. Guruh o'quvchilariga ushbu topshiriq berilganda Qirradi a bo'lgan kubning sirtining yuza formulasi ($S=6a^2$) formulasi asosida topiladi. Berilgan misol kubning yuzasini topish formulasi asosida yechilsa 216 sm yuzani bo'yash lozim. Bu o'z navbatida guruh o'quvchilariga savol tariqasida berilsa kelgusida o'quvchilarning mehnat faoliyatidagi bo'yash, konstruksiyalash, kompozit materiallardan foydalanish, bir ishchi kuchi harajatlarini hisoblashdagi muhandislik malakalari shakllanadi. Masalan, qurilishdagi o'quvchilarni o'quv jarayonidayoq muhandislik mahoratini shakllantirishda 300 m²ga yuzaga qancha shifer ketadi? 1 ga yer maydonini sug'orishda qancha m³suv hajmi kerak? 750 m² maydonga qancha mineral o'g'it kerak? kabi ko'rsatkichlarni aniq natijasini olishdagi bilimlarini tekshirish muhandislik malakalarini shakllantirishning texnologik xususiyatlarini aks ettiradi.

